

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 36(575.1)

TOSHNAZAROVA LOLA SHUXRATILLAEVNA

**O‘ZBEKISTON MILLIY SUG‘URTA BOZORINING SAMARALI
FAOLIYATINI TA‘MINLASH YO‘LLARI**

DISSERTATSIYA

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Falsafa doktori (Doktor of Philosophy)

ilmiy darajasini olish uchun

TOSHKENT 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. SUG‘URTA BOZORINING VUJUDGA KELISH SHART-SHAROITLARI VA NAZARIY ASOSLARI.....	11
1.1. Sug‘urta bozorini barpo etishning ob‘ektiv zarurligi va nazariy asoslari.....	11
1.2. Sug‘urta bozorining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni.....	24
1.3. O‘zbekiston milliy sug‘urta bozorining samarali faoliyatini ta‘minlashda rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan foydalanish.....	36
1-bob bo‘yicha xulosa.....	49
II-BOB. O‘ZBEKISTON MILLIY SUG‘URTA BOZORINING HOZIRGI HOLATINI TAHLILI.....	53
2.1. O‘zbekiston sug‘urta bozorining rivojlanish xususiyatlari va hozirgi holatining tahlili.....	53
2.2. Sug‘urta kompaniyasining samarali faoliyatini ta‘minlashda uning moliyaviy barqarorligining o‘rni.....	70
2.3. Sug‘urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish masalalari.....	77
2-bob bo‘yicha xulosa.....	94
III-BOB. O‘ZBEKISTON MILLIY SUG‘URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	97
3.1. Sug‘urta bozorini rivojlantirish va tartibga solishda davlat ishtirokini institutsional rivojlantirish.....	97
3.2. Sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan iste‘mol talabini oshirishning innovatsion yo‘llari.....	108
3.3 Milliy sug‘urta bozori investitsiyaviy jozibadorligini oshirish yo‘llari.....	119
3-bob bo‘yicha xulosa.....	128
XULOSA.....	132
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	136
ILOVALAR.....	145

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida sug'urta iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi risklarning oldini olish va ko'rilgan zararlarni qoplash bo'yicha muhim o'rin tutadi. 2008-2011 yillarda bo'lib o'tgan xalqaro moliyaviy inqiroz, 2020 yilda boshlangan pandemiya sharoiti ushbu fikrning to'g'riligini yanada tasdiqladi. Bir tomondan, sug'urta bozori davlatlar va mintaqaviy uyushmalar doirasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishidagi integratsiya jarayonlarini ta'minlasa, boshqa tomondan, sug'urta maydoni yuqori xavflar bilan bog'liq. Sug'urta sektorining dunyo iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasini quyidagi ko'rsatkichlarsiz baholash qiyin: 2016 yilda Yevropa sug'urta bozorida yig'ilgan sug'urta mukofotlari 1,200 milliard yevroni tashkil etib, ushbu ittifoqqa kiruvchi mamlakatlar sug'urta tashkilotlari tomonidan qariyb 1 million ish o'rni yaratilgan. Ular tomonidan Yevropa iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyalar miqdori 10 milliard yevroni tashkil etmoqda¹. Shu munosabat bilan, Yevropa Ittifoqi sug'urta bozorini rivojlantirish, bunda sug'urtalanuvchilar huquqlarini himoya qilish va shu asosda bozorni tartibga solishga alohida ahamiyat qaratiladi. Yevropa Ittifoqi noyob iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy sub'ekt bo'lib, sug'urta bozorini rivojlantirish va ushbu bozordagi mavjud muammolarni hal etish yo'llarini ilmiy jihatdan o'rganishga alohida e'tibor qaratadi.

Jahon sug'urta bozori global muammolarga duch kelmoqda. Iqtisodiy beqarorlik, me'yoriy talablarning oshishi, tabiiy xavflar va past rentabellik – mana shular 2030 yilgacha bo'lgan tarmoq rivojining istiqbollari to'g'risida Iqtisodiy razvedka bo'linmasi tomonidan Shimoliy Amerika, Yevropa va Osiyodagi 322 ta sug'urta vositachilik kompaniyalari menejerlari o'rtasida soha istiqboli to'g'risida o'tkazilgan so'rovda aniqlangan ba'zi omillar². Oldinda turgan muammolarga javoban, jahon sug'urta bozori o'z arxitekturasini o'zgartirmoqda. Ixtisoslashishning chuqurlashuvi, an'anaviy sug'urta turlarining raqamli

¹ Ishchenko N.G. Evropa Ittifoqida sug'urta xizmatlarini huquqiy tartibga solish. Yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. M.: – 2018 yil.

² The Economist Intelligence Unit. Digital Adoption in the Insurance Sector from Ambition to Reality? [Text] // EIU. – 2015. – P.3. Insurance Market Outlook for 2017/2018.

platformalarga o'tishi, yangi tarmoqlararo mahsulotlarning yaratilishi ishtirokchi mamlakatlar kuchlarining global miqyosda birlashishini talab qiladi. Rivojlangan davlatlar an'anaviy ravishda "hayot" va "hayotdan tashqari" sug'urta tarmoqlari bo'yicha jahon sug'urta bozorida yetakchi o'rinlarni egallab kelayotgan bo'lsada, bugungi kunda bunday mamlakatlar sifatida Amerika va Yevropa sug'urtalovchilari faoliyati o'sishining sekinlashuvi va rivojlanayotgan bozorlar faollashuvining yuz berishi natijasida Osiyo kompaniyalari oldida tobora o'z o'rnini yo'qotmoqda.

Osiyo mamlakatlarining barchasida ham sug'urta faoliyati barqaror rivojlanayapti deb bo'lmaydi, shu jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining eng yirigi hisoblangan O'zbekistonda sug'urta sohasi iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlovchi muhim tarmoqqa aylandi deb ayta olmaymiz. Sug'urtaning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi hissasi hamon pastligicha qolmoqda. Pandemiya ta'sirida ushbu ko'rsatkich, shu bilan birga, to'plangan yalpi sug'urta mukofoti ko'rsatkichi bo'yicha 2020 yilda pasayish yuz berdi. Vaholanki, qo'shni Qozog'istonda mamlakatimizga nisbatan pandemiya keng avj olgan bo'lsada, 2020 yilda sug'urta kompaniyalari tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlari hajmi 2019 yilga nisbatan 12 foiz o'sish ko'rsatkichiga ega bo'ldi³. Bu shundan dalolat beradiki, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida samarali qo'llanilayotgan raqamli iqtisodiyot va shu kabi boshqa innovatsion metodlarni qo'llash borasida O'zbekiston sug'urta tarmog'i yetarli tajribaga ega emas.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgustdagi PF-5495-son "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 5 apreldagi PF-5464-son "O'zbekiston Respublikasida fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2019 yil 2 avgustdagi PQ-4412-son "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va ushbu qaror bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi" hamda 2021 yil 23 oktyabrdagi PQ-5265-son "Sug'urta

³ <https://kursiv.kz> sayti ma'lumotlari

bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini riqvojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabrda yangi tahrirda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrda PQ-780-son "Elektron turdagi sug'urta xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va shu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sug'urta bozorining mohiyatini va turli jihatlarini nazariy jihatdan tadqiq qilish dunyo klassik nazariyachilari A. Manes, D.Bland tomonidan, chet mamlakatlarning olimlari K.G. Voblyy, L.A.Orlanyuk-Malitskaya, S.Yu. Yanova, A.I. Shkurenko, E.Joseph Stiglitz, Jugyoll Yun, Andrew Kosenco, G.N.Djabarov, A.S.Zanin va boshqalar tomonidan o'rganilgan⁴.

Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Q.M.Qo'ldoshev, X.M.Shennaev, O.T.Yuldashev, A.A.Yadgarov, N.A.Mavrulova, I.Abduraxmonov, I.G'.Kenjaev, G.T.Xalikulova, R.Qo'zieva, G.D.Adilova, D.A.Baratova,

⁴ Manes A. Sug'urta biznesining asoslari. Abbr. u bilan tarjima -M.: nashriyot uyi. Markaz "Ankil" 1992 yil; Bland D. Insurance: Principles and Practice, The Chartered Insurance Institute 1993; Vobly K.G. Sug'urta iqtisodiyoti asoslari, Moskva, Ankil, 1993; Orlanyuk-Malitskaya L.A., Yanova S.Yu. Sug'urta Moskva, Yurayt, 2012; Shkurenko A.I. Mintaqaviy sug'urta bozorini kompleks tadqiq qilish vositalarini ishlab chiqish. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati, Krasnodar, 2013 yil; Joseph E. Stiglitz, Jugyoll Yun, Andrew Kosenco. Characterization, Existence and Pareto Optimality in Insurance Markets with Asymmetric Information with Endogenous and Asymmetric Disklosures: Revisiting Rothschild-Stiglitz. NBER Working Paper series, Working Paper 24711/ June 2018., Djabarov G.N. Tamoyillari rivoji bozori sugurtai Jumhurii Tojikiston. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati, Dushanbe, 2019; Zanin A.S. Rossiya Federatsiyasi sug'urta bozori sub'ektlari faoliyatini moliyaviy-huquqiy tartibga solish. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati, Moskva 2021.

Q.I.Nomozova, X.S.Umarov, A.T.Umarov, F.R.Hasanov⁵ va boshqalar tomonidan sug'urtaning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari, xususan sug'urta bozorining mohiyati, xususiyatlari, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati tadqiq etilgan. Ammo, sug'urta bozorining samarali faoliyatini ta'minlash masalalari mamlakatimizda alohida ilmiy-tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. Bu va yuqoridagi holatlar mazkur muammoning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Dissertatsiya ishining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekiston sug'urta bozorining samarali faoliyatini ta'minlashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat

Tadqiqotning vazifalari.

Sug'urta bozorida sug'urta mahsulotlarini taklif va taqdim etish usullarining nazariy asoslarini tahlil qilish, ushbu bozorning mohiyati va amalga oshirish prinsiplariga aniqlik kiritish;

⁵ Qo'ldoshev Q.M. Sug'urta bozorini rivojlantirish va boshqarish muammolari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent 2009; Qo'ldoshev Q.M. Sug'urta nazariyasi. Darslik. – T.: innovatsion rivojlanish nashriyat-matbaa uyi, 2022; Shennaev X.M. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari. Monografiya. – T.: "Iqtisod-moliya" 2021; Yuldashev O.T. O'zbekistonda hayot sug'urtasini rivojlantirishning kontseptual asoslari. Iqtisodiyot fanlari doktorri ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: -2022; Yadgarov A.A. Agrosanoat majmui korxonalar faoliyatini sug'urtalash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktorri ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, - T.: 2023; Mavrulova N.A. Umumiy sug'urta sohasini rivojlantirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktorri ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: 2023; Abduraxmonov I. "Sug'urta nazariyasi va amaliyoti". T.: Iqtisod-moliya, 2018; Kenjaev I.G'. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktorri ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya -T.: 2019; Xalikulova G.T. Sug'urta tizimi va uni amal qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktorri ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: 2019; Quzieva N.R. Sug'urta faoliyatida injiniring jarayonlarini qo'llash. "Sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatini rivojlantirishning dolzarb muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy onlayn konferentsiyasi materiallari to'plami. 2020 yil 7 may; Adilova G.D. Iqtisodiy globallashtirish sharoitida sug'urta xizmatlarini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktorri ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, - T.: 2020; Baratova D.A. O'zbekistonda jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasini rivojlantirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktorri ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, - T.: 2020; Nomozova Q.I. Tadbirkorlikda tavakkalchiliklarni sug'urtalash va uni O'zbekistonda rivojlantirish istiqbollari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktorri ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, - T.: 2022; Umarov X.S. O'zbekiston sug'urta bozori: asosiy muammolar va rivojlanish tendentsiyalari. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, - Moskva- 2013; Umarov A.T. O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktorri ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, - T.: 2021; Hasanov F.R. O'zbekistonda kiber risklarni sug'urtalash masalalari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktorri ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, - T.: 2022.

O'zbekiston sug'urta bozorining hozirgi holatini o'rganish va tahlil qilish orqali unga baho berish, ushbu bozorning rivojlanishiga to'siq bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy omillarni aniqlash;

rivojlangan xorijiy mamlakatlar sug'urta bozorlarining holati, o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalarini o'rgangan holda, ularning ilg'or tajribalarini milliy sug'urta bozorini rivojlantirishga tatbiq etish yo'llarini aniqlash;

milliy sug'urta bozori infratuzilmasining hozirgi holatini o'rganish va muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

milliy sug'urta bozorini rivojlantirish va xizmatlar hajmini kengaytirishda davlatning rolini oshirish va samaradorligini ta'minlash yo'llarini aniqlash;

sug'urta xizmatlariga bo'lgan iste'mol talabini oshirishning innovatsion yo'llarini ishlab chiqish;

milliy sug'urta bozori investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti bo'lib O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta tashkilotlari va sug'urta bozori boshqa professional ishtirokchilarining sug'urta faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, O'zbekiston milliy sug'urta bozorining professional ishtirokchilarining sug'urtalanuvchilar va davlat o'rtasida yuzaga keladigan sug'urtaviy hamda moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning metodlari. Tadqiqotni amalga oshirishda empirik tahlil, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va qiyosiy taqqoslash, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik va iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- sug'urta agentlari tomonidan ular vositachiligida sug'urtalanuvchilar bilan tuzilgan sug'urta shartnomalarini amal qilishi tugagunga qadar o'z nazoratida ushlab turish tizimini amaliyotda qo'llash taklif etilgan;

- sug'urta xizmatlarining sifati va operativligini ta'minlash maqsadida ko'p tarmoqli assistans xizmatlarini tashkil etish yo'llari ishlab chiqilgan;

- sug'urtalovchilar bilan sug'urtalanuvchilar o'rtasida tuzilgan sug'urta shartnomalarining amal qilishi davomida yuzaga kelgan nizolarni hal etishda hakamlik sudlari xizmatidan foydalanish amaliyotini joriy etish taklif etilgan.

- telemeditsinani (masofaviy tibbiy xizmat) mobil aloqalar vositasida sug'urta kompaniyalarining tashkilotchiligida ommaviylashtirish va ushbu xizmatlarni sug'urta polislari bilan kafolatlash tizimining samaradorligi asoslangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston sug'urta bozorining turli yo'nalishlar bo'yicha 6 yillik davrdagi rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinib, xulosalar shakllantirilgan, bozorning yanada tez rivojlanishiga to'siq bo'layotgan holatlar aniqlanib, ularni bartaraf qilishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

- Assistans xizmatining nazariy asoslari va amaliy jihatlari chuqur bayon qilingan va O'zbekiston sug'urta bozorida assistans xizmatlarining holati tahlil qilinib, assistans xizmatlari rivojlangan dunyo mamlakatlarining ilg'or tajribalarini O'zbekiston sug'urta bozoriga tatbiq qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

- mamlakatning farovonlik darajasi (kishi boshiga to'g'ri keladigan YaIM) va umumiy sug'urta tarmog'ida to'plangan sug'urta mukofotlarining mamlakat YaIMdagi hissasi o'rtasida yuqori korrelyatsion bog'liqlik mavjud ekanligi va bu bog'liqlikning sabablari ko'rsatib berilgan;

- O'zbekiston sug'urta bozorida to'planayotgan sug'urta mukofotlariga nisbatan to'lab berilayotgan sug'urta qoplamalari kichik hajmni tashkil etayotganligi, ushbu holat sug'urtalanuvchilarda sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga sabab bo'layotganligi asoslangan va buning sabablari ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada qo'llanilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi xulosalar, taklif va tavsiyalarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlab beruvchi me'yoriy-huquqiy baza sifatida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytlarida e'lon qilingan ma'lumotlar, mamlakat va xorijiy olimlarning ekspert baholari va ishlanmalari, xalqaro tashkilotlarning nashr etilgan

rasmiy ma'lumotlari, sug'urta kompaniyalari rasmiy saytlarining ma'lumotlari hamda hisobotlari, Internet tarmog'ida taqdim etilgan ma'lumotlar, shuningdek izlanuvchining o'zi tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ma'lumotlaridan tashkil topganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, mamlakatda milliy sug'urta bozorini tashkil etishning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirishda foydalanib, bu o'z o'rnida fuqarolarni hamda iqtisodiyot sub'ektlarini sifatli va samarali sug'urta himoyasi bilan to'liqroq qamrab olishga va aholi keng qatlamlarini ijtimoiy himoyalash barobarida, davlat xarajatlarini kamaytirishga;

tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, O'zbekiston milliy sug'urta bozorining samarali faoliyatini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston sug'urta bozorining samarali faoliyatini ta'minlash yo'nalishida olingan ilmiy natijalar asosida:

sug'urta agentlari tomonidan ular vositachiligida sug'urtalanuvchilar bilan tuzilgan sug'urta shartnomalarini ularning amal qilishi tugagunga qadar o'z nazoratida ushlab turish bo'yicha ishlab chiqilgan tizimni amaliyotga joriy etish taklifi "MY Insurance" sug'urta kompaniyasi AJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("MY Insurance" sug'urta kompaniyasi AJ tomonidan 2022 yilning 28 oktyabrda berilgan ma'lumotlonoma). Sug'urta kompaniyasi tomonidan mazkur taklifni amaliyotda qo'llash natijasida 2022 yilning 9 oyi davomida tuzilgan sug'urta shartnomalarining zararlilik darajasi 2021 yilning 9 oyligi davomida tuzilgan sug'urta shartnomalarining zararlilik darajasiga nisbatan 10 foiz kamayishiga erishilgan. Buning natijasida iqtisod qilingan sug'urta qoplamalari hajmi 150 mln. so'mni tashkil etgan;

telemeditsinani (masofaviy tibbiy xizmat) mobil aloqalar vositasida sug'urta kompaniyalarining tashkilotchiligida ommaviylashtirish va ushbu xizmatlarni sug'urta polislari bilan kafolatlash tizimini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif "MY Insurance" sug'urta kompaniyasi AJ tomonidan amaliyotga

joriy etilgan (“MY Insurance” sugʻurta kompaniyasi AJ tomonidan 2022 yilning 28 oktyabrda berilgan maʼlumotlonoma).

sugʻurtalovchilar bilan sugʻurtalanuvchilar oʻrtasida tuzilgan sugʻurta shartnomalarining amal qilishi davomida yuzaga kelgan nizolarni hal etishda hakamlik sudlari xizmatidan foydalanish amaliyotini joriy etish toʻgʻrisidagi taklif “HAMKOR SUGʻURTA” sugʻurta kompaniyasi AJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“HAMKOR SUGʻURTA” sugʻurta kompaniyasi AJning 2024 yil 15 martdagi maʼlumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida kompaniyada yuzaga kelgan nizolarni hal etish operativligi oshgan va sud xarajatlari 50 foiz kamayishiga erishilgan;

sugʻurta xizmatlarini koʻrsatishda sugʻurtalanuvchilarga qulayliklar yaratish bilan bogʻliq professional xizmatlarni kengaytirish, ushbu xizmatlarning sifati va samaradorligini taʼminlash maqsadida koʻp tarmoqli multiassistans xizmatlarini tashkil etish taklifi “HAMKOR SUGʻURTA” sugʻurta kompaniyasi AJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“HAMKOR SUGʻURTA” sugʻurta kompaniyasi AJning 2024 yil 15 martdagi maʼlumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2022 yilga nisbatan 2023 yilda tuzilgan sugʻurta shartnomalari soni koʻpaygan va toʻplangan sugʻurta mukofotlari qiymati 2023 yilda 112 foiz oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari - 4 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, - 2 ta xalqaro, - 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami - 5 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda – 5 ta maqola, jumladan – 4 ta respublikada va 1 ta xorijiy jurnallarda maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ilmiy ishning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 156 betni tashkil etgan.

I-BOB. SUG‘URTA BOZORINING VUJUDGA KELISH SHART-SHAROITLARI VA NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Sug‘urta bozorini barpo etishning ob’ektiv zarurligi va nazariy asoslari

Kishilik jamiyatida insonlar o‘z hayoti va faoliyatida, iqtisodiyotda turli mulk shaklidagi xo‘jalik sub’ektlari o‘z faoliyatlari davomida ko‘plab ko‘rinishdagi tavakkalchiliklarga yo‘l qo‘yadilar. Bunday tavakkalchiliklar oqibatida yuz bergan tabiiy va stixiyali hodisalar natijasida katta va kichik hajmdagi moddiy yo‘qotishlar yuzaga keladi. Shu maqsadda kishilik jamiyatida va iqtisodiyotda uch ko‘rinishdagi sug‘urta fondlari tashkil etiladi. Bular: o‘z-o‘zini sug‘urtalash fondlari, markazlashgan sug‘urta fondlari va sug‘urta tashkilotlari tomonidan tashkil etiladigan sug‘urta fondlari⁶.

O‘z-o‘zini sug‘urtalash va markazlashgan sug‘urta fondlarining chegaralangan imkoniyatlari va maqsadli yo‘naltirilganligi sug‘urta yo‘li bilan tashkil etiladigan, keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan sug‘urta fondlariga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Bunday sug‘urta fondlari bevosita sug‘urtalanuvchilarning o‘zlari tomonidan o‘zaro birlashgan holda notijorat shaklida yoki alohida yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan tijoratga asoslangan sug‘urta tashkilotlari tashkil etish orqali shakllantirilishi mumkin.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin hukumatimiz alohida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan, to‘liq davlat mulkiga asoslangan va davlat mulki ishtirokidagi tijorat sug‘urta tashkilotlarini tashkil etish borasida tashabbuskorlikni o‘z qo‘liga oldi va shu bilan birga xususiy sug‘urta tashkilotlarining shakllanishiga keng yo‘l ochib berdi. Buning huquqiy asosi bo‘lib, mamlakat tarixida birinchi marta 1993 yilda qabul qilingan “Sug‘urta to‘g‘risida”gi qonun hisoblanadi. Ushbu qonunning qabul qilinishi mamlakatda alohida yuridik shaxs maqomidagi sug‘urta tashkilotlarining hamda sug‘urta vositachilari hisoblangan sug‘urta va qayta sug‘urta brokerlik tashkilotlari, sug‘urta agentliklarining tashkil etilishiga huquqiy asoslar yaratib berdi. 2002 yilga kelib mamlakatda sug‘urta bozori birmuncha

⁶ Bland D. Insurance: Principles and Practice, The Chartered Insurance Institute 1993, rus tiliga tarjima, 1998

rivojlanish darajasiga erishdi va amaldagi “Sug‘urta to‘g‘risida” gi qonunni qayta ko‘rib chiqish zarurati paydo bo‘ldi. Shundan kelib chiqib o‘sha yilning 5 aprelida yangi tahrirdagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida” deb nomlangan qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning qabul qilinishi sug‘urta munosabatlari ishtirokchilari tarkibining yanada kengayishiga va sug‘urta xizmatlarining yanada mukammal va qulay tarzda sug‘urtalanuvchilarga taqdim etish imkonini yaratib berdi. Shu bilan birga ushbu sohani davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishni nisbatan yuqori darajada amalga oshirish imkoniyati yuzaga keldi.

Birinchi qabul qilingan “Sug‘urta to‘g‘risida”gi qonunda sug‘urtaga shunday ta’rif berilgan edi: “Sug‘urta – inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo‘ladigan tabiiy ofatlar, favqulodda hodisa va boshqa voqealar natijasida yetkazilgan zarar hamda talafotlarni jismoniy va yuridik shaxslar to‘lagan sug‘urta badallari (sug‘urta puli) dan hosil qilinadigan pul fondlari hisobidan to‘liq yoki qisman qoplash yo‘li bilan jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini sug‘urtalanishini ta’minlashga doir munosabatlar demakdir”⁷.

2002 yil 5 aprelda qabul qilingan “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonunda esa sug‘urtaga quyidagicha ta’rif berilgan: “Sug‘urta deganda, yuridik yoki jismoniy shaxslar to‘laydigan sug‘urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug‘urta hodisasi) yuz berganda, ushbu shaxslarga sug‘urta shartnomasiga muvofiq, sug‘urta tovonini (sug‘urta pulini) to‘lash yo‘li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi”⁸.

Albatta ikkala ta’rif ham ma’no va mazmun jihatidan to‘g‘ri, faqat birinchi qonundagi ta’rif sug‘urta munosabatlari tushunchasining mohiyatini ochib berishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ikkinchi, yangi tahrirda qabul qilingan qonundagi ta’rif to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta tushunchasining mohiyatini ochib berishga yo‘naltirilganligi bilan bir-biridan farqlanadi.

⁷ O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta to‘g‘risida”gi Qonuni. 1993 yil 6 mayda qabul qilingan. (Mazkur Qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2002 yil 5 apreldagi 359-II-sonli “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqidagi Qaroriga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan). <https://www.lex.uz/docs/106047>

⁸O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2002 yil 5 aprelda qabul qilingan. <https://www.lex.uz/docs/40253>.

Ammo, 2002 yilda qabul qilingan qonunda sug'urtaga berilgan ta'rifning bir jihatiga e'tibor qarataylik, ushbu ta'rifni umuman sug'urtaga berilgan ta'rif deb qabul qiladigan bo'lsak, unda aytilishicha, yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlaridan sug'urta tovonini to'lash nazarda tutilyapti. Vaholanki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'z-o'zini sug'urtalash va markazlashgan sug'urta fondlari ham borki, ular sug'urtalanuvchilar tomonidan shakllantirilmaydi, balki alohida korxonalar mablag'lari va davlat mablag'lari hisobidan shakllantiriladi. Demak, ushbu ta'rif alohida yuridik shaxs maqomidagi sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta faoliyatiga mos keladigan ta'rifdir.

2021 yilga kelib mamlakatimiz sug'urta bozori yanada rivojlandi va xizmatlar hajmi kengaydi. Davr talabidan kelib chiqqan holda qonunchilikni yanada takomillashtirish va kengaytirish zarurligi ko'zga tashlandi. Natijada 2021 yil 23 noyabrda amaldagi 29-moddadan iborat qonun kengaytirilgan tarzda qayta ishlab chiqilib Oliy majlis tomonidan qabul qilindi.

2021 yil 23 noyabrda yangitdan qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunda sug'urta tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "sug'urta – muayyan voqea (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararining o'rnini qoplash, tovonlar va boshqa to'lovlar to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar"⁹.

Ushbu ta'rifda ba'zi noaniqliklarga yo'l qo'yilganligi ko'zga tashlanadi, xususan, muayyan voqea tushunchasiga qavs ichida "hodisa" deya aniqlik kiritilmoqda. Vaholanki muayyan voqea deganda sug'urta shartnomasida ko'zda tutilgan voqea – sug'urta hodisasi nazarda tutilmoqda, ammo hodisa umumiy tushuncha, u sug'urta hodisasini anglatmaydi. Shuning uchun qavs ichida "hodisa" emas, balki oldingi qonundagi kabi "sug'urta hodisasi" degan jumla aks etishi har jihatdan to'g'ri bo'lar edi. Ushbu ta'rif tovonlar va boshqa to'lovlar to'lash uchun

⁹ O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2021 yil 23 noyabrda qabul qilingan.

maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar degan jumlar bilan tugallangan. Bunda "boshqa to'lovlar" degan jumlani qo'llash bilan sug'urta fondidan foydalanish yo'nalishlarini ko'paytirib ko'rsatilyapti, vaholanki sug'urta fondidan faqat bir maqsad yo'lida foydalaniladi, bu ham bo'lsa sug'urta hodisalaridan ko'rilgan zararlarni qoplash. Bundan tashqari ushbu ta'rifda "jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar" degan jumlani qo'llash bilan ushbu ta'rifning "sug'urta" tushunchasiga emas, balki "sug'urta faoliyati" tushunchasiga ta'rif ekanligi ko'zga tashlanyapti.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi yangi qabul qilingan qonunda sug'urtaga berilgan ta'rifni har jihatdan mukammal ta'rif deb bo'lmaydi.

Olimlar tomonidan berilgan ba'zi ta'riflarga ham e'tibor qaratganimizda yuqoridagi kabi kamchiliklarni ko'rish mumkin, masalan, Ye.Kolominning ta'biriga ko'ra, sug'urtaga shunday ta'rif berilgan: "sug'urta – bu maqsadli pul fondlarining shakllanishi va ulardan foydalanish bilan bog'liq munosabatdir"¹⁰. Birinchidan, ushbu ta'rif ham yuqoridagi kabi, "sug'urta" tushunchasiga emas, balki sug'urta munosabatlariga berilgan ta'rifga ko'proq mos keladi. Ikkinchidan, sug'urtaga berilgan bu ta'rif juda qisqa bo'lib, sug'urta sohasida ma'lum darajada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan kishi uni boshqacha talqin qilishi mumkin. Masalan, ushbu ta'rifdagi "...ulardan foydalanish bilan bog'liq munosabatdir" degan jumlani turlicha talqin qilish mumkin, ya'ni foydalanish deganda turlicha maqsadlarda foydalanish nazarda tutilishi mumkin, vaholanki sug'urta fondidan faqat bir maqsadda foydalanish mumkin, bu ham bo'lsa - sug'urta hodisasi yuz berganda ko'rilgan zararni qoplash maqsadida.

Endi yana bir jihatga e'tibor qarataylik, ma'lumki, manfaat va ushbu manfaatdan kelib chiqadigan zarurat bo'lmasa, hech narsaga ehtiyoj yuzaga

¹⁰ Kolomin E.V. Sug'urta tadqiqotlarini rivojlantirish muammolari. "Yaxshi nazariyadan ko'ra amaliy narsa yo'q" // M.: "Moliya", 6-son 2003 yil, 40-bet.

kelmaydi. Xuddi shunday, sug'urtaga bo'lgan ehtiyoj ham manfaatdan kelib chiqadi. Sug'urtalanuvchida o'z mulki, hayoti, sog'lig'i yoki boshqa shaxslar oldida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan javobgarligi bilan bog'liq kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni qoplashdan manfaatdorlik mavjud. Xuddi shu manfaatdorlikning mavjudligi, sug'urtaga bo'lgan qiziqishni, ehtiyojni keltirib chiqaradi. O'z o'rnida, sug'urta tashkiloti ham sug'urta faoliyatini amalga oshirishdan manfaatdorlik (foйда olish) bo'lganligi uchun ushbu faoliyatni amalga oshiradi. Demak, o'zaro sug'urta munosabatlariga kirishgandan keyin sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi degan nomga ega bo'ladigan ikkala tomon ham ma'lum manfaatdorlikni ko'zlagan holda sug'urta munosabatlariga kirishadi.

Biz yuqorida manfaat, sug'urtaviy manfaat to'g'risida mushohada yuritdik. Ammo sug'urtaning paydo bo'lishiga, unga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishiga birinchi o'rinda nima sabab bo'ladi degan savolga javob berishimiz kerak. Sug'urtaga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishiga birinchi o'rinda, har qanday faoliyatda va ijtimoiy hayotda qandaydir daraja va ko'rinishdagi riskning mavjudligi sabab bo'lganligini ta'kidlash kerak. Hayotda yashar ekanmiz, kundalik hayotimizning o'zi ham turli-tuman risklardan xoli emasligini yoshimiz ulg'aygan sari his etib boramiz. Biror-bir iqtisodiy natijaga erishish maqsadida boshlaydigan harakatimiz esa yanada ko'proq hajmdagi risklar bilan bog'liq¹¹.

Rossiyalik olim R.T.Yuldashevning fikriga ko'ra, sug'urta faoliyati pul fondini (sug'urta fondini) tashkil etish bo'yicha tadbirlar tizimini amalga oshirishni, hamda sug'urta shartnomasida ko'zda tutilgan hodisa yuz berishi natijasida sug'urtalanuvchiga (sug'urta fondiga badal to'lagan shaxs) yetkazilgan zararni qoplab berishni ko'zda tutadi. Sug'urta faoliyati sub'ektlari sifatida sug'urta kompaniyalari, o'zaro sug'urtalash jamiyatlari, hamda o'z-o'zini sug'urtalash fondlarini tashkil etuvchi korxonalar ishtirok etishi mumkin.¹² Bizning fikrimizcha,

¹¹ Qo'ldoshev Q.M. O'zbekistonda o'zaro sug'urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. Monografiya. T.: Iqtisod-moliya, 2020. 25 b.

¹² R.T.Yo'ldoshev Sug'urta nazariyasi insholari: rivojlanishning retrospektiv tahlili. M.: Ankil 2009, 90-bet

R.Yuldashev tomonidan sug'urta faoliyatiga berilgan ta'rifni har jihatdan to'g'ri ta'rif deya e'tirof etish mumkin.

Bugungi kunga kelib sug'urta dunyo mamlakatlarida, ayniqsa rivojlangan mamlakatlar sifatida e'tirof etiladigan Yevropa mamlakatlari, AQSh, Yaponiya kabi mamlakatlarda iqtisodiyotning hamda ijtimoiy hayotning muhim va ajralmas bo'lagiga aylanganligi hech kimga sir emas. Savol tug'iladi, aslida sug'urta qachon paydo bo'ldi va qanday yo'llarni bosib o'tdi. Bu borada ham dunyo olimlari o'rtasida turlicha fikrlar borligi ko'zga tashlanib qoladi. Masalan, Felipe Berdou tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda sug'urtaning paydo bo'lishi to'g'risida shunday deyiladi: sug'urta faoliyati XVI asrning oxirlarida Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan¹³. Albatta bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi, Felipe Berdou bunda tijorat sug'urtasini nazarda tutayotgan bo'lsa, uning fikri biroz haqiqatga yaqin, ammo umuman sug'urta paydo bo'lishini bu darajada yaqin o'tmish bilan bog'lash noto'g'ri bo'lar edi.

Sug'urtaning ilk ko'rinishi eramizdan oldingi ikki minginchi yillikda yashagan Bobil podshohi Hammurapi qonunlarida mavjud bo'lgan. Unga ko'ra savdo karvonidagilarning birortasining yukiga tabiiy hodisalar yoki qaroqchilar hujumi, o'g'irliklar natijasida zarar yetganda ko'rilgan zararni o'rtada to'lab berishni nazarda tutuvchi kelishuv imzolanishi belgilab qo'yilgan¹⁴. Keyinchalik, eramizning ilk davrlarida avval Gresiyada, keyin qadimgi Rimda, Hindistonda va Misrda turli maqsadlarda tashkil etilgan shu kabi sug'urta jamiyatlari amal qilgan.

XVII asrga qadar o'zaro sug'urta sug'urtaning yagona shakli sifatida amal qilgan. 1666 yilda Angliyada yuz bergan yirik yong'in sug'urtaga bo'lgan ehtiyojni oshirib yubordi va sug'urta fondi oldindan shakllantirilmaydigan o'zaro sug'urta sug'urtalanuvchilarning ehtiyojlarini to'liq qondira olmay qoldi. Bu esa tijoratga asoslangan sug'urtaning paydo bo'lishiga olib keldi. Ammo keyinchalik o'zaro sug'urta ham o'zidagi ushbu kamchilikni bartaraf etdi, ya'ni o'zaro sug'urtada ham

¹³ Felipe Berdou. Target Insurance, G06Q40/02; G06Q40/08; (IPC1-7); G06F17/60. 2004. <https://www.freepatetsonline.com/20040010426.pdf>

¹⁴ V.B.Gomelya, Yu.B., Soldatkin sug'urta portfeli. M.: SOMINTEK 1994, 7-bet

sug'urta fondi oldindan shakllantiriladigan bo'ldi.

O'zbekistonda tijoratga asoslangan sug'urta faoliyati asosan mustaqillik yillarida shakllandi va rivojlandi. Ushbu sohaning nazariy va amaliy jihatlarini olimlar tomonidan tadqiq qilish ayniqsa so'nggi yillarda kengayib bormoqda. Ushbu tadqiqotlarda sug'urtaning nazariy jihatlarini rivojlangan mamlakatlarda yaratilgan nazariyalar va qarashlarni o'rganish va ularni MDH hamda mahalliy olimlarning bu boradagi yondashuvlarini o'zaro taqqoslash orqali fikrlar shakllantirilgan.

Sug'urta sohasi bo'yicha ko'p yillardan beri tadqiqotlar olib borayotgan Q.Qo'ldoshevning fikriga ko'ra, sug'urta faoliyati tadbirkorlik tavakkalchiliklari oqibatlarini, xalqaro munosabatlardagi savdo, turizm va boshqa jarayonlarda yuzaga keladigan xatarlarni bartaraf etishi, ijtimoiy hayotdagi barqarorlikni ta'minlashi hamda iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilish uchun sezilarli manbalarni shakllantirishi, investitsiya risklarini yumshatishi bilan ajralib turadi¹⁵. Sug'urta to'g'risida berilgan ushbu fikr sug'urtaning ko'pgina qirralarini ko'rsatib berganligini e'tirof etish mumkin. Chunki sug'urta ko'p qirrali tushuncha va ko'p qirrali faoliyat turi hisoblanadi. Ushbu xulosani sug'urtaning iqtisodiyotning barcha sohalari uchun, aholining barcha qatlamlari uchun xizmat ko'rsatishi bilan izohlash mumkin. Ushbu fikrni I.Abduraxmonovning sug'urta to'g'risida bergan tushunchasi ham tasdiqlaydi. U shunday deydi: sug'urta mohiyatan murakkab va ko'p qirrali tushunchadir va bu atama iqtisodiy ishlab chiqarish va iste'mol, tabiiy ofatlar va ko'ngilsiz hodisalar, shuningdek, inson hayotida sodir bo'ladigan turli favqulodda hodisalar bilan chambarchas bog'langan, deb hisoblaydi¹⁶.

Sug'urtaning ko'p qirraliligini bir ta'rif bilan to'liq ifodalab berish qiyin, chunki yuqoridagi ta'rifda sug'urtaning yana ba'zi muhim qirralari ko'rsatilmaganligini e'tirof etish mumkin, masalan, sug'urta inson hayotidagi nafaqat ko'ngilsiz hodisalar, balki, xush hodisalar bilan ham bog'liq ekanligini e'tirof etish kerak. Bunday hodisalar sifatida farzand tug'ilishi, nikohga kirishish,

¹⁵ Qo'ldoshev Q.M. O'zbekistonda o'zaro sug'urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2019. 5 b.

¹⁶ Abduraxmonov I. Sug'urta nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma., T.: "Iqtisod-moliya", 2018. 23 b.

balogʻat yoshiga yetish, oliy oʻquv yurtiga kirish kabi xush hodisalar ham sugʻurtaviy hodisa sifatida qabul qilinadi.

Sugʻurtaning yana bir muhim jihatini eʼtirof etish kerak, sugʻurtaning ushbu xususiyati keyingi vaqtlarda koʻpgina mamlakatlar sugʻurta tashkilotlari tomonidan, shu jumladan Oʻzbekiston sugʻurtachilari eʼtiboridan chetda qolmoqda, bu - sugʻurtaning ogohlantirish va oldini olish funksiyasidir. XVII-XVIII asrlarda dunyoning koʻpgina mamlakatlarida (ayniqsa Yevropa mamlakatlarida) sugʻurtaning ushbu funksiyasi yuqori darajaga koʻtarilgan boʻlib, bu ayniqsa yongʻin sugʻurtasi bilan bogʻliq boʻlgan. Sugʻurtalanadigan bino va inshootlarni sugʻurta tashkilotlari tomonidan ular qurilayotgan paytda yongʻinga chidamliligi boʻyicha nazorat qilish amalga oshirilgan. Bu esa sugʻurtalangan obʼektlar boʻyicha kelajakda yongʻin hodisalarining sezilarli kamayishiga olib kelgan. Bu borada H.Sobirov ham oʻz fikrlarini bildirib oʻtgan boʻlib, u shunday yozadi: sugʻurtaning ogohlantirish tadbirlariga sarflash uchun ajratiladigan mablagʻlari favqulodda zararlarni va uning oqibatlarini kamaytirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ajratilgan mablagʻlardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga egadir.¹⁷

Mustaqil Oʻzbekistonning muhim yutuqlaridan biri, sugʻurta xizmatlarini amalga oshirishda bozor muhitining shakllantirilishi va davlat sugʻurta monopoliyasining yoʻqotilishi boʻldi. Mustaqillikning oʻtgan yillari davomida milliy sugʻurta bozorida sezilarli darajadagi tarkibiy, huquqiy, texnologik va boshqa oʻzgarishlar yuz berdi. Albatta, ushbu oʻzgarishlarning boshida davlat turganligini qayd etish kerak. Davlatning saʼy-harakatlari bilan sugʻurta faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi va takomillashtirildi, davlat mulki asosida va davlat mulki ishtirokida yirik sugʻurta kompaniyalari tashkil etildi va shu bilan birga, xususiy sugʻurta kompaniyalarining shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratib berildi. Bozor tamoyillaridan kelib chiqqan holda, barcha sugʻurta tashkilotlari uchun bir xil imkoniyatlar yaratilib, bozorda raqobat muhiti shakllantirildi.

¹⁷ Sobirov H.R. Sugʻurta: 100 savol va javob. – T.: “Mehnat” nashriyoti, 1999, 17 b.

Sug'urta xizmatlarining boshqa iste'molchilari qatori, davlat ham sug'urtalanuvchi sifatida sug'urta xizmatlaridan foydalanadi, shu bilan birga, o'z fuqarolarining ijtimoiy himoyasini ta'minlashda sug'urta kompaniyalarining xizmatlaridan samarali foydalanadi. Davlatning sug'urta faoliyatini qo'llab-quvvatlashi masalasida Ye.Kolomin shunday fikr bildiradi: agar davlat o'z fuqarolarining ijtimoiy himoyasini to'liq ta'minlamasa, bunday holatda u sug'urta faoliyati rivojlanishini qo'llab-quvvatlashi shart¹⁸. Ammo Kolominning ushbu fikriga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Chunki davlat, sug'urta kompaniyalari amalga oshirayotgan bunday turli-tuman ko'rinishdagi xizmatlarni sug'urta kompaniyalarining ishtirokisiz amalga oshirishi uchun, doimiy faoliyat ko'rsatuvchi alohida yirik tizim tashkil etishi va sug'urta kompaniyalari katta miqdordagi moddiy javobgarliklarni o'z zimmasiga olgani kabi, xuddi shunday hajmdagi moddiy javobgarliklarni davlat o'z zimmasiga olishi va buning uchun katta miqdordagi pul mablag'larini shu maqsadlarga yo'naltirishi zarur bo'lar edi. Bu esa oxir-oqibatda davlatning iqtisodiy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin edi.

Bu borada X.Shennaev shunday yozadi: fikrimizcha, sug'urta faoliyatini bozor munosabatlarga muvofiq tarzda rivojlantirishning dastlabki bosqichida ushbu faoliyatni taraqqiy ettirish uchun davlatning ishtiroki zarur bo'lishi mumkin. Biroq, iqtisodiy rivojlanish ma'lum bir bosqichga ko'tarilgandan so'ng, sug'urta faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, balki maqsadga muvofiq emasdir, degan frazani keltiradi¹⁹. Ushbu fikrni u buning sababi sifatida, bozor tamoyillari amal qilgan sharoitda sug'urta biznesning muhim shakli sifatida va raqobat muhiti sharoitida o'z faoliyatini amalga oshirishini keltiradi. Shennaev bunday xulosaga kelishda sug'urtaning bir muhim xususiyatini xisobga olmaganligini ta'kidlash kerak, ya'ni birinchidan, davlat sug'urtalanuvchi sifatida sug'urta xizmatlaridan foydalanadi,

¹⁸ Kolomin E. Ilmiy kuchlarni birlashtirish yo'lidagi yangi qadam.//M.: "Moliya", No 2 2003. 47-bet.

¹⁹ Shennayev X. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2021 y.

ikkinchidan, o'z fuqarolarining ijtimoiy himoyasini ta'minlashda ham sug'urta xizmatlaridan foydalanadi (ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan risklarni majburiy sug'urtani amalga kiritish bilan sug'urtalash orqali). Shu sababli ham davlat sug'urtaning rivojlanishidan manfaatdor va shundan kelib chiqqan holda uni turli vositalar orqali qo'llab-quvvatlaydi.

Sug'urta faoliyati orqali sug'urtaviy risklar yuz berishi natijasida hosil bo'lgan turli hajmdagi zararlar oldindan shartnoma tuzgan yuridik yoki jismoniy shaxslar uchun qoplab beriladi. Ushbu faoliyat natijasida yaratilgan turli ko'rinishdagi sug'urta xizmatlari sug'urta bozorida talab va taklif asosida oldi-sotdi qilinadi. Sug'urta bozori ma'lum hududda (mamlakat, mintaqa, dunyo miqyosida) sug'urta faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi, turli ko'rinishdagi sug'urta tashkilotlarining paydo bo'lishi natijasida paydo bo'ladi. Sug'urta bozorining paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganish uchun, uning dunyoda ilk paydo bo'lishini o'rganish va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish zarur.

Sug'urta bozori pulli munosabatlarning alohida jarayoni bo'lib, unda oldi-sotdi ob'ekti sifatida sug'urta xizmatlari ishtirok etadi va ushbu xizmatlarga nisbatan talab va taklif hosil bo'ladi. Sug'urta bozori ko'p faktorli dinamik tizim bo'lib, bu tizim doimiy o'zaro munosabatda bo'luvchi va birining faoliyati boshqasining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy elementlar, ishtirokchilarning alohida guruhleri va sub'ektlardan tashkil topgan. Sug'urta bozori amal qilishining asosini takror ishlab chiqarish jarayoni va uning uzluksizligini hamda bir maromda faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, buning uchun iqtisodiy sub'ektlar va fuqarolarning tabiiy, iqtisodiy va boshqa hodisalar tufayli ko'rgan zararlarini qoplab berishdan iborat munosabatlar tashkil qiladi.

Sug'urta bozori turli mulk shaklidagi sug'urta tashkilotlarining o'z sug'urta xizmatlari va boshqa xizmatlarini bozorda taklif etishi natijasida hosil bo'ladi. Sug'urta bozori amal qilishining zarur sharti sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning va bu talabning qondiradigan sug'urtalovchilarning

mavjudligidir.

Sug'urta bozori – moliyaviy bozor segmenti bo'lib, ushbu bozorda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab hamda ularning taklifi va ularga mos moliyaviy pul oqimlari shakllanadi, ulardan u yoki bu darajada aholi, nomoliyaviy kompaniyalar, banklar va davlat tashkilotlari foydalanadi²⁰.

Ma'lumki, har qanday bozorda sotuvchi va xaridor bo'lib, ular o'rtasida ma'lum tovarlar (xizmatlar) ayirboshlanadi. Xuddi shunday, sug'urta bozorida ham sotuvchi (sug'urtalovchi) va xaridor (potensial sug'urtalanuvchi) ishtirok etadi. Bu yerda "potensial sug'urtalanuvchi" tushunchasi nimani anglatishini tushunib olish zarur. Potensial sug'urtalanuvchini sug'urtalanuvchi deb atash noto'g'ri bo'lar edi, chunki potensial sug'urtalanuvchi hali sug'urtalovchi bilan sug'urta shartnomasini tuzmagan, ammo sug'urta xizmatidan foydalanishga ehtiyoji bor, sug'urtalanuvchi deb esa sug'urtalovchi bilan sug'urta shartnomasini tuzgan yuridik yoki jismoniy shaxsni aytiladi.

Endi yana ikkita tushunchaga aniqlik kiritib olish kerak, bular "sug'urta mahsuloti" va "sug'urta xizmati". Sug'urtalovchi biror yangi sug'urta xizmatini yo'lga qo'yish uchun ushbu xizmatni o'zida aks ettirgan sug'urta mahsulotini ishlab chiqishi zarur, ya'ni ushbu hujjatda, ko'rsatiladigan sug'urta xizmatining barcha shartlari va xususiyatlari, qo'llaniladigan sug'urta tariflari, sug'urta qoplamasini amalga oshirish yoki rad etishga asos bo'ladigan holatlar, qo'llaniladigan franshizalar, bonuslar va boshqa shart-sharoitlar o'z aksini topishi zarur. Endi ushbu tayyor mahsulot bozorda potensial sug'urtalanuvchiga taklif etilib, sug'urta shartnomasi tuzilgandan boshlab u sug'urta xizmati sifatida sug'urtalanuvchiga shartnoma muddati tugagunga qadar ko'rsatib boriladi.


Sug'urtalovchi bozorda o'zlari ishlab chiqargan o'ziga xos mahsulot – sug'urta xizmatini taklif etadi. Bozorda turli ko'rinishdagi va turli xususiyatga va sifatga ega bo'lgan minglab sug'urta xizmatlari yuzlab sug'urtalovchilar

²⁰ V.S.Molchanov. Sug'urtaning mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimidagi o'ri.//Economics and management. Juvenis Scientia 2016, №4

tomonidan taklif etilishi mumkin va bu holat sug'urta bozorida potensial mijozlarni jalb etish uchun sug'urta kompaniyalari o'rtasida o'zaro raqobatning kuchayishiga olib keladi. Bu esa o'z o'rnida taklif etilayotgan sug'urta mahsulotlarining sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Taklif etilayotgan sug'urta mahsulotlarining sifatiga sug'urta bozorida ko'rsatiladigan turli ko'rinishdagi professional xizmatlardan foydalanish o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni ishlab chiqilgan sug'urta mahsulotida qanchalik darajada mana shunday qo'shimcha professional xizmatlar ko'zda tutilgan bo'lsa, ushbu mahsulotning sifati shunchalik ortadi.

Masalaning ikkinchi tomoni ham borki, ma'lum sug'urta bozorida turli ko'rinishdagi professional xizmatlarni taklif etayotgan professional ishtirokchilar (sug'urta vositachilari, adjaster, syurveer, assistans, aktuariy, dispasher va hokazo) faoliyati yo'lga qo'yilganmi? Rivojlangan sug'urta bozorlarida bunday xizmatlar yuqori darajada yo'lga qo'yilgan va ular uzoq yillik tajribaga ega. Rivojlanayotgan bozorlarda esa bunday xizmatlarning ba'zilar mavjud emas va mavjudlari ham keng ommalashmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz sug'urta bozorining umumiy tuzilmasini quyidagicha tasvirladik (1.1-rasmga qarang).



1.1-rasm. Milliy sug'urta bozorining umumiy tuzilishi²¹

²¹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Masalaning yana bir jihati borki, endi rivojlanayotgan bozorda bu kabi xizmatlarning yuqori darajada rivojlanishi uchun ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga (moliyaviy jihatdan) ega bo'lgan sug'urta tashkilotlari va potensial sug'urtalanuvchilar yetarli darajada mavjud bo'lishi zarur. Chunki bunday qo'shimcha xizmatlar sug'urta xizmatining narxining oshishiga olib keladi. Bunday qo'shimcha xarajatlarning bir qismi sug'urtalovchining va bir qismi sug'urtalanuvchining zimmasiga tushadi.

Odatda biror mamlakatda sug'urta bozorining qay darajada rivojlanganligini ushbu mamlakat sug'urta bozorida to'planayotgan sug'urta mukofotlarining hajmi, uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi hissasi hamda kishi boshiga to'g'ri kelayotgan sug'urta mukofotining qiymati bilan aniqlanadi. Bizning fikrimizcha, mamlakatda sug'urta bozorining rivojlanganlik darajasini ushbu bozorda boshqa professional ishtirokchilar soni va ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi bilan ham aniqlash me'zonning yanada mukammalligini ta'minlaydi.

Boshqa tovar va xizmatlar kabi, sug'urta xizmatlarining ham bahosi talab va taklif asosida shakllanadi, bu baho o'zining quyi va yuqori chegaralariga ega. Sug'urta tushumlarining miqdori sug'urta to'lovlari va sug'urta tashkiloti xarajatlari miqdoriga teng bo'lishi sug'urta bahosining pastki chegarasini anglatadi. Bunday sharoitda sug'urta kompaniyasi asosiy faoliyatdan foyda ololmaydi. Sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta tariflarini bunday past stavkada qo'llanilishiga bozordagi raqobatning yuqoriligi sabab bo'lishi mumkin. Bunday holatda sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy manbai investitsion faoliyatdan olinadigan daromad bo'lishi mumkin. Shuning uchun sug'urta kompaniyasi investitsion faoliyatni samarali yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Investitsion faoliyatning samaradorligini ta'minlash, mamlakatda investitsiya instrumentlarining turli-tumanligi va daromadlilikiga ham bog'liq.

Sug'urta xizmati bahosining yuqori chegarasi talab hajmi va bank foizining darajasi bilan bog'liq. Sug'urta xizmatlarining ma'lum turiga yetarli

darajada talab mavjud bo'lganda, sug'urta tashkiloti mazkur xizmat bahosini yuqori darajada saqlab turishi mumkin. Lekin vaqt o'tishi bilan bozor kon'yunkturasining o'zgarishi natijasida ushbu xizmatga nisbatan talab hajmi pasayadi va bu ushbu xizmat turining tarif stavkasini tushirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Sug'urta bozorining holatiga ta'sir etuvchi omillarni tashqi va ichki omillarga ajratib o'rganish mumkin. Tashqi omillarga davlatning iqtisodiy siyosati, moliyaviy inflyatsiya darajasi, valyuta kursining o'zgarishi, tashqi bozorlarning ta'siri va shu kabilarni kiritish mumkin. Ichki omillar sifatida kompaniyalarning yetarli darajadagi ustav kapitaliga egaligi, malakali kadrlar bilan ta'minlanganligi, mukammal tashkiliy tuzilmani tashkil qilinganligi hamda marketing va reklama faoliyatining qay darajada yo'lga qo'yilganligi kabi omillarni keltirish mumkin.

Sug'urta bozori alohida tizim sifatida ichki va tashqi kuchlarning o'zaro birlashishi, spiral shaklida sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab dinamikasining o'sishida o'z aksini topadi. Bu tizim chegaralangan emas, chunki tashqi va jahon sug'urta bozori hamda ichki sug'urta bozori bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, spiralning har bir tuguni ma'lum darajada bozorga, sug'urta xizmatlariga bo'lgan potensial talabga ta'sir ko'rsatadi²². Sug'urta bozorida kompaniyalarning mijozlarni ko'paytirib borishi ularga katta miqdorda foyda keltirishi bilan birga, milliy sug'urta bozorining rivojlanishini ta'minlaydi va natijada sug'urta kompaniyalari xalqaro darajada xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish imkoniyatiga ega bo'ladi.

1.2. Sug'urta bozorining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni

Bozor iqtisodiyoti sharoitida insonlarga huquqiy jihatdan turli darajada erkinliklar beriladi va iqtisodiy yuksalish uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Bu o'z navbatida insonlarni uquvli, tadbirkor, tejamkor va o'z sohasining professional mutaxassisiga aylanishiga da'vat etadi. O'zining uquvi va tashkilotchiligi natijasida

²² Qo'ldashev Q.M. Sug'urta bozori. O'quv qo'llanma. Toshkent – Iqtisoiyot, 2011, 12 bet.

tadbirkorlar kapitalga, mulkka, boylikka ega bo'la boshlaydilar. Xuddi shunday mulkdorlarni turli voqea va hodisalar tufayli ko'radigan zararlaridan kafolatlash uchun sug'urta bozorini mamlakatda rivojlantirish hayotiy zaruratga aylanib boradi.

Respublikamiz sug'urta bozoridagi mavjud vaziyatga nazar tashlaydigan bo'lsak, faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalarining ko'pchilik qismi moliyaviy jihatdan salmoqli mablag'larga ega bo'lib bormoqda. Bunga turtki bo'layotgan asosiy vositalardan biri, ular uchun davlat tomonidan o'rnatilayotgan minimal ustav kapitallari miqdorining yillar davomida bosqichma-bosqich oshirib borilayotganligidir. Bunday talab barcha mulk shaklidagi sug'urta kompaniyalari uchun birday taalluqli bo'lganligi uchun, davlat ulushi mavjud bo'lgan hamda yirik sug'urta kompaniyalari bilan bir qatorda boshqa sug'urta kompaniyalarining ham aktivlari oshib bormoqda. Aktivlar hajmining oshishi sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan birga, ularning investitsion faoliyatdagi imkoniyatlarini ham oshiradi. 2009 yilda sug'urta kompaniyalarining jami ustav kapitallari hajmi 183 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda ushbu ko'rsatkich 1 838 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu sug'urta kompaniyalari jami ustav kapitallari miqdorining 13 yil ichida 10 baravar oshganligi demakdir.

Sunita Mall tomonidan olib borilgan sug'urta sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda moliya sohasida sug'urtaning hissasi ortib borayotganligini qayd etadi va bu holat sug'urtaning iqtisodiyot rivojiga salmoqli hissa qo'shadigan muhim institut ekanligini bildirishini ta'kidlaydi²³. Uning fikriga ko'ra, sug'urta kompaniyalari investitsiya va nafaqa jamg'armalari bilan bir qatorda, aksiya, obligatsiya va ko'chmas mulk bozorlarida yirik institutsional investor hisoblanadi.

Athenia Bongani Sibindi, Ntwanano Jethro Godining fikriga ko'ra, moliyaviy va real sektorning o'zaro bog'liqligi haqidagi bahs-munozaralar hali ham davom

²³ Sunita Mall. Contribution of Insurance on economic growth in India: An Econometric Approach (2016). <https://www.gtap.agecon.purdue.edu/resources/download/8576.pdf>

etmoqda²⁴. Ushbu bahs-munozaralar asosan bank sektori yoki fond bozoriga qaratilgan bo'lib, bu borada o'tkazilgan tadqiqotlar sug'urta va real sektor o'rtasidagi munosabatlarga aniqlik kiritish uchun yetarli emas. Shuni qayd etish kerak, sug'urta sohasi o'z mohiyatiga ko'ra, yuzaga kelgan zararlarning o'rnini qoplash va jamg'armalar shakllantirishni rag'batlantirishi tufayli har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mamlakat iqtisodiyoti barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun turli qaltisliklardan himoyalangan bo'lishi zarur. Bunday himoyani talab darajasida shakllangan sug'urta tizimi taqdim etishi mumkin. O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari investitsion faoliyatni jadallashtirishga, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etishga, mamlakat eksport salohiyatini kengaytirish va eksportni o'sishiga ko'maklashishga qaratilgan hamda institutsional o'zgartirishlarni nazarda tutadi. Lekin shuni ta'kidlash kerak, tadbirkorlik faoliyatini sug'urtalash sohasida olib borilayotgan tadbirlar bozor munosabatlari talablariga to'liq javob bermaydi, tadbirkorlar sug'urta sohasida yetarlicha bilimlarga ega emas. O'z o'rnida sug'urtalovchilar sug'urta shartnomalari shartlarini belgilash yoki ko'zda tutilgan talablarni o'z vaqtida bajarish borasida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'ymoqdalar. Bu esa sug'urtalanuvchilarda sug'urta tashkilotlariga bo'lgan ishonchni pasaytirmoqda.

Monopoliyadan chiqarish va sog'lom raqobat muhitini shakllantirish har qanday sohaning erkin rivojlanishini ta'minlashning muhim shartidir. Bu borada O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.Karimov o'zining "O'zbekiston XX-asrga intilmoqda" nomli asarida quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Iqtisodiyotni erkinlashtirish to'g'risida so'z yuritganda bozor infratuzilmasini rivojlantirish, sug'urta tizimini takomillashtirish zarur. Keng tarqalgan bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi hisoblangan sug'urta xizmatlari tom ma'noda shakllantirilmas ekan, biz iqtisodiyotimizni samarali iqtisodiyotga aylantira olmaymiz"²⁵.

²⁴ Athenia Bongani Sibindi, Ntwanano Jethro Godi. Insurance Sector Development and Economic Growth: Evidence from South Africa. June 2014 Corporate Ownership and Control 11 (4): 530-538, DOI: 10.22495/cocv11i4c6p3. <https://core.as.uk/download/pdf/43178084.pdf>.

²⁵ Karimov I.A. "O'zbekiston XX-asrga intilmoqda". -T.: O'zbekiston, 1999.

Milliy iqtisodiyot sohalariga tashqi va ichki investitsiyalar oqimini kuchaytirish iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichini boshlab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Iqtisodiyotni faol rivojlantirish keng miqyosdagi va imkon qadar uzoqroq muddatga mo'ljallangan investitsiyalarni talab qiladi. Investitsiya har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta'minlovchi kuch ekan, bu borada sug'urta kompaniyalari alohida o'rin tutishini ushbu sohaning investitsiya yo'nalishidagi o'rnini ikki xususiyati bilan izohlash mumkin: birinchi xususiyat – sug'urta kompaniyalarida vaqtinchalik bo'sh va nisbatan uzoq muddat foydalanish mumkin bo'lgan (hayot sug'urtasida) katta miqdordagi pul mablag'lari to'planadi. Ushbu imkoniyatdan sug'urta kompaniyalari samarali foydalangan holda mazkur mablag'larni iqtisodiyotning turli sohalariga investitsiya sifatida yo'naltiradi. Ikkinchi xususiyat – investitsion faoliyat bilan bog'liq risklarning mavjudligi ushbu risklarni sug'urta orqali kafolatlashga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Shunday zaruratdan kelib chiqqan holda, sug'urta kompaniyalari tashqi va ichki investitsiyalarni turli risklardan sug'urtalash orqali ularning oqimini kuchaytirish imkonini yaratib beradi.

1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, sug'urta kompaniyalarining investitsiya mablag'lari yuqori darajada o'sish tendensiyasiga ega – besh yil ichidagi o'sish 3,2 barobarni tashkil etgan. Bunda eng yuqori o'sish hajm jihatidan kichik bo'lsada, boshqa investitsiyalar qismida va undan keyingi yuqori o'sish zaymlar taqdim etish yo'nalishida yuz bergan. Yo'naltirilgan mablag'lar hajmi bo'yicha katta hajmni bank depozitlari tashkil etgan. Buning asosiy sababi banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlik nisbatan yuqori darajada ekanligida bo'lib, tuzilayotgan sug'urta shartnomalarining katta qismi bank operatsiyalari risklari bilan bog'liq sug'urta shartnomalari hisoblanadi. Ushbu hamkorlik borasida shuni ta'kidlab o'tish kerak, banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikning imkoniyatlaridan hali to'liq foydalanilmayapti. Mavjud imkoniyatlar to'liq ishga solingan holatda, uning natijasida tuziladigan sug'urta shartnomalari soni bir necha baravar ortish ehtimoli bor. Bunday hamkorlik sifatida banksug'urta konsepsiyasini

amalga oshirish banklar va sug'urta kompaniyalari o'rasidagi hamkorlikning yuqori darajaga ko'tarilishiga imkoniyat yaratib beradi.

Investitsiya sohalariga yo'naltirilgan mablag'lar jami bo'yicha sezilarli o'sish davom etgan bo'lsada, xilma-xillik nisbatan past darajada, ya'ni investitsion faoliyat diversifikatsiyasi to'liq ta'minlanmagan. Shu bilan birga, 2022 yilda bir yo'nalishga yo'naltirilgan mablag'lar hajmida kamayish yuz berganligini ko'rish mumkin (korxonalar va tashkilotlarning ustav fondida ishtirok etish). Bu esa diversifikatsiyalashuv darajasining pasayishidan dalolat beradi. Bunday holatning yuzaga kelish sabablari sifatida mamlakatda investitsiya instrumentlari turlarining kamligini keltirish mumkin.

1.1-jadval

**O'zbekiston sug'urta kompaniyalari tomonidan iqtisodiyot sohalariga
yo'naltirilgan investitsiyalar dinamikasi²⁶**

Investitsiyalar yo'naltirilgan sohalar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2017 yilga nisbatan 2022 yilda o'sish
Jami investitsiyalar	2010,7	2711,9	3354,6	3746,7	4 751,8	6 149,9	3,2 barobar
Bank depozitlari	1042,5	1424,3	1784,6	2208,6	2896,6	4 037,4	4,3 barobar
Qimmatli qog'ozlar	708,6	848,6	957,7	1096,0	1287,9	1 357,5	2,0 barobar
Zaymlar	13,9	20,6	41,6	47,5	60,8	46,9	6,3 barobar
Ko'chmas mulk sotib olish	120,4	230,3	307,5	247,3	358,9	539,5	3,7 barobar
Ustav fondida ishtirok etish	125,1	183,3	257,5	142,2	118,2	134,7	2,0 barobar
Boshqalar	0,2	4,9	5,7	5,1	29,3	34,0	29,3 barobar

²⁶ Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Rivojlangan mamlakatlarda sugʻurta sohasi iqtisodiyotning ajralmas, strategik sektori hisoblanadi. Chunki sugʻurta:

- davlatga bevosita va bilvosita yetkazilgan tabiiy va texnogen zararlarni qoplab berish bilan davlatning byudjet xarajatlarini kamaytiradi;

- sugʻurtaning ijtimoiy himoya xususiyati yuqori boʻlgan turlarini (qoʻshimcha nafaqa sugʻurtasi, hayotni uzoq muddatli sugʻurtalash, avtofuqarolik javobgarligini sugʻurtalash, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini sugʻurtalash, tashuvchining fuqarolik javobgarligini sugʻurtalash va boshqalar) amalda qoʻllash orqali jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik taʼminlanadi;

- tashqi va ichki investitsiya sohasidagi risklarni kafolatlash hamda investor sifatidagi faoliyati orqali mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi;

- iqtisodiy nuqtai-nazardan sugʻurta pul mablagʻlarining qayta taqsimlanishini taʼminlashda ishtirok etadi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotning yetakchi kuchi sifatida amal qilib, yalpi ichki mahsulotning asosiy qismi ushbu sektorda yaratiladi. Xuddi shunday, mamlakatimizda ham mustaqillik yillarida tadbirkorlik sohasini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilib, soʻnggi yillarda mazkur sohada yaratilgan mahsulot, ish va xizmatlar yalpi ichki mahsulotning 70 foizdan ortigʻini tashkil etmoqda. Oʻz oʻrnida, tadbirkorlik faoliyatida tadbirkor biror loyihani amalga oshirar ekan, oʻz mablagʻi va vaqtinchalik jalb qilingan mablagʻlardan foydalanadi va mazkur mablagʻlarning saqlanishi uchun faqat uning oʻzi javobgar hisoblanadi. Ushbu holatni hisobga olgan holda, tadbirkor yoʻnaltirilgan mablagʻlarning turli kutilmagan hodisalar natijasida yoʻqotilishining oldini olishdan manfaatdor hisoblanadi. Bunda unga yordamga keluvchi - sugʻurta xizmatlari hisoblanadi. Ushbu zaruratdan kelib chiqqan holda, rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik tavakkalchiliklari sugʻurtasi yuqori darajada rivojlangan boʻlib, bunday sugʻurta turlari sifatida, ishlab chiqarishdagi uzilishlardan sugʻurtalash, bankrotlikdan sugʻurtalash, mulkiy sugʻurta, siyosiy risklardan

sug'urtalash, foydani ololmaslikdan sug'urtalash, shartnoma shartlarining bajarilmasligidan sug'urtalash kabi ko'plab sug'urta turlari keng qo'llanilmoqda.

Hayot darajasi va farovonligiga xavf soluvchi risklardan alohida shaxs yoki alohida oilani himoya qilish bilan, sug'urta aholining moliyaviy ta'minoti va ijtimoiy himoyasini ta'minlash instrumenti hisoblanadi. Davlatning ijtimoiy himoyasiga qo'shimcha ravishda, sug'urta xizmatlari ijtimoiy himoyaning alohida va yagona shakli sifatida amal qiladi.

Sug'urtaning yana bir xususiyatini alohida ta'kidlab o'tish kerak, sug'urta shartnomasi tuzilgan, sug'urta mukofoti to'langan, ammo sug'urta hodisasi yuz bermadi. Bu sug'urtalanuvchi uchun faqatgina ortiqcha xarajatni keltirib chiqardi degani emas. Sug'urta shartnomasini tuzgan tadbirkor endi ishonch bilan o'z oldiga qo'ygan maqsad yo'lida faoliyatni amalga oshiradi, chunki u biladiki, kutilmagan hodisa yuz berib, oldiga qo'ygan maqsadi yo'lida yo'naltirilgan mablag'lari yo'qotilgan taqdirda ko'rilgan zarar sug'urtalovchi tomonidan qoplab beriladi. Chunki sir emas, ko'pchilik insonlar biror-bir tadbirkorlikni amalga oshirishni xoxlaydi, ammo uning turli kutilmagan holatlar natijasida amalga oshmay qolishidan va mablag'idan ayrilib qolishdan cho'chib, bunday ishga qo'l urmaydi.

Sug'urta sohasi mikrodarajada risklarni sug'urtalovchiga o'tkazish bilan tadbirkorga o'z biznesini kutilmagan yo'qotishlardan himoya qilish, yetkazilgan zararni o'z vaqtida qoplash orqali ish jarayonini tiklash imkonini beradi. Sug'urta unga keskin qarorlar qabul qilish, o'z fikrlarini ro'yobga chiqarish, biznesni tashkil qilish erkinligini yaratib beradi. Xavf-xatarlarning mavjudligiga qaramasdan o'z biznesini rivojlantirish va kengaytirish bo'yicha favqulotda qarorlar qabul qilish, yangi texnologiyalardan foydalanish, yangi tovarlarni ishlab chiqarish imkonini beradi.

Sug'urta sohasi makrodarajada ilmiy-texnikaviy taraqqiyot rivojlanishining katta, ba'zan esa halokatli yo'qotishlarga olib keladigan salbiy oqibatlar (texnogen falokatlar, atrof-muhitning ifloslanishi, epidemiyalar va boshqalar) ko'proq yuzaga keladigan sharoitlarda ko'rilgan zararlarni qoplash imkonini beradi, iqtisodiy rivojlanishning uzluksiz reproduktiv jarayonini ta'minlaydi. Sug'urta sohasida

yaratilgan moliyaviy resurslar jabrlangan hudud foydasiga qayta taqsimlanib, uning tiklanishiga, shuningdek, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va kengaytirishga xizmat qiladi.

Hozirgi zamon sharoitida mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining muvaffaqiyatli rivojlanishini sug'urtasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Eksport kreditlari, xalqaro yuk tashish va avtotransport vositalari, xalqaro yo'nalishdagi yo'lovchilarni sug'urtalash, tobora kengayib borayotgan xalqaro turizm globallashuv jarayonlariga xizmat qiluvchi omillardan biriga aylanmoqda. Shu bilan birga, dunyoda sodir bo'layotgan va global xususiyatga ega bo'lgan jarayon va hodisalar (tabiiy ofatlar, yangi axborot texnologiyalari, iqtisodiyotlar o'zaro bog'liqligining kuchayishi, kasalliklar yangi turlarining paydo bo'lishi va boshqalar) sug'urtaning rolini yanada oshiradi. Aholi qarishining global tendensiyasi davlat tomonidan pensiya majburiyatlarini aholining o'ziga o'tkazish jarayonini kuchaytiradi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda bu jarayonda pensiya sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarning roli ortib bormoqda.

Dunyoning aksariyat davlatlari sug'urtani iqtisodiyotning yetakchi bo'g'inlaridan biri, jamiyat barqarorligining eng muhim omili deb biladi. Shu tufayli ushbu sohani rivojlantirish maqsadida dunyoning ko'pgina mamlakatlarida sug'urta operatsiyalari uchun soliq imtiyozlari taqdim etilgan. Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida, axborot eng muhim ishlab chiqarish resursiga aylanganda, sug'urta kompaniyalari tabiiy ofatlar, texnogen avariya va falokatlar to'g'risida to'plangan statistik ma'lumotlarning eng yirik egalaridan biriga aylanib, bu xalqaro hamjamiyatning shakllanishiga yordam beradi.

Turli ko'rinishdagi tabiiy ofatlarning yuz berishi natijasida, mamlakatlar milliy iqtisodiyotiga yetkazilgan zararlar o'nlab va yuzlab million AQSh dollarini tashkil etadi. Masalan, mutaxassislarning hisoblariga ko'ra, Hindistonning Hirot viloyatida 2001 yilning yanvar oyida yuz bergan yer qimirlashi natijasida yetkazilgan zarar 3,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan; o'sha yilning oktyabr-dekabr oylarida Angliyaning janubida yuz bergan kuchli bo'ron va suv bosish natijasida yetkazilgan zarar 3,3 mlrd. yevroni tashkil etgan; mazkur yilning sentyabr

oyida Yaponiyada bo‘lib o‘tgan suv toshqini natijasida yetkazilgan iqtisodiy zarar 1,3 mlrd. AQSh dollaridan ortiqni tashkil etganligini misol tariqasida keltirish mumkin. Sanoat korxonalarida yuz berib turadigan avariya ham tabiiy katastrofalardan kam emas, masalan, 2001 yil 21 sentyabrda Fransiyaning Tuluz shahridagi neftni qayta ishlash zavodida yuz bergan portlash natijasida hosil bo‘lgan iqtisodiy zarar 2 mlrd. AQSh dollaridan ortiq baholangan; Braziliyadagi neft platformasining 2001 yilning martida portlashi natijasida yetkazilgan zarar hajmi 580,0 mln. AQSh dollaridan ortiqni tashkil etganligini qayd etish mumkin. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Turli terrorchilik harakatlari natijasida ham katta miqdodagi zararlar yuzaga keladi, bunda albatta 2001 yil 11 sentyabrda AQShning Nyu-York shahrida yuz bergan terrorchilik hodisasi natijasida 3 mingdan ortiq inson hayotdan ko‘z yumganligi, yetkazilgan moddiy zarar esa 40—70 mlrd. AQSh dollarini tashkil etganligi ko‘pchilikka ma’lum²⁷.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan hodisalar natijasida yetkazilgan iqtisodiy hamda inson hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararlar sug‘urta orqali kafolatlanganligi tufayli, mazkur zararlar, olingan javobarliklar doirasida sug‘urta kompaniyalari tomonidan qoplab berilgan.

Rossiyaning AKRA reyting agentligining tahlillar asosida qilgan xulosalariga ko‘ra, mamlakatning farovonlik darajasi (kishi boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM) va hayot sug‘urtasidan boshqa sug‘urta tarmog‘ida to‘plangan sug‘urta mukofotlarining mamlakat YaIMdagi hissasi o‘rtasida yuqori korrelyatsion bog‘liqlik mavjud. Agentlikning bergan bahosiga ko‘ra, Pirson korrelyatsiyasi koeffitsienti 2007-2018 yillar oralig‘ida 0,89 ga teng bo‘lgan.

²⁷ Adamchuk N.G. Sug‘urta nazariyasi va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma - M.: Ankil, - 2003.

1.2-jadval. Dunyo mamlakatlarida sug'urta bozori ko'rsatkichlari²⁸

No	Mamlakat	Kishi boshiga YaIM (2007–2018 y. bo'yicha o'rtacha) XQP bo'yicha, 2011 yil XD kursida	Sug'urtaning kirib borganligi: HSdan boshqa mukofotlar (2007–2018 y.b. o'rtacha), YaIMga nis. % da	Umumiy kapital (2007–2017 y.b. o'rtacha), YaIMga nisbatan % da
1.	Aljir	13251	0,65	247
2.	Argentina	18845	2,28	164
3.	Avstraliya	44023	2,87	--
4.	Bangladesh	3075	0,19	169
5.	Belgiya	41401	2,70	335
6.	Braziliya	14601	1,68	274
7.	Kanada	42310	4,05	256
8.	Xitoy	11498	1,42	272
9.	Kolumbiya	11922	1,71	190
10.	Misr	11082	0,40	90
11.	Fransiya	38915	3,15	307
12.	Germaniya	43348	3,53	262
13.	Hindiston	5206	0,74	197
14.	Indoneziya	9577	0,50	284
15.	Eron	17252	1,61	207
16.	Iroq	14203	--	114
17.	Italiya	35107	2,23	348
18.	Yaponiya	37038	2,26	371
19.	Malayziya	23227	1,61	253
20.	Meksika	17055	1,13	249
21.	Niderlandiya	47373	8,70	279
22.	Nigeriya	5187	0,35	123
23.	Pokiston	4482	0,31	133
24.	Filippin	6334	0,50	202
25.	Polsha	23399	1,89	147
26.	Rossiya	24328	1,12	202
27.	Saudiya Arab.	48499	0,99	177
28.	Singapur	77946	1,60	295
29.	JAR	12146	2,74	234
30.	Jan. Koreya	33600	4,38	292
31.	Ispaniya	33254	2,83	334
32.	Shvesiya	44705	1,93	276
33.	Shveysariya	55429	4,32	331
34.	Tayvan	41494	3,15	270
35.	Tailand	14745	1,73	297
36.	Turkiya	20375	1,22	211
37.	BAA	62186	1,85	237
38.	Angliya	38571	2,74	246
39.	AQSh	51670	4,42	242
40.	Vetnam	5121	0,78	160

Bu yerda: XQP – xarid qobiliyati pariteti; XD – xalqaro dollar; HS – hayot sug'urtasi.

²⁸ <https://www.acra-ratings.ru/research/1671>.

Korrelyatsiya darajasi yuqoriligining asosiy sabablari sifatida kishi boshiga to'g'ri kelayotgan yalpi ichki mahsulot (1.2-jadvalga qarang) va iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish kapitalining yuqori hajmga egaligi ko'rsatilmoqda. Mazkur kapitalni sug'urtalash hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta tarmog'ida qo'shimcha sug'urta mukofotlarining to'planishiga olib keladi. Korrelyatsiya darajasiga iste'mol tarkibi ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aholi daromadlarining ko'payishi ular tomonidan ko'chmas mulklar va avtomobillar sotib olishning ko'payishi, xususiyl tibbiy xizmatlardan foydalanish hajmining ortishiga olib keladi. Bu kabi mulk va xizmatlarning sug'urtalanishi sug'urta mukofotlari hajmining ortishiga olib keladi.

Sug'urta xizmatlari hajmining ortishi yoki kamayishiga aholining turli tabiiy va stixiyali hodisalardan hamda boshqa ko'rinishdagi ijtimoiy himoyalar bilan davlat tomonidan ta'minlanganlik darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash kerak, davlat tomonidan fuqarolarga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladigan ijtimoiy himoyalarning samaradorligi ko'p hollarda o'zining kerakli natijasini bermaydi, qachonki bunday ijtimoiy himoya usullari sug'urta kompaniyalari bilan davlat sherikchiligi asosida amalga oshirilsa o'zining yuqori samarasini beradi.

AKRA reyting agentligi tomonidan Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlari asosida yuqori yalpi ichki mahsulot hajmiga ega bo'lgan dunyoning 40 ta mamlakatining YaIMda hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta tarmog'ida to'plangan sug'urta mukofotlarining nisbati hisoblangan jadvalni (1.2-jadval) ko'rib chiqamiz.

1.2-jadval asosida qilingan AKRA xulosasiga ko'ra, kishi boshiga to'g'ri kelayotgan YaIM bilan hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta tarmog'ida to'plangan sug'urta mukofotlarining YaIMga nisbati o'rtasida yuqori darajada korrelyatsiya mavjud. Jadvalni tahlil qilgan holda biz ham AKRA tomonidan qilingan xulosaning to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qildik. Chunki qaysi mamlakatda kishi boshiga to'g'ri keladigan YaIM miqdori yuqori bo'lsa, o'sha mamlakatda mos ravishda YaIMda sug'urta mukofotlarining hissasi yuqori bo'lgan. Bunda XVF tomonidan xarid qobiliyati pariteti bo'yicha YaIM ko'rsatkichini hisoblashda 2011 yilgi xalqaro

dollariga asoslanganligi valyuta kurslarining o'zgarishi va inflyatsiya ta'sirini kamaytirish imkonini bergan.

Mamlakatning farovonlik darajasi (kishi boshiga to'g'ri keladigan YaIM) va hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta tarmog'ida to'plangan sug'urta mukofotlarining mamlakat YaIMdagi hissasi o'rtasida yuqori korrelyatsion bog'liqlik mavjud bo'lishining birinchi sababi iqtisodiyotdagi kapital aktivlar hajmi bilan bog'liq. Ishlab chiqarish funksiyasining makroiqtisodiy konsepsiyasiga ko'ra, iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan jami mahsulot, ish va xizmatlar hajmi mehnat xarajatlari va ishlatilgan ishlab chiqarish kapitali hajmiga bog'liq. Bunda, bir ishchi-xodimga to'g'ri keladigan kapital hajmi va ishlab chiqarilgan bir birlik mahsulotga ketgan kapital qiymati qanchalik oshib borsa, YaIMning mehnat xarajatlariga nisbati ham ortib boradi.

O'n yillik oraliqdagi o'rtacha darajadan kelib chiqqan holda tahlilni amalga oshirish iqtisodiy jarayonlarning ta'sirini kamaytirish imkonini beradi, shuning uchun mehnat va kapital bozorlari muvozanatda bo'lganda YaIMning o'rtacha qiymati ishlab chiqarish funksiyasi darajasiga yaqin bo'ladi. Iqtisodiyotdagi mehnat sarfining muvozanat darajasi aholi soniga mutanosib bo'ladi. Shu bilan birga, AKRA aholining yosh tarkibi ishchi kuchi taklifi darajasiga kamroq ta'sir ko'rsatishini keltiradi. Shuni ham ta'kidlash kerak, sug'urta mukofotining miqdori kapital miqdoriga to'g'ri proporsionaldir. Bundan kelib chiqadiki, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'ratkichi va hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta tarmog'ida to'plangan sug'urta mukofotining YaIMdagi ulushi ko'rsatkichi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud.

Mamlakatning farovonlik darajasi (kishi boshiga to'g'ri keladigan YaIM) va hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta tarmog'ida to'plangan sug'urta mukofotlarining mamlakat YaIMdagi hissasi o'rtasida yuqori korrelyatsion bog'liqlik mavjud bo'lishining ikkinchi sababi, uy-joy, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar (birinchi navbatda avtomobillar), shuningdek, nodavlat tibbiy xizmatlar va turistik sayohatlarga bo'lgan talab darajasi bilan bog'liq. Aholining daromadlari ortib borishi bilan ushbu sohalardagi xarajatlar ulushi jadal

sur'atlar bilan oshib bormoqda, bu esa sug'urta mukofotlarining oshishiga, o'z o'rnida sug'urta mukofotlarining YaIMdagi hissasi oshishiga olib kelmoqda.

Korrelyatsiyaning uchinchi sababi sifatida, himoyaning boshqa muqobil turlariga nisbatan sug'urta xizmatlari samaradorligining ortishi potensial sug'urtalanuvchilarning sug'urta xizmatlaridan foydalanishga qiziqishlarini orttiradi va natijada mamlakatda jami sug'urta mukofotlarining hajmi ortadi, bu esa o'z o'rnida yalpi ichki mahsulot hajmi o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sug'urtaning muqobili sifatida o'z-o'zini sug'urtalash (kutilmagan zarar va xarajatlarni qoplash maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan turli ko'rinishdagi zahiralar va omonatlarning shakllantirib borilishi), davlat tomonidan tashkil etiladigan fondlarni keltirish mumkin. Bunday muqobil variantlarga nisbatan sug'urtani yuqori darajada diversifikatsiyalashganligi, shu jumladan xalqaro qayta sug'urta mexanizmlarining mavjudligini ta'kidlab o'tish joiz. Bu aktivlar tarkibini uning likvidligi va daromadliligi bo'yicha optimallashtirish imkonini beradi, oxir oqibatda bu umumiy iqtisodiy samaradorlikning oshishini ta'minlaydi.

1.3. O'zbekiston milliy sug'urta bozorining samarali faoliyatini ta'minlashda rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan foydalanish

COVID-2019 dan keyin dunyo iqtisodiyotining tezlik bilan tiklanishi yuz berdi. O'z o'rnida global sug'urta mukofotlari ham o'sishga erishdi. SWISS RE institutining bergan ma'lumotlariga ko'ra, koviddan keyin sog'liq sug'urtasi 1,9% ga oshdi. Chunki kovid odamlarni o'z sog'liqlariga e'tiborli bo'lishlariga undadi va bunda sog'liq bilan bog'liq sug'urta turlarining muhim ekanligi ko'zga tashlandi. Xitoy iqtisodiyotining tezlik bilan tiklanishi va yuqori darajada rivojlanishi jahon iqtisodiyotining tiklanishini tezlashtirdi, o'z o'rnida Xitoy sug'urta bozorining barqaror o'sishiga olib keldi. Risklar to'g'risida oldindan ogohlantirish imkoniyatlarining kengayishi va kovid paytida yanada kengaygan onlayn xizmatlar sug'urta xizmatlari tannarxining pasayishiga, natijada ushbu xizmatga bo'lgan

iste'molchilar talablarining oshishiga olib keldi. Bu esa mazkur sohada moliyaviy infratuzilmaning rivojlanishiga turtki berdi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida sug'urta sohasi muhim rol o'ynaydi va shu sababdan ushbu mamlakatlar milliy iqtisodiyotining rivojini ta'minlash maqsadida sug'urta himoyasining samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishga doimiy ravishda e'tibor qaratiladi. Bunday tadbirlar sifatida sohaga yangi, zamon talabiga mos sug'urta turlarini joriy etish, sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishda zamonaviy sug'urta texnologiyalarini qo'llash, sug'urta operatsiyalari va mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini raqamlashtirish kabilarni keltirish mumkin. Shu bilan birga sug'urta sohasini davlat tomonidan nazorat qilish usullarini ham takomillashtirib borishga e'tibor qaratiladi.

COVID-2019 pandemiyasi davri dunyo mamlakatlari sug'urta sohasiga qay darajada ta'sir qilganligini 1.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, dunyoning aksariyat mamlakatlarida sug'urta sohasining rivojiga alohida e'tibor qaratilganligining isboti sifatida dunyoning yigirmata mamlakati ichida pandemiyaning ta'siri natijasida sug'urta mukofotlari hajmining pasayishi faqat 9 ta mamlakatda pasayish yuz berganligini, oltita mamlakatda shunday qiyin sharoitda ham yuqori o'sish suratinig qayd etilganligini ko'rish mumkin.

1.3-jadval

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida to'plangan sug'urta mukofotlari²⁹

(mln. AQSh dollarida)

№	Mamlakatlar	2019	2020	O'sish/kamayish
1	AQSh	2 485 326	2 530 570	1.8
2	Xitoy	617 399	655 874	6.2
3	Yaponiya	427 580	414 805	-3.0
4	Angliya	364 352	338 321	-7.1
5	Germaniya	249 207	258 566	3.8
6	Fransiya	206 457	231 347	11.2
7	Shimoliy Koreya	179 018	193 709	8.2
8	Italiya	167 881	161 973	-3.5
9	Kanada	134 839	143 468	6.4
10	Tayvan	117 823	113 304	-3.8
11	Hindiston	107 893	107 993	0.1

²⁹ <https://www.acra-ratings.ru/research>

12	Niderlandiya	84 179	87 529	4.0
13	Gong Kong	70 696	73 131	3.4
14	Ispaniya	70 982	66 323	-6.6
15	Avstraliya	68 688	62 840	-8.5
16	Shvesariya	58 868	62 669	6.5
17	Irlandiya	58 645	58 089	-0.9
18	Braziliya	73 388	57 623	-21.5
19	Belgiya	41 372	41 236	-0.3
20	Shvesiya	38 026	40 939	7.7

Moliyaviy infratuzilma rivojlanishining muhim yo‘nalishlaridan biri “banksug‘urta” (“bancassurance”) bo‘lib, bu rivojlangan va ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Banksug‘urta modeli dunyo tajribasida 1920 yillardan boshlab qo‘llanib kelinmoqda. “bancassurance” termini birinchi bo‘lib 1970 yillarning oxirida sug‘urta xizmatlarini bank orqali sotish tushunchasi sifatida Fransiyada paydo bo‘lgan. Bugungi kunda ushbu termin sug‘urta xizmatlarini bank orqali sotish ma‘nosini anglatib, bank sug‘urtachisi “bancassurer” sifatida mijozga bank xizmatlari bilan bir qatorda sug‘urta xizmatlarini ham ko‘rsatuvchi tashkilotni tushuniladi.

Banksug‘urta (“bancassurance”) konsepsiyasining mohiyati banklar va sug‘urta kompaniyalarining o‘z bank va sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishni muvofiqlashtirish maqsadida o‘zaro integratsiyani yo‘lga qo‘yish, bank va sug‘urta xizmatlarini birgalikda olib borish, bir mijozga birdaniga ikki xil xizmat turini taklif etish va ko‘rsatish hamda o‘z hamkorining moliyaviy resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishdan iborat. Banksug‘urta har bir mamlakatda ushbu mamlakatning demografik, iqtisodiy va huquqiy muhitidan kelib chiqqan holda turlicha tashkil qilingan. Barcha mamlakatlar uchun bir xil bo‘lgan banksug‘urta konsepsiyasi mavjud emas. Ammo shuni ta’kidlash mumkin, banksug‘urta modeli amal qilayotgan mamlakatlarda, sug‘urta polislarini bank orqali sotish sug‘urta kompaniyalari jami sotuv hajmida kattagina qismni tashkil etmoqda, ayniqsa bu ko‘rsatkich hayot

sug'urtasida katta bo'lib, Yevropa mamlakatlarida bu 70 % gacha yetmoqda. Osiyo mamlakatlarida bu ko'rsatkich nisbatan kichik bo'lsada, so'nggi yillarda 20 % gachani tashkil etmoqda.

Banklarning sug'urta xizmatlarini sotishga bo'lgan qiziqishi moliya bozorlarining rivojlanishi, ushbu bozor ishtirokchilari o'rtasida o'zaro raqobatning kuchayishi hamda aralash moliya xizmatlarini ko'rsatish orqali qo'shimcha daromadga ega bo'lish maqsadida hosil bo'lmoqda. Banklarning sug'urta kompaniyalari bilan hamkorlik qilish to'g'risida qaror qabul qilishlariga asosiy sabab: qo'shimcha daromadga ega bo'lish, qo'shimcha xizmatlar yaratish asosida mijozlarni ushlab turish, shu asosda mijozlar sonini ko'paytirish va ularga sifatli xizmatlar ko'rsatishdan iborat.³⁰

Banksug'urta nazariyasi o'zida bank va uning xodimlariga sug'urta xizmatlarini sotish hamda korporativ va chakana mijozlarga sug'urta mahsulotlarini sotish nazariyalarini birlashtiradi. Ushbu nazariyaning muhim xususiyati - sug'urta xizmatlarini bank xodimi tomonidan sug'urta kompaniyasining ishtirokisiz amalga oshirishidir.

Banksug'urta nazariyasi birgalikda sotuvni amalga oshirish maqsadidagi harakatlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Bunda, ushbu banksug'urta nazariyasini amalga oshirish uchun sug'urta kompaniyasi tomonidan qilinadigan birinchi qadam, banklar bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ma'lum talablardan kelib chiqqan holda ular bilan muzokaralar olib borishdan iborat. Bunda, sug'urta kompaniyalarining yo'l qo'yadigan keng tarqalgan xatolaridan biri - barcha banklarga birdaniga harakatni boshlashidir. Agar sug'urta kompaniyasi bank bilan hamkorlikni uzoq yillar davomida amalga oshirishni maqsad qilgan bo'lsa, xodimlarga taklif qiladigan komission mukofotlardan tashqari, ma'lum bank uchun yana boshqa o'ziga tortadigan manfaatlarni taklif etmog'i zarur. Bundan tashqari, sug'urta

³⁰ Manchurak M.B. Banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy tamoyillari va ularning rivojlanishi // Sug'urta ishi. 2014 yil 8 (257)-son 20-27 gacha

kompaniyasi bankni tanlashda uning xizmat ko'rsatish hajmi va strategiyasidagi o'zaro o'xshashliklarga, mijozlarga yuqori madaniyatli xizmatlar ko'rsatilishiga, qarorlarni tez qabul qilishiga va boshqa jihatlariga e'tibor qaratishi zarur.

XXI asrda, iqtisodiyotning turli sohalarida axborot tobora markaziy o'rinni egallamoqda, zamonaviy jamiyatni raqamlashtirish davr talabiga aylanmoqda. Bugungi kunda foydalanilayotgan ma'lumotlar hajmi yuzlab terabayt va petabaytlarni tashkil etmoqda. Sanoat, biznes, tibbiyot, sug'urta sohasida strategik qarorlarni qabul qilish va biznes jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur matn, raqamli, audio, foto, videoma'lumotlar oqimi doimiy ravishda oshib bormoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, video, audio va geolokatsiya xizmatlarining rivojlanishi natijasida axborot mahsulot va xizmatlariga talab doimiy ravishda oshib bormoqda. Mijozlarga bunday xizmatlarni taklif qilish uchun korxonalar va tashkilotlarda turli manbalardan olingan katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish zarur. Tahlil qilish natijasida davlat boshqaruv organlari, telekommunikatsiya va internet provayderlari, banklar, energetika va tijorat kompaniyalari uchun to'plangan ma'lumotlar strategik ahamiyatga ega aktivga aylanadi va shu bilan birga, ularning faoliyat natijalari boshqaruv samaradorligiga bog'liqdir. Axborot hajmining oshishi ko'p miqdordagi ma'lumotlarni samarali qayta ishlashga qodir bo'lgan dasturiy ta'minotning rivojlanishi, shuningdek, axborotlarni to'plash, qayta ishlash, saqlash va uzatish xarajatlarini sezilarli darajada pasaytirish bilan birga amalga oshiriladi. Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash uchun mo'ljallangan platformaga ehtiyojning oshishi va "Big Data" ("Katta ma'lumotlar" deb nomlangan) xizmatlarini rivojlantirishning eng dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lgan bunday ma'lumotlarni minimal xarajat bilan tezda qayta ishlashga qodir texnik vositalardan foydalanish imkoniyatlari

ortib bormoqda³¹.

Accenture konsalting kompaniyasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, sug'urta kompaniyalari rahbarlarining 79 foizi Big Data texnologiyasidan foydalanmaydigan raqobatchilarning raqobatda yutqazib qo'yishlari ehtimoli yuqori ekanligini ta'kidlashgan³².

Sug'urta sohasi riskka asoslangan soha bo'lganligi tufayli har doim ma'lumotlar tahliliga asoslangan holda ish ko'radi. Baxtsiz hodisalar statistikasi va sug'urtalangan shaxsning shaxsiy ma'lumotlari odamlarni turli xavf toifalariga guruhlash va foyda hamda xarajatlarini optimallashtirishga yordam beradi. Kyivstar kompaniyasi mutaxassislari Big Data bilan ishlashni kompaniya ichkarisidan boshlashni tavsiya etadi. Katta ma'lumotlar algoritmlarini amalga oshirish, aqliy fikrlashni talab qiladigan ko'plab jarayonlarning samaradorligini oshiradi. Ya'ni: tibbiy sug'urta bo'yicha sug'urtalangan shaxsning kasallik tarixini tezda tekshirish, arizalarni ko'rib chiqishni avtomatlashtirish va shu asosda mijozlarga tez hamda sifatli xizmatlarni taqdim etish. Raqamli texnologiyalardan foydalanish xodimlarning vaqtini 50 % gacha tejashga yordam beradi, ushbu imkoniyatdan ular samarali foydalangan holda, tejalgan vaqtlarini ko'proq daromadli ishlarga sarflashlari mumkin bo'ladi. Katta ma'lumotlar texnologiyasi kompaniyada qo'lda amalga oshirib kelingan ko'plab jarayonlarni kompyuterlashtirishga yordam beradi, ilovalarni qayta ishlash va boshqaruv xarajatlarini kamaytish imkonini beradi. Raqobat sharoitida bu tadbirlar sug'urta xizmatlari narxining pasayishiga olib keladi, natijada yangi mijozlar paydo bo'ladi. Masalan, Kyivstar kompaniyasi tomonidan Ukraina sug'urta kompaniyalari uchun quyidagi xizmatlarni taklif etmoqda³³:

³¹ Shennaev X.M. Big Data texnologiyalaridan sug'urta faoliyatida foydalanish: AQSh tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari. O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlantirish va raqamlashtirish masalalari mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari, TMI 12 fevral 2020 y.

³² Internet ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

³³ Internet ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

- mijozning profilini tahlil qilish;
- sugʻurta toʻgʻrisidagi takliflarni berish uchun maqsadli auditoriyalarni aniqlash;
- sugʻurta hodisalari roʻy berishining skoring prognozini amalga oshirish.

Big Data (katta maʼlumotlar) texnologiyasi bu – katta hajmdagi tizimlashgan va tizimlashmagan maʼlumotlarni qayta ishlash va interpretatsiyalash instrumentlari va usullari yigʻindisidir. Bunday katta maʼlumotlarning manbalari boʻlib, turli koʻrinishdagi qurilmalarning maʼlumotlari, ijtimoiy tarmoqlar va servislarning (masalan yandex karta) maʼlumotlari hamda uchinchi shaxslardan olingan maʼlumotlar (masalan sugʻurtalanuvchining sugʻurta tarixi) boʻlishi mumkin.

Sugʻurta sohasida katta maʼlumotlarni qoʻllash quyidagi yoʻnalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

- marketing va sugʻura polislarini sotish;
- sugʻurtaga qabul qilinayotgan riskni baholash va tariflarni belgilash;
- sugʻurta tovlamachiligiga qarshi kurash;
- ixtiyoriy tibbiy sugʻurta.

Shu bilan birga, katta maʼlumotlardan foydalanish bilan bogʻliq muammolar ham mavjud boʻlib, ular quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- maʼlumotlar bazasiga ishonchsiz maʼlumotlarning kirib qolishi;
- modellashtirishda xatoliklarga yoʻl qoʻyilishi;
- opportunistik (oʻz manfaati yoʻlida) hatti-harakatlarning yuzaga kelishi;
- maʼlumotlar maxfiylikiga duch kelish natijasida ularni olish imkoniyatining yoʻqolishi.

Keltirilgan muammolarni katta maʼlumotlar bazasini shakllantirish masalasiga jiddiy qaragan holda, yaʼni kiritilayotgan maʼlumotlarni ishonchli manbalardan olishga va ularni ekspertizadan oʻtkazish orqali yuqoridagi kabi muammolarni bartaraf etish mumkin deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda har qanday shaxs katta hajmdagi maʼlumotlarni ijtimoiy

tarmoqlardan, elektron pochta hamda onlayn-to'lov tarmoqlaridan oladi. Mazkur shaxs olayotgan ma'lumotlar tarkibi va xususiyatidan kelib chiqib uning xohish-istaklarini aniqlash mumkin. Bunday tizimlashmagan ma'lumotlarni tahlil qilgan holda, sug'urta kompaniyalari yangi mijozlarni jalb etish uchun maqsadli reklama kompaniyalarini tashkil etishlari mumkin.

Har qanday sohadagi mijozlar o'z sohasida mutaxassis bo'lgan kompaniyalar bilan ishlashni xoxlashadi. Agentliklarning ma'lum sohaga ixtisoslashuvi ko'proq xoxlovchilarni jalb qilish imkonini beradi, chunki bunday holatda potensial sug'urtalanuvchi amaldagi sug'urtalanuvchilarda qanday holatlarda va qanday hajmda qoplama olish imkoniyati borligi va ular buning uchun qancha sug'urta badali to'layotganligi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Boshqa segmentlarga nisbatan, ayniqsa sayohat sug'urtasida katta ma'lumotlardan (Big Data) foydalanish imkoniyati yuqori va ular bu imkoniyatdan samarali foydalanishadi. Polis bahosining pastligi va chet el sayohati uchun sug'urtaning ko'p hollarda majburiyligi sug'urtalanish to'g'risida qaror qabul qilish vaqtini qisqartiradi. Big Data esa mijozlar bilan bo'ladigan sug'urtaviy munosabatlarni tezlashtiradi, muloqotni avtomatlashtiradi va tezda foydali taklifni ishlab chiqadi.

Mulk va baxtsiz hodisalardan sug'urtalash landshafti ko'proq kelajagi bor yo'nalishlar hisoblanadi, chunki Big Data risklar va mijozning hatti-harakati o'rtasidagi empirik aloqalarni aniqlash imkoniyatiga ega. Misol uchun, ba'zi avtokorxonalar yo'l sharoitlarini xabar qilingan baxtsiz hodisalar jami asosida baholaydilar va mijozlarning yo'nalishlarini tekshiradilar.

Katta ma'lumotlarni joriy qilish uzluksiz ravishda o'sib bormoqda va sug'urta kompaniyalari ushbu maqsadlar uchun katta hajmda mablag'lar kiritmoqda. Natijada sug'urta xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaxshilanmoqda va narxi pasaymoqda.

Big Data texnologiyalarini samarali yo'lga qo'yish sug'urta kompaniyasida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish darajasi bilan bog'liq. Zamonaviy

elektron-raqamli dunyo sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorlikka bevosita ta'sir qiluvchi risklarni imkon qadar aniq va to'g'ri baholash maqsadida sug'urtalovchilarni keng qamrovli ma'lumotlar bilan ta'minlab, sug'urta faoliyati uchun ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi. Shu bilan birga, risklarni baholashning sifatli modelini shakllantirishga va sug'urta hodisalarining yuz berish ehtimolini prognoz qilishga bevosita ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning ommaviylashuvi va takomillashuvi ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi, iqtisodiyotning tuzilmasi va ta'limga ta'sir ko'rsatadi, kommunikasiyalar, hisoblash quvvatlari, axborot tizimlari va servislarga yangi talablarni belgilab beradi. Zamonaviy sharoitda rivojlangan platformalarsiz texnologiyalar, institutsional va infratuzilmaviy muhitlarsiz bozorlar va faoliyat sohaslarining dinamik rivojlanishi amalga oshmasligi muqarrar³⁴.

Raqamlashtirish sug'urtalovchilarning bazaviy innovatsiyalardan manfaatdorligini belgilab beradi. Ular sug'urta jarayonlari va mexanizmlarini soddalashtirish maqsadida raqamli texnologiyalardan borgan sari faolroq foydalanadi. Bunday texnologiyalarga, xususan, avtomatlashtirish, chatbotlar (chatbots), ma'lumotga bulut ichida ishlov berish (cloud computing), sun'iy intellekt elementlari bo'lgan texnologiyalar (artificial intelligence) kiradi.

Hozirgi zamon sug'urta bozorida, ayniqsa rivojlangan mamlakatlar sug'urta bozorlarida informatsion texnologiyalar shunday harakatlantiruvchi kuchki, uning yordamida sug'urta kompaniyalari yuqori darajada talabchan va shoshqaloq mijozlar bilan samarali o'zaro munosabat o'rnatish imkoniga ega bo'ladi. Iste'molchilar texnologik yangiliklarni yaxshi tushungan va ulardan kundalik hayotida faol foydalana olgan holda, o'z o'rnida sug'urtalovchilardan ham mos texnologik darajadagi xizmatlarni kutadi³⁵.

³⁴ Xalikulova G.T. Raqamli texnologiyalar va ulardan sug'urta bozorida foydalanish imkoniyatlari. O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlantirish va raqamlashtirish masalalari mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari, TMI 12 fevral 2020 y.

³⁵ Tadviser.ru. Insur Tech Sug'urtalashda IT rivojlanish tendentsiyalari Kiber sug'urta Kiber xavf sug'urtasi "Aqlli" sug'urta, 2021/11/24 15:16:40

O‘zbekistonda ham milliy sug‘urta bozorida raqamli texnologiyalarni qo‘llashni kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Buni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”³⁶gi qarorining qabul qilinganligi bilan ham izohlash mumkin.

Mazkur qaror asosida sug‘urtaning barcha turlarini elektron shaklda amalga oshirishga ruxsat berilganligi, barcha sug‘urta polisleri yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimida ro‘yxatga olinishi, 2023 yil 1 yanvardan boshlab majburiy sug‘urtaning barcha turlari bo‘yicha sug‘urta polislarini qog‘oz blankalarda rasmiylashtirish amaliyoti bekor qilinganligi, yagona axborot tizimi negizida barcha sug‘urta polislarini ro‘yxatga oluvchi va ularning aylanmasini nazorat qiluvchi yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etilishini ta‘minlash, yagona axborot tizimini vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiya qilish masalalari belgilanganligi O‘zbekiston sug‘urta bozorida qisqa muddatlar ichida sug‘urta ishini raqamlashtirish sezilarli darajada kengayishini bashorat qilish mumkin.

Sug‘urta kompaniyalari tomonidan boshqa xo‘jalik sub‘ektlari singari InsurTech zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanish biznes-jarayonlar bilan bog‘liq qarorlarni qabul qilish muddatini kamaytirish hamda uning sifatini oshirish, risklarni individual baholash, sug‘urtalanuvchi talablarini ko‘proq e‘tiborga olgan yangi sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish imkonini beradi³⁷.

InsurTech o‘z ichiga mashinalarni o‘rganish texnologiyalari, sun‘iy intellekt, kiberxavfsizlik bo‘yicha ishlanmalar, katta ma‘lumotlarni tahlil qilish, blokcheyn texnologiyasi, narsalar interneti va hozirda sug‘urta bozorida faol foydalanilayotgan smartfon ilovalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalarning har biri o‘ziga xos bo‘lsada, ular amal qilish jarayonida ko‘pincha o‘zaro kesishadi

³⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5265-son qarori. 2021 yil 23 oktyabr

³⁷ Belozerov S.A., Chernova G.V., Kalaida S.A. Rossiya sug‘urta bozori rivojlanishining zamonaviy omillari. // Sug‘urta ishi - 6-son (303). – 2018. 31-35-betlar. (<https://elibrary.ru/item.asp?id=35104759>)

va bir-biriga kirib boradi, o'ziga xos duragaylarni hosil qiladi, ammo bu mohiyatni o'zgartirmaydi.

InsurTech – bu hayotdagi ko'plab qiyin kechadigan jarayonlarni osonlashtiradigan raqamli texnologiyalar bo'lib, ular kompaniya va mijozlar uchun vaqt, kuch va pulni tejaydi. Yangi texnologiyalar keltirib chiqaradigan o'zgarishlar evolyusion ekanligini tushunish muhimdir. Ular ilgari bo'lgan narsani buzmaydi, balki ularni takomillashtiradi va bozorni tanib bo'lmaydigan darajada o'zgartiradi.

Bugungi kunda InsurTech umuman sug'urta sohasi va shu jumladan ushbu bozorning har bir ishtirokchisi rivojlanishining asosiy elementidir. Bu butun dunyo bo'ylab davom etayotgan tendensiya. Yangi texnologiyalar, bizning fikrimizcha, ma'lum bir mijozning bir sug'urta mahsulotini olishi uchun borishi kerak bo'lgan yo'lni qisqartirish va yengillashtirish uchun hamda narxini pasaytirishga imkoniyat yaratish uchun mo'ljallangan.

Bo'lib o'tgan pandemiya davri InsurTech texnologiyalarining ayrim yo'nalishlari rivojlanishini sezilarli darajada tezlashtirdi. Lockdown iste'molchilar orasida endi hamma narsani, shu jumladan sug'urta qilishni ham onlayn tarzda amalga oshirish mumkinligini amalda ko'rsatdi. Mazkur davrda tegishli texnologiyalar jadal suratlar bilan rivojlana boshladi.

Bugungi kunda ikkita tendensiya davom etmoqda. Birinchisi, mijozlar va kompaniya o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri munosabatlarni minimallashtirish. Buning asosiy sababi COVID-19 inqirozidir. Vahima yo'qligiga yoki orqada qolganligiga qaramay, odamlar keraksiz aloqalardan qochishni afzal ko'rishmoqda. Bunday holatda yangi texnologiyalar, ayniqsa, sug'urta kompaniyalari uchun mo'ljallangan mobil ilovalar yordam bermoqda. Ikkinchi tendensiya – sug'urta mahsulotini individuallashtirish. Bu juda katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z ichiga olgan murakkab masala hisoblanadi. Bugungi kunda bu sun'iy intellekt va Big Data rivojlanishidagi zamonaviy ishlanmalar tufayli mumkin bo'lmoqda.

Global miqyosda InsurTech istiqbolli sanoatga o'xshaydi. Xorijiy mamlakatlar tahlilchilarining fikriga ko'ra, InsurTech global bozori 2024 yilda o'rtacha yillik o'sish sur'ati 36 %ni tashkil etgan holda, 21,7 milliard dollarga yetadi.

Bunday raqamlar o'z mahsulotlarini bozorga faol ravishda kiritayotgan startaplarni ham, ularning rivojlanishiga sarmoya kiritayotgan investorlarni ham, o'z faoliyatiga yangi yechimlarni joriy etayotgan sug'urtalovchilarni ham qiziqtiradi va o'ziga jalb etadi.

Sug'urta bozori va umuman iqtisodiyoti rivojlanish jarayonida bo'lgan mamlakatlar sug'urta bozorlari uchun bir tendensiya xos, bu ham bo'lsa bunday bozorlarda to'planayotgan sug'urta mukofotlari hajmi tezlik bilan ko'payib borsada, ular tomonidan sug'urta hodisalari bo'yicha to'lab berilayotgan qoplamalar hajmi sezilarli darajada orqada qolmoqda. Misol tariqasida Polsha davlati sug'urta bozorini olib qaraydigan bo'lsak, mazkur mamlakat sug'urta bozori mamlakatimiz sug'urta bozori bilan taqqoslanganda sug'urta kompaniyalari soni, ular tomonidan to'planayotgan sug'urta mukofotlari hajmi, umumiy va hayot sug'urtasiga ixtisoslashgan kompaniyalar nisbati, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan chet el sug'urta kompaniyalari filiallari soni, milliy sug'urta kompaniyalari ustav kapitallarida chet el sug'urtalovchilarining ulushi hamda to'liq chet el kapitaliga asoslangan sug'urta kompaniyalari, o'zaro sug'urtalash jamiyatlari soni va faoliyat hajmi kabi ko'rsatkichlar bilan sezilarli darajada farqlanadi.

Polsha sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatuvchi sug'urta bozori infratuzilmasi ishtirokchilari ichida mamlakatimizdagidan farqli ravishda, sug'urtalanganlar spikeri, sug'urta kafolat fondi va sug'urta ta'limi jamg'armasi amal qilishini keltirib o'tish mumkin. Ushbu ishtirokchilar ichida sug'urtalanganlar spikeri va sug'urta kafolat fondi sug'urta qonunchiligi bilan mustahkamlab qo'yilgan ishtirokchilar hisoblanadi. Sug'urtalanganlar spikeri "Sug'urta nazorati va sug'urtalanganlar spikeri to'g'risida"gi qonun asosida faoliyat ko'rsatadi. Spikerning asosiy funksiyasi sug'urtalanuvchilar tomonidan sug'urtalovchilarga nisbatan bildirilgan noroziliklar va arizalarni ko'rib chiqishdan iborat bo'lib, ushbu norozilik va arizalar sug'urta kompaniyalari va nodavlat pensiya fondlarining hatti-harakatlari hamda sug'urta bozori bilan bog'liq qonunchilik hujjatlari ekspertizasiga aloqadordir. Sug'urtalanganlar spikeri va uning organi sug'urta tashkilotlari va nodavlat pensiya fondlari tomonidan moliyalashtiriladi. Badal miqdori sug'urta

kompaniyalari uchun ular to'plagan brutto-mukofotlarning 0,01 % miqdorida va nodavlat pensiya fondlari uchun a'zolar tomonidan ularga to'langan badallarning 0,01 % miqdorini tashkil etadi³⁸.

Sug'urtalanganlar spikerining ta'lim masalasidagi faoliyati sug'urta ta'limi fondi vositasida amalga oshiriladi. Bu ixtiyoriy tuzilma bo'lib, aholi o'rtasida sug'urta to'g'isidagi tushunchalarni kengaytirish hamda sug'urta madaniyatini oshirish maqsadida spiker tomonidan asos solingan. Ushbu fond 1998 yilda tashkil etilgan bo'lib, bir nechta doimiy loyihalari amal qiladi. Bunday loyihalar sifatida har yili o'tkaziladigan sug'urta sohasidagi dissertatsiyalar, magistrlik va bakalavrlik ishlari bo'yicha konkurslar bo'lib, ushbu konkursning natijalari "Sug'urta gazetasi"da e'lon qilib boriladi³⁹.

Polsha sug'urta bozorining yana bir muhim infratuzilma elementi sug'urta kafolat fondi hisoblanadi. Fond "Majburiy sug'urta, Sug'urta kafolat fondi va Polsha transport sug'urtalovchilari byurosi" Qonuni asosida faoliyat ko'rsatadi. Ushbu fond ikkita asosiy funksiyani va qo'shimcha ravishda yana bir qancha vazifalarni bajaradi. Fondning birinchi darajadagi asosiy vazifasi transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasi shartnomalari va fermerlarning javobgarligi majburiy sug'urtasi bo'yicha Polsha hududida yuz bergan hodisalar bo'yicha yetkazilgan zararlarni qoplab berishdan iborat. Fondning ikkinchi asosiy vazifasi sug'urta kompaniyalarining bankrot holatiga tushganda ko'rgan zaralarini qoplab berishdan iborat.

Sug'urta kafolat fondining qo'shimcha vazifalari bo'lib, transformatsiya holatiga tushgan boshqa sug'urta kompaniyalarining transport vositalari egalarining majburiy fuqarolik javobgarligi shartnomalari va fermerlarning javobgarligi majburiy sug'urtasi bo'yicha shakllangan sug'urta portfellarini qabul qilgan sug'urta kompaniyalariga qaytarish sharti bilan moliyaviy yordam ko'rsatadi. Bundan

³⁸ Bilyk I.V. Osoblyvosti struktury ta infrastruktury strahovyh rynkiv Ukrainy ta Pol'shi. Teorija i praktyka finansiv: zarubizhnyj dosvid [Features of the structure and infrastructure of the insurance market in Ukraine and Poland. Theory and Practice of Finance: Foreign Experience] Svit finansiv [The world of finance], no. 1 (March 2008): 168

³⁹ O'sha manba

tashqari, mazkur fond transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasi bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalari reestrini yuritadi. Ushbu ikkita majburiy sug'urta turi bo'yicha sug'urta shartnomasi tuzgan sug'urta kompaniyasi avtomatik ravishda fondning a'zosiga aylanadi. Hayot sug'urtasiga ixtisoslashgan kompaniyalar faqat bankrot holatiga tushganda va belgilangan badalni to'laganda fondning ishtirokchisiga aylanadi.

Polsha sug'urta bozorining ilg'or tajribasi sifatida va O'zbekiston sug'urta bozoriga joriy etish mumkin bo'lgan holatlar sifatida mazkur bozorda amal qiluvchi sug'urtalanganlar spikeri, sug'urta kafolat fondi va sug'urta ta'limi jamg'armasini keltirib o'tish mumkin. Ushbu ishtirokchilar ichida sug'urtalanganlar spikeri va sug'urta kafolat fondi alohida sug'urta qonunchiligi bilan mustahkamlab qo'yilganligi mazkur ishtirokchilarning faoliyat yo'nalishlarining aniq belgilab qo'yilganligi va bu faoliyat samaradorligini ta'minlayotganligini ta'kidlash mumkin. Albatta e'tirof etish kerak, mamlakatimizda ham transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasi bo'yicha kafolat fondi amal qilmoqda, ammo Polshadagi bunday fondning faoliyat maydoni yanada keng, chunki ushbu fond fermerlar sug'urtasini ham kafolatlaydi. Mamlakatimizda esa fermerlar sug'urtasi bo'yicha kafolat fondi mavjud emasligi ham qishloq xo'jaligi sug'urtasining orqada qolayotganligiga sabab bo'layotgan holatlardan biri hisoblanadi. Polsha sug'urta bozorida amal qilayotgan sug'urta ta'limi jamg'armasi mamlakatimizdagi hozirgi mavjud holatni hisobga olganda, muhimlik darajasi yuqori yo'nalishdir.

I-BOB BO'YICHA QISQACHA XULOSA

1-bobda sug'urta bozorining vujudga kelish shart-sharoitlarini asoslash va nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirildi. Bunda sug'urta bozorini barpo etishning ob'ektiv zarurligi va nazariy asoslari, sug'urta bozorining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni hamda O'zbekiston milliy sug'urta bozorining samarali faoliyatini ta'minlashda rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan

foydalanish bilan bog'liq masalalar tahlil qilindi va taklif hamda xulosalar shakllantirildi. Ilmiy natijalar rivojlangan mamlakatlar hamda mamlakatimizning sug'urta sohasida tadqiqotlar olib borgan olimlarning sug'urta sohasidagi nazariy qarashlari va yondashuvlarini o'rgangan va tahlil qilgan holda amalga oshirildi.

Sug'urtaning mohiyatiga nisbatan dunyo olimlari va mahalliy olimlarning nazariy qarashlarini tahlil qilgan holda, muallif tomonidan sug'urta ko'p qirrali ekanligini va shu munosabat bilan uni bir ta'rif bilan to'liq ifodalab bo'lmasligini e'tirof etiladi. Turli olimlar tomonidan sug'urtaning xususiyatlarini ochib berishda sug'urtani faqat noxush holatlar bilan bog'liq zararlarni bartaraf etish bilan bog'liq xususiyatlarini e'tirof etganligi, vaholanki, sug'urta inson hayotidagi nafaqat ko'ngilsiz hodisalar, balki, xush hodisalar bilan ham bog'liq ekanligini, bunday hodisalar sifatida farzand tug'ilishi, nikohga kirishish, balog'at yoshiga yetish, oliy o'quv yurtiga kirish kabi xush hodisalar ham sug'urtaviy hodisa sifatida qabul qilinishini ko'rsatib beradi.

Muallif tomonidan sug'urtaning yana bir muhim jihati e'tirof etiladiki, sug'urtaning ushbu xususiyati keyingi vaqtlarda ko'pgina mamlakatlar sug'urta tashkilotlari tomonidan, shu jumladan O'zbekiston sug'urtachilari e'tiboridan chetda qolayotgan xususiyat sifatida ogohlantirish va oldini olish funksiyasiga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuni qayd etish kerak, sug'urta sohasi o'z mohiyatiga ko'ra, yuzaga kelgan zararlarning o'rnini qoplash va jamg'armalar shakllantirishni rag'batlantirishi tufayli har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ushbu bobda muallif tomonidan sug'urta bozorining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni tadqiq etilgan bo'lib, uning xulosasiga ko'ra, sug'urta sohasi o'z mohiyatiga ko'ra, iqtisodiyotda va ijtimoliy hayotda yuzaga kelgan zararlarning o'rnini qoplash, jamg'armalar shakllantirish va ularni iqtisodiyot sohaslariga investitsiya qilish orqali iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash bilan har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu xulosaning asosi sifatida ushbu bobda sug'urta kompaniyalarining so'nggi besh yillikdagi investitsiya faoliyati tahlil qilingan bo'lib, investitsion faoliyat yillar davomida faqat kengayish

tendensiyasiga egaligi va bu kengayish yuqori darajada ekanligini ta'kidlagan holda, sug'urta kompaniyalari va banklar o'rtasidagi hamkorlikni yangi pog'onaga ko'tarish zarurligi va buning uchun banksug'urta konsepsiyasini to'liq yo'lga qo'yish kerakligi to'g'risida asosli fikrlar berilgan.

Ushbu bobda mamlakatda kishi boshiga to'g'ri keladigan YaIM hajmi va hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta tarmog'ida to'plangan sug'urta mukofotlarining mamlakat YaIMdagi hissasi o'rtasida yuqori korrelyatsion bog'liqlik mavjud ekanligi to'g'risida xulosa shakllantirilgan bo'lib, bunday bog'liqlikning birinchi sababi sifatida iqtisodiyotdagi kapital aktivlar hajmi ko'rsatiladi, ya'ni iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan jami mahsulot, ish va xizmatlar hajmi mehnat xarajatlari va ishlatilgan ishlab chiqarish kapitali hajmiga bog'liq. Bunda, bir ishchi-xodimga to'g'ri keladigan kapital hajmi va ishlab chiqarilgan bir birlik mahsulotga ketgan kapital qiymati qanchalik oshib borsa, YaIMning mehnat xarajatlariga nisbati ham ortib boradi. Shuni ham ta'kidlash kerak, sug'urta mukofotining miqdori kapital miqdoriga to'g'ri proporsionaldir. Bundan kelib chiqadiki, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'ratkichi va hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta tarmog'ida to'plangan sug'urta mukofotining YaIMdagi ulushi ko'rsatkichi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik bo'lishi kerak.

Mamlakatning farovonlik darajasi (kishi boshiga to'g'ri keladigan YaIM) va hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta tarmog'ida to'plangan sug'urta mukofotlarining mamlakat YaIMdagi hissasi o'rtasida yuqori korrelyatsion bog'liqlik mavjud bo'lishining ikkinchi sababi, uy-joy, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar (birinchi navbatda avtomobillar), shuningdek, nodavlat tibbiy xizmatlar va turistik sayohatlarga bo'lgan talab darajasi bilan bog'liq. Aholining daromadlari ortib borishi bilan ushbu sohalardagi xarajatlar ulushi jadal sur'atlar bilan oshib bormoqda, bu esa sug'urta mukofotlarining oshishiga, o'z o'rnida sug'urta mukofotlarining YaIMdagi hissasining oshishiga olib kelmoqda.

Korrelyatsiyaning uchinchi sababi sifatida, himoyaning boshqa muqobil turlariga nisbatan sug'urtaning yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatish mumkin.

Ma'lumki, sug'urta sohasi har doim ma'lumotlar tahliliga asoslangan. Baxtsiz hodisalar statistikasi va sug'urtalangan shaxsning shaxsiy ma'lumotlari odamlarni turli xavf toifalariga guruhlash va foyda hamda xarajatlarini optimallashtirishga yordam beradi. Shundan kelib chiqqan holda mazkur bobda katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash borasida big data texnologiyalaridan foydalanishning hozirgi zamon sug'urta bozori uchun qay darajada muhimligi va samaradorligi masalalari, ushbu texnologiyadan foydalanish borasida chet mamlakatlar tajribalarini qo'llash masalalari ushbu bobda atroflicha o'rganilgan va tadqiq qilingan.

Umuman olganda ushbu bobda muallif tomonidan amalga oshirish ko'zda tutilgan masalalar yetarli darajada ko'rib chiqilgan va muallif o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishgan.

II-BOB. O‘ZBEKISTON MILLIY SUG‘URTA BOZORINING HOZIRGI HOLATINI TAHLILI

2.1. O‘zbekiston sug‘urta bozorining rivojlanish xususiyatlari va hozirgi holatining tahlili

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin davlat alohida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan davlat mulkiga asoslangan va davlat mulki ishtirokidagi tijorat sug‘urta tashkilotlarini tashkil etish borasida tashabbuskorlikni o‘z qo‘liga oldi va shu bilan birga xususiy sug‘urta tashkilotlarining shakllanishiga keng yo‘l ochib berdi. Shu maqsadda mamlakat tarixida birinchi marta 1993 yilda “Sug‘urta to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. Ushbu qonun asosida 1994 yilda Prezident farmoni asosida milliy sug‘urta kompaniyasi sifatida tashkil etilgan va 1997 yilda “O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi etib qayta tashkil etilgan davlat mulkiga asoslangan sug‘urta kompaniyasining tashkil etilishi, 1995 yilda tadbirkorlik tavakkalchiliklarini sug‘urtalashga ixtisoslashgan “Madad” sug‘urta agentligi, 1997 yilda GOSSTRAX tashkilotining negizida tashkil etilgan “O‘zagrosug‘urta” va “Kafolat” davlat aksionerlik sug‘urta kompaniyalarining tashkil etilishi va boshqa bir qancha xususiy mulk shaklidagi sug‘urta kompaniyalari faoliyatining boshlanishi mamlakatda sug‘urta bozorining shakllanishi va o‘zaro raqobatning yuzaga kelishiga sharoit yaratdi. 2002 yilga kelib amaldagi “Sug‘urta to‘g‘risida” gi qonunni qayta ko‘rib chiqish zarurati paydo bo‘ldi va o‘sha yilning 5 aprelida “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida” deb nomlangan yangi qonun qabul qilindi. Shu bilan birga, ushbu sohani yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari qabul qilindi, sug‘urtalovchi va sug‘urtalanuvchilar uchun turli soliq imtiyozlari taqdim etildi. Natijada mamlakatimizda sug‘urta sohasi yangi soha bo‘lishi bilan birga, nisbatan tez rivojlanayotgan sohalardan biriga aylandi. Bugungi kunda hayot sug‘urtasi va umumiy sug‘urta tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta tashkilotlari soni 42 tani tashkil etib, 2021 yil natijalari bo‘yicha ular tomonidan to‘plangan sug‘urta

mukofotlari hajmi 3 trln. 733 mlrd. soʻmdan ortiqni va ular tomonidan iqtisodiyotga yoʻnaltirilgan investitsiyalar hajmi 3 trln. 747 mlrd. soʻmdan ortib ketdi.

Soliq sohasida taqdim etilgan imtiyozlar va sugʻurta tashkilotlarining saʼy-harakatlari evaziga hayot sugʻurtasi xizmatlari mamlakatimizda soʻnggi besh yil ichida sezilarli darajada kengaydi. Ushbu tarmoqda faoliyat koʻrsatayotgan sugʻurta tashkilotlari soni ikkitadan sakkiztaga yetdi. Hozirda aholining koʻpgina qatlamlari oʻz hayoti va sogʻligʻini sugʻurtalash bilan bir vaqtning oʻzida oʻz mablagʻlarini toʻplash va koʻpaytirishda mazkur sugʻurta kompaniyalari xizmatlaridan foydalanishga qiziqishlari ortib bormoqda.

Albatta milliy iqtisodiyotning modernizatsiya qilinishi va erkinlashuvi ushbu iqtisodiyotning ajralmas qismi boʻlgan sugʻurta bozorining ham kengayishiga, yangi sugʻurta mahsulotlarining paydo boʻlishi hamda mijozlar bazasining kengayishiga olib kelmoqda. Masalan, iqtisodiyotga investitsiya resurslarining yanada koʻproq jalb qilinishi va tashqi savdo faoliyatining erkinlashuvi moliyaviy risklar sugʻurtasini hamda qayta sugʻurtani rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Sanoatning, xizmatlar sohasining, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tez rivojlanayotganligi fuqarolik va professional javobgarlik sugʻurtasi tizimining rivojlanishini, qishloq xoʻjaligini modernizatsiya qilish va uni intensiv rivojlantirish ushbu sohadagi yangi sugʻurta shakl va turlarining paydo boʻlishini talab etmoqda.

Ammo shunday boʻlsada, sugʻurta sohasi mamlakatimizda bugungi kun talablari darajasida rivojlanmayotganligi koʻzga tashlanmoqda. Potensial sugʻurtalanuvchilar va sugʻurtalanmay qolayotgan koʻp sondagi risklar soni yuqoriligicha qolmoqda. Ushbu fikrni quyida keltirilgan jadvallar orqali asoslaymiz (2.1, 2.2, 2.3-jadvallar).

Sugʻurta sohasining mamlakatda rivojlanganlik darajasini koʻrsatuvchi asosiy koʻrsatkich - yalpi ichki mahsulotda sugʻurta mukofotlarining hissasi koʻrsatkichi boʻlib, mazkur koʻrsatkich boʻyicha mamlakatimizda 15-17 yildan beri sezilarli oʻzgarish yuz bermadi. Ammo bu sugʻurta bozorida oʻsish yuz bermagan degan xulosa qilishga asos boʻlmaydi, chunki 1-jadval maʼlumotlariga koʻra ushbu koʻrsatkich 2013-yildagi 0,28 %dan 2022 yilda 0,70 %ga oshgan, albatta bu yuqori

o'sish emas, ammo mamlakatimiz YaIM ko'rsatkichi yuqori darajada o'sib borayotganligini e'tiborga olganda, o'sish nisbatan yuqoriroq ekanligini ta'kidlash mumkin. Ammo ushbu ko'rsatkichni sug'urta bozori rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslanganda katta farq mavjudligi yuqoridagi fikrning to'g'riligini tasdiqlaydi. YaIMda sug'urta mukofotlarining ulushi ko'rsatkichi rivojlangan mamlakatlarda o'rtacha 8-12 foizni tashkil etmoqda⁴⁰, aniqrog'i, Yevropa ittifoqi mamlakatlarida o'rtacha 8%, Lotin Amerikasi mamlakatlari, Sharqiy Yevropa va Afrikada – 2, 3, 5 % ni tashkil etadi⁴¹. 2023 yil natijalari bo'yicha mamlakatimizda ushbu ko'rsatkich 0,80 foizni tashkil etib, 2022 yilga nisbatan 0,10 foizga o'sish yuz berdi (2.1-jadval).

Sug'urta mukofotlari hajmi bitta 2020 yilni hisobga olmaganda (pandemiya tufayli ushbu yilda pasayish yuz berdi) doimiy o'sish ko'rsatkichiga ega bo'lib, 2014 yilga nisbatan 2023 yildagi o'sish 18 baravardan ziyodni tashkil etdi. 2014 yildan 2023 yil oralig'ida YaIM 7,3 baravar oshgan bo'lib, ushbu davrda sug'urta mukofotlarining o'sishi 18 baravardan ziyodni tashkil etganligini ham qayd etish mumkin. Pandemiya davri sifatida 2020 yilda yalpi sug'urta mukofotlarining o'sishi 95,5 %ni tashkil etib, mazkur yildagi YaIMning nominal o'sishi 113,4 %ni tashkil etdi. Bu shundan dalolat beradiki, sug'urta kompaniyalarimizda raqamli texnologiyalar va onlayn sotuv xizmatlari ko'rsatish borasida yetarli tajriba mavjud emas. Qo'shni Qozog'iston bozorining ushbu davrdagi ko'rsatkichlariga e'tibor qilganimizda o'sish davom etganligining guvohi bo'ldik.

⁴⁰ Zelenchuk V.A. Sovershenstvovanie vzaimnogo straxovaniya ot neschastnogo sluchaya v predprinimatel'skoy deyatelnosti. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie KEN, Moskva 2013

⁴¹ https://www.mf.uz/uz/?option-com_content&view=article&id=354

O‘zbekiston sug‘urta bozorida to‘planayotgan sug‘urta mukofotlari va uning YaIMdagi hissasi⁴²

Yillar	YaIM (mlrd.so‘m)	Sug‘urta mukofotlari (mlrd.so‘m)	YaIMda sug‘urta mukofotlari ulushi, % da	O‘shish yoki kamayish, % da
2014	145846,4	439,1	0,30	+0,02
2015	171808,3	551,5	0,32	+0,02
2016	199325,1	692,6	0,35	+0,03
2017	249100,1	927,5	0,37	+0,02
2018	407500,0	1635,2	0,40	+0,03
2019	511800,0	2314,1	0,45	+0,05
2020	580200,0	2213,7	0,38	-0,07
2021	734600,0	3733,0	0,50	+0,12
2022	888340,0	6231,7	0,70	+0,20
2023	1квaдpил. 066,5 тpлн.сўм	8059,7	0,80	+0,10
O‘n yil ichidagi o‘shish, (marta)	7,3	18,4	2,7	

S&P Global Ratings reyting agentligining fikriga ko‘ra, sug‘urta mukofotlari hajmining pasayishiga sabab bo‘lgan asosiy omil pandemiyadir⁴³. Ta’kidlash kerak, 2009 yilda sug‘urta mukofotlari tushumidagi 66 %lik yuqori o‘shish majburiy sug‘urta turlari hisoblangan TVEFJMS va IBFJMS hisobiga yuz bergan bo‘lsa, 2018 yildagi 176,3%lik o‘shish Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoev boshchiligida amalga oshirilgan keskin ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar hisobiga yuz berdi. Ushbu davrda mamlakatda valyuta siyosatining erkinlashtirilishi, kreditlash hajmining keskin oshishi, uy-joylar qurilishi va infratuzilmalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining ortishi sug‘urtaga bo‘lgan ehtiyojni oshirdi, yangi sug‘urta turlarining paydo bo‘lishiga olib keldi. 2021 yilda ham o‘shish sezilarli darajada bo‘lib, 2020 yilga nisbatan 168,8 %ni tashkil etdi. Ushbu yilda YaIMga nisbatan sug‘urta

⁴² <http://www.mf.uz> hamda stat.uz saytlari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

⁴³ Otsenka otraslevix i straxonix riskov straxovogo sektora: Sektor obshego straxovaniya Respubliki Uzbekistan. <https://www.uzdaiy.uz/ru/post/57022>

mukofotlarining hissasi ko'rsatkichida ham sezilarli o'sish yuz berib, bu 2020 yilga nisbatan 0,12 foizni tashkil edi. Ammo dunyoning rivojlangan va ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlari va hatto ba'zi qo'shni mamlakatlar bilan taqqoslanganda ham, ushbu ko'rsatkich pastligicha qolmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarga xos xususiyat sifatida, to'planayotgan sug'urta mukofotlariga nisbatan to'lab berilayotgan sug'urta qoplamalari hajmi past darajaga ega ekanligini 2.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin. Ushbu ko'rsatkich hayot sug'urtasi tarmog'i bilan qo'shgan holda hisoblanganda 2022 yilda 41,70 %ni tashkil etib, 2014 yilga nisbatan o'sish 24,71 % ni tashkil etgan. 2023 yilda ushbu ko'rsatkich yanada pasayib, 25,10 % ni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich turli sug'urta kompaniyalarida turlicha bo'lib, ba'zilarida 50-60 % ni tashkil etgan holda boshqalarida 2 % ga ham yetmaydi.

2.2-jadval

O'zbekiston sug'urta bozorida to'lab berilayotgan sug'urta qoplamalari va ularning sug'urta mukofotlariga nisbati⁴⁴

Yillar	Sug'urta mukofoti, mlrd.so'm	To'langan sug'urta qoplamasi, mlrd.so'm	Sug'urta mukofotlariga nisbatan sug'urta qoplamalarining ulushi, % da	Oldingi yilga nisbatan o'sish yoki kamayish, % da
2014	439,1	74,6	16,99	-2,77
2015	515,7	99,8	19,35	+2,36
2016	692,6	130,5	18,84	-0,51
2017	927,5	270,0	29,11	+10,27
2018	1635,2	461,4	28,22	-0,89
2019	2314,1	813,5	35,15	+6,93
2020	2213,7	732,3	33,11	-2,04
2021	3733,0	1235,0	33,08	-0,03
2022	6231,7	2596,9	41,70	+7,9
2023	8059,7	2022,1	25,10	-16,6

To'plangan sug'urta mukofotlariga nisbatan to'lab berilgan sug'urta qoplamalari hajmi ko'rsatkichini umumiy sug'urta tarmog'i bo'yicha alohida hisoblash holatni aniqroq tavsiflaydi. Chunki hayot sug'urtasi mahsulotlari asosan

⁴⁴ <http://www.mf.uz> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

jamg'arib boriladigan sug'urta turlaridan iborat bo'lib, sug'urta hodisasi yuz berish yoki yuz bermasligidan qat'iy nazar, shartnoma muddati tugagandan keyin to'plangan mablag' sug'urtalanuvchiga bonuslari qo'shilgan holda qaytariladi. Shuni hisobga olgan holda biz umumiy sug'urta bo'yicha sug'urta to'lovlarini aks ettiruvchi 2.3-jadval ishlab chiqildi.

2.3-jadval

O'zbekiston sug'urta bozorida umumiy sug'urta tarmog'ida to'lab berilayotgan sug'urta qoplamalari va ularning sug'urta mukofotlariga nisbati⁴⁵

№	Yillar, Ko'rsatkichlar	2022	2023	Sug'urta mukofotlariga nisbatan sug'urta qoplamalarining ulushi, % da		Oldingi yilga nisbatan o'sish yoki kamayish, % da
				2022	2023	
1.	Sug'urta mukofoti, (mlrd.so'm) shu jumladan:	4707,1	7810,9	-	-	165,9
	Majburiy sug'urta	491,3	668,1	-	-	136,0
	Ixtiyoriy sug'urta	4215,8	7142,8	-	-	169,3
2.	To'langan sug'urta qoplamasi, (mlrd.so'm) shu jumladan:	1098,8	1594,2	23,3	20,4	-2,9
	Majburiy sug'urta	232,8	249,4	47,4	37,3	-10,1
	Ixtiyoriy sug'urta	866,7	1344,8	20,6	18,8	1,8
3.	Olingan sug'urta javobgarliklari, (trln.so'm) shu jumladan:	2101,7	2341,6	-	-	111,4
	Majburiy sug'urta	382,8	514,0	-	-	134,3
	Ixtiyoriy sug'urta	1718,9	1827,2	-	-	106,3

Ushbu jadvalni tahlil qilinganda, so'nggi ikki yil davomida to'plangan sug'urta mukofotlariga nisbatan to'lab berilgan qoplamalar hajmi 2022 yilda 23,3

⁴⁵ <http://www.mf.uz> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

foizni va 2023 yilda 20,4 foizni tashkil etganligi ma'lum bo'ldi. 2023 yilda 2022 yilga nisbatan o'sish yuz bergan bo'lsada, umuman olganda sezilarli darajada past ko'rsatkich. Bunday ko'rsatkich bilan sug'urta bozorining imijini ko'tarib bo'lmaydi. Bunday ko'rsatkich aholi va korxonalarda sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchsizlikni yanada oshiradi.

Xo'sh, bunday holatning yuzaga kelishiga qanday omillar sabab bo'lmoqda? Bizning nazarimizda buning bir qancha sabablari bor, bular:

- O'zbekiston sug'urta bozori boshqa mamlakatlar sug'urta kompaniyalari uchun yopiq, bozorda faqat milliy sug'urta kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda, bu esa bozorning to'liq o'zlashtirilmay qolishiga va o'zaro raqobatning pastligiga sabab bo'lmoqda;

- sug'urta kompaniyalari strategik maqsadlarni o'z oldiga qo'ymayapti, faqat bugungi kun natijasini o'ylagan holda ish olib boryapti, shundan kelib chiqqan holda sug'urta shartnomalari ko'proq bir tomon - sug'urta kompaniyasi manfaatlarini ko'zlagan holda ishlab chiqilmoqda va sug'urta hodisasi bo'yicha to'lovlarni amalga oshirmaslikka bo'lgan qiziqish saqlanib qolmoqda;

- sug'urta kompaniyalari asosan korporativ mijozlar bilan ish olib borib, turli noxolis yo'llar bilan ularni doimiy mijozga aylantirib olmoqda va ushbu shartnomalarni tuzishda korporativ mijozning asosiy maqsadi sug'urta hodisasi yuz berganda ko'rilgan zararni qoplab olishga qaratilmagan;

- tuzilayotgan sug'urta shartnomalari tarkibida bank talabi bilan ixtiyoriy-majburiy tarzda tuzilayotgan sug'urta shartnomalari katta hajmni tashkil etib, bu shartnomalar bo'yicha birinchi asosiy manfaatdor bank bo'lib, sug'urtalanuvchining asosiy maqsadi esa bank xizmatidan foydalanishdan iborat;

- sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta hodisalari yuz berganda ko'rilgan zararni to'lamaslikka qaratilgan harakatlarning mavjudligi va jami bozorda to'lab berilayotgan sug'urta qoplamalarining kam miqdorda ekanligi aholida sug'urta sohasiga bo'lgan ishonchni pasaytirmoqda;

- sug'urta kompaniyalari fuqarolar bilan ishlash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ymayapti, chunki ular uchun hozirgi sharoitda korporativ mijozlar yetarli,

bozor to'liq o'zlashtirilmagan, zararlilik darajasining pastligi kam sonli mijozlar bilan chegaralanish imkonini bermoqda;

- potensial sug'urtalanuvchi va sug'urtalanuvchilarda sug'urta madaniyati va sug'urta sohasidagi huquqiy bilimlar past darajada;

- o'zaro sug'urtaning huquqiy asoslari mukammal yaratilmaganligi va bu boradagi tushunchalarning yetarli emasligi tufayli sug'urtaning alohida shakli hisoblangan o'zaro sug'urta yetarli darajada shakllanmagan.

2.4-jadval

O'zbekistonda to'planayotgan sug'urta mukofotlarining aholi soniga nisbati ko'rsatkichlari⁴⁶

Yillar	Aholi soni (mln. kishi)	Sug'urta mukofotlari (mlrd. so'm)	Bir kishiga to'g'ri keladigan sug'urta mukofoti (so'm)	O'sish yoki kamayish (so'm)
2014	30492,8	439,1	14400	+3114
2015	31022,5	515,7	16623	+2223
2016	31575,3	692,6	21935	+5312
2017	32120,5	927,5	28876	+6941
2018	33254,1	1635,2	49173	+20297
2019	33905,8	2314,1	68251	+19078
2020	34558,9	2211,7	63998	-4253
2021	35271,3	3733,0	105837	+41839
2022	35421,5	6231,7	175930	+70093
2023	36799,8	8059,7	219014	+43084

Sug'urtaning aholi orasiga kirib borganlik darajasini kishi boshiga to'g'ri kelayotgan sug'urta mukofoti qiymati bilan aniqlash mumkin. Ushbu ko'rsatkich rivojlanayotgan mamlakatlarda o'rtacha 150 AQSh dollarini tashkil etib, uning 54 %i hayot sug'urtasi mukofoti, 46 %i hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta turlari hissasiga to'g'ri keladi. Yevropa ittifoqi davlatlarida ushbu ko'rsatkich o'rtacha 3 ming AQSh dollarini, Lotin Amerikasi mamlakatlarida 200 AQSh dollari, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida 600 AQSh dollarini tashkil etadi. AQSh va Kanadada esa ushbu ko'rsatkich 4 ming AQSh dollaridan ortiqni tashkil etadi. Mamlakatimizda 2023 yil natijalari bo'yicha ushbu ko'rsatkich 219,0 ming so'mni (o'rtacha 18

⁴⁶<http://www.mf.uz> hamda stat.uz saytlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

AQSH dollari) tashkil etdi (2.4-jadvalga qarang).

O‘zbekiston milliy sug‘urta bozorining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, bozor xizmatlarining hududlar bo‘yicha bir tekis taqsimlanmaganligida. Sug‘urta kompaniyalarining barchasi Toshkent shahrida tashkil etilgan bo‘lib, bu esa ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlarining asosiy qismi Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri kelishiga sharoit yaratib bermoqda (2.5-jadval). Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri kelayotgan sug‘urta mukofotlari hajmi tahlil uchun olingan yetti yillik davrda kamayish tendensiyasiga ega bo‘lmagan va 2023 yilda sezilarli o‘sish yuz berib, ushbu hajm 73 foizni tashkil etgan. Ushbu holat viloyatlarda sug‘urta xizmatlarining talab darajasida emasligidan dalolat beradi. Bizning nazarimizda bunday holatning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- viloyatlarda malakali kadrlarning yetishmasligi;
- sug‘urta ishining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- sug‘urta hodisalari bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish borasidagi mustaqillikning to‘liq emasligi natijasida to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish jarayonlarining tezkor emasligi;
- reklama va marketing tadbirlarining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- sug‘urta infratuzilmasining rivojlanmaganligi;
- aholi bilan ishlash tizimining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, har bir hudud uchun mos sug‘urta mahsulotlarining ishlab chiqilmaganligi;
- chekka hududlarga sug‘urta xizmatlarining yetib bormaganligi va mazkur hududlarda yashovchi kam daromadli aholi qatlamlari uchun mos sug‘urta mahsulotlarining ishlab chiqilmaganligi. Bu borada sug‘urtaning ijtimoiy himoya vositasi ekanligidan kelib chiqqan holda, davlat bilan hamkorlikda turli sug‘urta dasturlari ishlab chiqish va ushbu dasturlarda aholi qatlamlarini yoppasiga sug‘urtaga jalb qilish maqsadida kam ta‘minlangan aholi qatlamlari uchun sug‘urta mukofotlarining bir qismini yoki hammasini davlat mablag‘lari hisobidan to‘lab berishni yo‘lga qo‘yish yaxshi samara beradi;
- yuqoridagi holatlar natijasida aholida sug‘urta xizmatlariga nisbatan ishonchning pastligi va shu kabilar.

Yalpi sugʻurta mukofotlarining sugʻurta kompaniyalari oʻrtasidagi taqsimoti umumiy sugʻurta tarmogʻi kompaniyalari oʻrtasida monopollashganlik darajasining pastligi bilan tavsiflanadi. Buni Xerfindal-Xirshman indeksi ham koʻrsatib turibdi. Unga koʻra ushbu koʻrsatkich 2020 yilda 5,8 %ni tashkil etdi.

2.5-jadval

Sugʻurta mukofotlarining respublika hududlari boʻyicha taqsimlanishi⁴⁷(%)

Hududlar	Yillar							
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	+/- %
Toshkent shahri	55,6	52,0	52,1	52,2	60,9	68,1	73,0	+6,1
Toshkent viloyati	7,5	7,0	8,1	8,2	6,4	3,2	2,4	-0,8
Fargʻona viloyati	5,4	5,5	5,2	5,1	4,3	3,2	3,1	-0,9
Samarqand vil.	4,2	4,3	4,1	3,9	3,0	2,3	2,3	-1,1
Andijon viloyati	4,3	4,5	4,2	3,6	2,6	2,7	2,0	-1,6
Qashqadaryo vil.	3,8	3,4	3,0	3,2	3,2	2,6	2,6	-0,8
Buxoro viloyati	3,5	4,0	4,0	3,9	3,0	2,7	2,6	-0,9
Namangan viloyati	3,1	3,7	3,8	4,5	3,6	2,7	2,1	+0,2
Xorazm viloyati	3,0	3,3	3,0	2,8	2,4	2,5	2,4	-0,4
Surxondaryo vil.	2,2	2,8	3,2	2,6	1,9	1,4	1,7	-0,7
Qoraqalpogʻiston res.	2,2	2,7	2,2	2,4	4,3	4,2	1,9	+2,0
Navoiy viloyati	2,2	3,1	3,1	3,2	2,7	2,2	1,6	+0,8
Jizzax viloyati	2,0	2,2	2,0	2,4	1,6	1,3	1,3	-0,4
Sirdaryo viloyati	1,1	1,5	2,0	2,1	1,5	0,9	0,9	-0,2
Jami:	100	100	100	100	100	100	100	

Bugungi kunda Oʻzbekiston sugʻurta bozorida jami 42 ta sugʻurta kompaniyasi faoliyat olib borayotgan boʻlib, olib borgan tahlillarimizga koʻra, ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga koʻrsatilayotgan sugʻurta xizmatlari hajmi ortgani sari, sugʻurtalanuvchilar tomonidan turli mazmundagi murojaatlarning soni oshishi kuzatilmoqda. Murojaatlar jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan toʻgʻridan-toʻgʻri hamda turli xildagi davlat tashkilotlari orqali kelib tushgan boʻlib, 2022 yilning I choragi davomida jami murojaatlar soni 393 tani tashkil etgan va bu koʻrsatkich oʻtgan yilga nisbatan 34 taga koʻp yoki 109 foizni tashkil etgan. Shulardan 379 tasi jismoniy shaxslardan, qolgan 14 tasi yuridik tashkilotlardan kelib

⁴⁷<http://www.mf.uz> sayti maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

tushgan. Murojaatlarning 377 tasi yoki umumiy miqdorning 96 foizi sug'urta masalalariga oid mavzuda bo'lib, 16 tasi yoki umumiy miqdorning 4 foizi boshqa masalalar bo'yicha kelib tushgan.

2.6-jadval

2022 yining 1-choragida fuqarolar murojaatlari eng ko'p kelib tushgan o'nta sug'urta kompaniyasi⁴⁸

№	Kompaniyalar nomi	Murojaatlar soni	Murojaatlar ulushi, %
1.	Kafolat sug'urta kompaniyasi AJ	89	22,5
2.	O'zagrosug'urta AJ	61	15,5
3.	O'zbekinvest AJ EISK	30	7,6
4.	Alfa invest	27	6,9
5.	Gross sug'urta	22	5,6
6.	Hamkor sug'urta	21	5,3
7.	Apex Insurance	18	4,6
8.	My-Insurance	14	3,6
9.	Xalq sug'urta	12	3,1
10.	Kapital sug'urta	10	2,5
	Jami	304	

2.6-jadvalda 2022 yilning 1-choragida fuqarolar murojaatlari eng ko'p kelib tushgan o'nta sug'urta kompaniyasi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, unga ko'ra eng ko'p murojaat Kafolat sug'urta kompaniyasi hissasiga va eng yirik sug'urta kompaniyalari hisoblangan O'zagrosug'urta hamda O'zbekinvest kompaniyalari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tuzilayotgan sug'urta shartnomalari soni va o'z o'rnida kelib tushayotgan sug'urta mukofotlari hajmi ortib borishi murojaatlar

⁴⁸ IMDA.UZ sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

sonining ortib borishiga sabab bo'luvchi asosiy omil hisoblanadi.

2.7-jadval

2022 yining 1-choragida fuqarolar murojaatlari eng ko'p kelib tushgan o'nta sug'urta kompaniyasining to'plagan sug'urta mukofotlari hajmi⁴⁹

№	Kompaniyalar nomi	2022 yil 1-choragida to'plagan sug'urta mukofoti	Murojaatlar ulushi, %
1.	Kafolat sug'urta kompaniyasi AJ	42006	22,5
2.	O'zagrosug'urta AJ	62325	15,5
3.	O'zbekinvest AJ EISK	95707	7,6
4.	Alfa invest	54606	6,9
5.	Gross sug'urta	38218	5,6
6.	Hamkor sug'urta	4824	5,3
7.	Apex Insurance	54810	4,6
8.	My-Insurance	59394	3,6
9.	Xalq sug'urta	13200	3,1
10.	Kapital sug'urta	33666	2,5
	Jami	304	

2.7-jadvalni tahlil qilganimizda ma'lum bo'ldiki, to'plagan sug'urta mukofotining hajmi bo'yicha Kafolat sug'urta kompaniyasi 6-chi o'rinda turgani holda, fuqarolar murojaatlari soni bo'yicha birinchi o'rinni egallagan. O'zbekinvest sug'urta kompaniyasi sug'urta mukofoti to'plash bo'yicha katta farq bilan birinchi o'rinda bo'lsada, fuqarolar murojaatlari soni nisbatan kam va uchinchi o'rinda turibdi. Hamkor sug'urta kompaniyasi sug'urta mukofoti to'plash bo'yicha eng oxirgi o'rinda bo'lgani holda, murojaatlar soni bo'yicha oltinchi o'ringa chiqib

⁴⁹ IMDA.UZ sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

olgan. Bu shundan dalolat beradiki, mazkur Kafolat va Hamkor sug'urta kompaniyalarida sug'urta ishi va da'volarni bartaraf etish masalasida mukammallik yetishmaydi. Shu kabi holatlar Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan doimiy ravishda tahlil qilib borilishi va sabablarini aniqlab, bartaraf etib borish choralari ko'rib borilsa sug'urtalanuvchilarning sug'urta xizmatlariga bo'lgan ishonchi ortib borishiga erishiladi.

Davlat ulushi mavjud bo'lgan kompaniyalar bozorda ko'p yillardan beri yetakchilik qilib kelmoqda, ammo ularning bozor kon'yunkturasiga ta'siri yildan-yilga kamayib bormoqda. Ushbu kompaniyalarning bozordagi ulushi 2016 yilda 46,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilda ushbu ko'rsatkich 26,7 foizni tashkil etdi.

Bozorda brokerlik faoliyati hamda turli servis xizmatlarini ko'rsatuvchi assistans, adjaster va syurveerlik xizmatlari yaxshi rivojlanmagan. Albatta, sug'urta bozori ma'lum rivojlanish darajasiga yetgandagina bunday sub'ektlarning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratiladi. Ikkinchi tomondan, ular faoliyatining tezroq shakllanishida sug'urta kompaniyalarining bu boradagi sa'y-harakatlari muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi ushbu qatlam vakillari orasida moliyaviy imkoniyati turli qo'shimcha xizmatlardan foydalanishga yetarli bo'lganlarning soni ko'payganligini ko'rsatmoqda. Sug'urta kompaniyalari bu kabi potensial sug'urtalanuvchilarga mos, turli servis xizmatlarini (assistans) o'z ichiga olgan sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqqan holda ularni taklif etish payti kelganligini e'tiborga olishlari zarur deb hisoblaymiz.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotida yetakchi va strategik tarmoq bo'lib, o'z o'rnida qishloq xo'jaligi barcha sohalar ichida xavf-xatar darajasi yuqori bo'lgan soha hisoblanadi. Shunday ekan, qishloq xo'jaligini sug'urta xizmatlari bilan qamrab olish va sifatli ta'minlash ushbu sohaning barqaror faoliyat ko'rsatishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuni hisobga olgan holda, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin sug'urta sohasida amalga oshirilgan islohotlardan biri sifatida 1997 yilda sobiq "Gosstrax" tashkilotining negizida qishloq xo'jaligini sug'urtalashga ixtisoslashgan "O'zagrosug'urta" davlat

aksionerlik sug'urta kompaniyasining tashkil etilishi bo'ldi. Hozirda ushbu kompaniya universal faoliyatni amalga oshirmoqda va qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha yagona hisoblanadi (2021 yildan boshlab ikkita sug'urta kompaniyasida ushbu sohani sug'urtalashga bo'lgan harakat boshlanganligini e'tiborga olmaganida), ya'ni qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha raqobat muhiti yaratilmagan, qishloq xo'jaligi risk darajasi yuqori soha bo'lganligi tufayli sug'urta kompaniyalarida ushbu sohani sug'urtalashga bo'lgan qiziqish yo'q. Natijada mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sug'urtasi sezilarli darajada orqada qolmoqda. Ushbu sug'urtani rivojlantirish va qishloq xo'jaligidagi mavjud risklarni imkon qadar ko'proq sug'urta xizmatlari bilan ta'minlashning birdan-bir yo'li, qishloq xo'jaligi korxonalari, dehqon xo'jaliklari va shaxsiy tomorqa xo'jaliklari egalarini o'zida birlashtiruvchi o'zaro sug'urta jamiyatlarini tashkil etishdir. Bunday jamiyatlar orqali qishloq xo'jaligini sug'urtalashning qay darajada samarali ekanligini Kanada, AQSh, Yevropa mamlakatlari va qo'shni Qozog'iston misolida ko'rish mumkin.

Sug'urta sohasi o'zining rivojlangan darajasida iqtisodiyotning bazaviy tizimlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bunday darajaga erishish uchun sug'urtani tashkil qilishning ikkita asosiy shakli amal qilishi zarur. Bular: tijoratga asoslangan sug'urta va o'zaro sug'urta shakllaridir.⁵⁰ Shu bilan birga, keyingi yillarda ko'pgina musulmon mamlakatlarida va shu bilan birga Amerika va Yevropa mamlakatlarida ham o'zaro sug'urtaning modifikatsiyalashgan shakli – takaful-sug'urta sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda yuridik va jismoniy shaxslarni sug'urta xizmatlaridan foydalanishga kengroq jalb qilish uchun o'zaro sug'urtani ommaviylashtirish zarur deb hisoblaymiz. Buning uchun uning mukammal huquqiy asosini yaratish, ya'ni o'zaro sug'urta faoliyati to'g'risida qonun qabul qilish zarur.

O'zbekiston milliy sug'urta bozorida, bizning fikrimizcha quyidagi holatlar bozorning bugungi kun talablari darajasida rivojlana olmayotganligiga sabab bo'lmoqda:

⁵⁰Logvinova I.L. Vzaimnoe straxovanie v Rossii: osobennosti evolyutsii. //Finansi i statistika, 2017. №2

- milliy sugʻurta bozorida talab va taklif oʻzaro mos kelmayapti;
- koʻpgina sugʻurta turlari boʻyicha narxlar yuqori boʻlib, shu bilan birga demping narxlar ham uchrab turibdi;
- toʻplanayotgan sugʻurta mukofotlariga nisbatan toʻlab berilayotgan sugʻurta qoplamalari hajmi sezilarli darajada past;
- sugʻurta kompaniyalarining tashkiliy xarajatlari yuqori;
- potensial sugʻurtalanuvchilarda sugʻurta kompaniyalariga boʻlgan ishonch yetarli darajada emas;
- qishloq aholisi va chekka hududlardagi korxonalar sugʻurta xizmatlaridan foydalanishga deyarli jalb etilmagan va bu borada harakatlar olib borilmayapti;
- chekka hududlar hamda kam taʼminlangan aholi qatlamlarini sugʻurtaga jalb qilish maqsadida mikrosugʻurta xizmatlari hamda davlat sherikchiligidagi sugʻurta dasturlari ishlab chiqilmagan;
- sugʻurta operatsiyalarining katta qismi banklar bilan hamkorlikda amalga oshayotganligini eʼtiborga olgan holda taʼkidlash mumkin, ushbu hamkorlikda sogʻlom raqobat muhiti shakllantirilmagan;
- banksugʻurta komsepsiyasi masalasida rasmiy kelishuvlar yoʻlga qoʻyilgan boʻlsada, amalda banklarning sugʻurta polislarini sotish boʻyicha rasmiy vositachilik faoliyati qisman amalga oshmoqda;
- sugʻurta sohasidagi professional xizmatlar talab darajasida rivojlanmagan;
- ishlab chiqilayotgan sugʻurta mahsulotlari va sugʻurta shartnomalarida tomonlar manfaatlari birday eʼtiborga olinmagan, yaʼni sugʻurta hodisasi yuz berganda qoplamani toʻlab bermaslik imkonini beruvchi holatlar koʻproq koʻzda tutilgan;
- sugʻurtaning muqobil shakli sifatida oʻzaro sugʻurtaning huquqiy asoslari toʻliq shakllantirilmagan (“Oʻzaro sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida” qonun qabul qilish masalasi amalga oshmayapti).

Butun Oʻzbekiston sugʻurta bozori boʻyicha koʻrsatilayotgan sugʻurta xizmatlarini turlari (sugʻurta klasslari) boʻyicha koʻrib chiqish va tahlil qilish

maqsadida IMDA.UZ sayti ma'lumotlari asosida jadval ishlab chiqdik (ilovaga qarang). Ushbu jadvalga ko'ra quyidagilar ma'lum bo'ldi.

Umumiy sug'urta tarmog'idagi mavjud 17 ta klassdan 15 tasi bo'yicha sug'urta shartnomalari tuzilgan, ya'ni xizmatlar ko'rsatilgan. 12-klass - Dengiz sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish va 17-klass - Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish bo'yicha birorta ham sug'urta shartnomasi tuzilmagan.

Majburiy sug'urta turlari ichida Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtasi (TVEFJMS) bo'yicha deyarli barcha transport vositalari egalarining javobgarligi sug'urtalangan degan xulosaga kelish mumkin. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligi (IBFJMS) va tashuvchining fuqarolik javobgarligi (TFJMS) sug'urta turlari bo'yicha sug'urtalanishi majburiy bo'lgan sub'ektlarning ko'pchiligi sug'urtalanmay qolayotganligini tuzilgan sug'urta shartnomalari sonidan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkin.

Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta (1-klass) dunyo miqyosida eng ommaviylashgan sug'urta turi hisoblanadi. 36 millionlik aholisi bor bo'lgan mamlakatda ushbu sug'urta turi bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalari soni 2 milliondan ortiqni tashkil etgan bo'lib, bu ushbu sug'urta turi bo'yicha jami aholining 5,5 foiziga to'g'ri keladi. Yer usti transport vositalari ixtiyoriy sug'urtasi bo'yicha sug'urtalangan transport vositalari jami transport vositalarining taxminan 10 foizini tashkil etmoqda.

Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish turi mamlakat ichkarisi va xalqaro darajada tashiladigan yuklarni sug'urtalashni ko'zda tutadi. Tashiladigan yuklar bilan bog'liq hodisalarning yuz berish ehtimolligi yuqori bo'lganligi bois ushbu sug'urta turi dunyo mamlakatlarida keng tarqalgan sug'urta turi hisoblanadi. Mamlakatimizda 2021 yil davomida ushbu sug'urta bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalari soni salkam 45 ming donani tashkil etgan. Bu xalqaro darajada tashilgan yuklar sonini ham to'liq qamrab olmaydi. Mamlakat ichkarisida tashiladigan yuklar esa deyarli sug'urtalanmaydi.

Millionlab aholi uylari, korxonalar va tashkilotlarning bino va inshootlari mavjud bo'lgan mamlakatda mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish bo'yicha bir yilda tuzilgan sug'urta shartnomalari soni 40 mingdan ortiqroqni tashkil etgan.

Hayot sug'urtasi tarmog'ida bugungi kunda sakkizta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Nikoh va tug'ilish sug'urtasi bo'yicha ular tomonidan 2020 yilda hammasi bo'lib 9 ta sug'urta shartnomasi tuzilgan bo'lsa, 2021 yilda birorta ham shartnoma tuzilmagan. Sog'liqni sug'urta qilish klassi bo'yicha sug'urta kompaniyalari tomonidan 2020 yilda 2 ta sug'urta shartnomasi tuzilgan bo'lib, 2021 yilda ularning soni biroz ko'payib 90 tani tashkil etgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda sug'urtalanishi mumkin bo'lgan risklarning katta qismi sug'urtalanmay qolmoqda. Buning sababi, bozorda raqobat yetarli darajada emas, sug'urta kompaniyalari aholi qatlamlari bilan ishlashni xoxlamaydi va bu bo'yicha yetarli tajribaga ega emas. Bozor chet mamlakatlarning sug'urta kompaniyalari uchun yopiq.

Bugungi kun holatidan kelib chiqqan holda, sug'urta bozorini rivojlantirish bo'yicha quyidagilarni amalga oshirishni taklif etamiz:

- 2021 yil natijalari bo'yicha, ko'rsatilgan sug'urta xizmatlari hajmida majburiy sug'urtaning hissasi 13 foizni tashkil etgan. Dunyodagi sug'urta sohasidagi ekspertlarning xulosalariga ko'ra, majburiy va ixtiyoriy sug'urtaning nisbati 30/70 bo'lishi optimal hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, ijtimoiy ahamiyati yuqori bo'lgan, ammo sug'urtalanmay qolayotgan risklarni majburiy sug'urta sifatida kiritish zarur. Bunday sug'urta ob'ektlari sifatida aholi va korxonalarining binolarini yong'in va boshqa hodisalardan majburiy sug'urtalashni keltirish mumkin;

- qishloq xo'jaligi risklarini o'zaro sug'urtalash jamiyatlarini tashkil etish orqali yo'lga qo'yish, buning uchun "O'zaro sug'urtalash faoliyati to'g'risida" qonun ishlab chiqish va o'zaro sug'urtalash jamiyatlari uchun turli imtiyozlar taqdim etish;

- sug'urta kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilayotgan sug'urta shartnomalari shartlari va qo'llanilayotgan tarif stavkalarini vakolatli davlat organi tomonidan nazoratga olish tizimini ishlab chiqish va yo'lga qo'yish.

Yuqorida keltirilgan masalalarning hal etilishi O'zbekiston sug'urta bozorining mamlakat iqtisodiyotida yetakchi o'ringa ega bo'lishiga, rivojlangan mamlakatlar sug'urta bozorlari darajasida xizmat ko'rsatish, xalqaro bozorlarda sug'urta xizmatlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishida asos bo'lib xizmat qiladi.

2.2. Sug'urta kompaniyasining samarali faoliyatini ta'minlashda uning moliyaviy barqarorligining o'rni

Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida sug'urta tizimi muhim ahamiyatga ega. Chunki innovatsiyalarni iqtisodiyotga joriy etish jarayoni yangicha o'ziga xos risklarning yuz berish ehtimoli bilan birga kechadi. Bunday risklar ko'p hollarda katta hajmdagi zararlarni o'z ichiga olib, ular yuz bergan holatda ushbu zararni qoplashni o'z zimmasiga olgan sug'urta kompaniyasi moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishi talab etiladi. Umuman, sug'urta kompaniyalarining samarali faoliyat yuritishida ularning moliyaviy jihatdan barqarorligini ta'minlash masalasi o'ta dolzarb hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik sug'urtalanuvchilarning sug'urtalovchilarga bo'lgan ishonchini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

«Moliyaviy barqarorlik» keng va ko'p qirrali tushuncha hisoblanganligi bois zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda uning iqtisodiy mohiyati, tavsiflovchi baholash ko'rsatkichlarini tizimga solish va talqin qilish turlicha bo'lib, yetarli darajada to'liq ochib berilmagan. Sug'urta kompaniyalari faoliyatida moliyaviy barqarorlikni baholash usullarining chegaralari va ularning butun tizimidan eng samarali foydalanish imkoniyatlari, shuningdek, atamashunoslik, ko'rsatkichlar algoritmi va ularni talqin etish, mulkchilik va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning mezonlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan,

«barqarorlik», «moliyaviy barqarorlik» va «sugʻurta kompaniyalari moliyaviy barqarorligi»ning mohiyatini tahlil qilish maqsadga muvofiq⁵¹.

Bozor munosabatlari sharoitida moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish va baholash muammosi muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday boʻlishiga qaramasdan, amalga oshirilgan tahlil natijalarining koʻrsatishicha, kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini tavsiflashga nisbatan hozirgi paytda turli yondashuvlar mavjud boʻlib, ularga koʻra moliyaviy barqarorlikni quyidagicha tavsiflash mumkin:

- moliyaviy holat;
- sarmoya tarkibi;
- ichki va tashqi risklardan himoyalash va shu kabilar⁵².

Moliyaviy holatni aniqlashda, birinchi oʻrinda, «moliyaviy» va «barqarorlik» tushunchalarining mazmuniga eʼtibor berish zarur. Bunda «moliyaviy» tushunchasini moliyaga oid, moliya jihatidan boʻlgan, pul mablagʻlari va ularni toʻplash, taqsimlash bilan bogʻliq boʻlgan tushuncha sifatida qarash kerak. «Barqarorlik» tushunchasi esa moliyaviy jihatdan mustahkamlik holati ekanligiga eʼtibor qaratish kerak. Moliyaviy barqarorlikni aniqlashga nisbatan ikkinchi yondashuv toʻlov qobiliyati, likvidlilik, kredit qobiliyati, rentabellik kabi moliyaviy holat koʻrsatkichlaridan foydalanishga asoslanadi. Bunday yondashuv chogʻida, ayrim iqtisodchilarning fikriga koʻra, moliyaviy barqarorlik taʼrifi toʻlov qobiliyati tushunchasiga yaqin hisoblanadi. Markaziy banklar va boshqa korxonalar uchun moliyaviy beqarorlik tushunchasi amaldagi iqtisodiy faoliyatga salbiy taʼsir etadigan tashqi taʼsirlar va bozor muvaffaqiyatsizliklari tushunchalarini oʻz ichiga oladi.

Shunday qilib, moliyaviy beqarorlik uchta mezon orqali aniqlanadi, yaʼni muhim moliyaviy aktivlar qiymati; qimmatli qogʻozlar bozoridagi salbiy holatlar

⁵¹ Nazarova S.A., Mirzarahimov B.H., Narmanov U.A., Ortikov O.H., & Uktamov K.F. The Role Of Uzbek Tourism Culture And Its Historical And Cultural Transformation Processes In Economic Development. Int. J. Of Aquatic Science, 2021, 12 (3), 2776- 2785

⁵² Oʻzbek tilining izohli lugʻati: 80000 dan ortiq soʻz va soʻz birikmasi. J.II.E-M. – T.: «OʻzME» davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 611-b.

hamda mamlakat ichida kreditdan foydalanish, shuningdek, xalqaro darajadagi imkoniyatlar; umumiy xarajatlarning amaldagi qiymatidan jiddiy farq qilishi⁵³.

Sug'urta kompaniyasining moliyaviy holatini ichki va tashqi tahlil orqali amalga oshirish mumkin. Moliyaviy barqarorlikni baholashda ko'plab usullardan, asosan turlicha statistik koeffitsientlardan foydalaniladi. Turli usullar orqali baholash ba'zan bir-biridan farq qiluvchi natijalarni ham ko'rsatadi. Sug'urta kompaniyasini tadqiq qilishda qo'llanilgan bir usul boshqasiga qaraganda birmuncha barqaror natijalarni ko'rsatishi mumkin. Aksariyat hollarda sug'urta kompaniyasi barqarorligini koeffitsientlar orqali tahlil qilish bilan baholanadi. Albatta, bunday usulni qo'llash bir qator afzalliklarga ega. Bulardan eng muhimi ushbu koeffitsientlar bo'yicha o'rnatilgan me'yoriy darajalarining mavjudligidir. Lekin ularning o'ziga xos kamchiligi ham majud bo'lib, bu birinchidan, o'zaro taqqoslash imkoniyati har doim ham mavjud emasligi bo'lsa, ikkinchidan, ularning statik xarakterga egaligidir⁵⁴.

Shu o'rinda, tadqiq qilinayotgan tizimni tarkibiy xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarga tayangan holda, dinamik jarayonni va barqarorlikni tadqiq qiluvchi tahlil usuli muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir yondashuvning zaruriy sharti, bu noaniqliklarni miqdoriy tavsiflanishidir, ya'ni oddiy matematik tushunchalar asosida baholash imkoniyatidir.

Halokatlar nazariyasining matematik apparatidan foydalanish yetarli darajada aniq prognozlar olish imkonini beradi. Ushbu tahlil usuli eng sezilarli boshlang'ich shartlarni aniqlash hamda moliyaviy barqarorlikka nisbatan eng yuqori ta'sirga ega bo'lgan kritik ko'rsatkichlarni aniqlashga imkon beradi. Lekin, ushbu nazariyani amaliyotda qo'llashda bir qator qiyinchiliklarga duch kelinadi, bunday qiyinchiliklar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– cheklangan miqdordagi funksiyalardan ma'lum funksiyani tanlashni asoslash zarurati;

⁵³ Yadgarov A.A., Khotamov I., Uktamov K.F., Mahmudov M.F., Yuldashev G.T. & Dushamboevich N.R. Prospects for the Development of Agricultural Insurance System. Alinteri Journal of Agriculture Sciences, 2021, 36 (1).

⁵⁴ Shaxov V.V. Sug'urta. – M.: Unity, 2003. -311c.

- omillar soni ko‘p bo‘lgan holda differensial hisob masalalarini yechish va tahlil qilishning murakkablashuvi;
- tenglama koeffitsientlarini talqin qilishning murakkablashuvi;
- differensial tenglamalarda miqdoriy koeffitsient qiymatini aniqlash uchun modelda ishlatiladigan barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha yetarli darajada kuzatuvlar mavjud bo‘lishi zaruriyati.

Tadqiqotlar natijasida shu ma’lum bo‘ldiki, differensial tenglamalarga asoslangan klassik modellarni yo‘naltirilgan graflarga asoslangan modellarga almashtirish mumkin. Ko‘p komponentli masalalarni yechishda tuziladigan modellarning keng tarqalgani vaznli yo‘naltirilgan graflar (orgraf) hisoblanadi, ular ko‘p ma’lumotni o‘zida mujassam etib, ishoralilarga nisbatan ko‘proq aniqlik va sezuvchanlikka ega bo‘ladi va funksionalga nisbatan osonroq hamda kam ma’lumot talab etadi.

Shu o‘rinda, funksional yo‘naltirilgan graflarning moslashuvchanlik xususiyatiga ega ekanligi, ularning yoylariga vaznli koeffitsientlar emas, balki ko‘rsatkichlarga mos ravishda funksional bog‘liqliklar qo‘llanilishini ta’kidlash joiz. Yo‘naltirilgan grafda olingan model asosida bir ko‘rsatkichning boshqa ko‘rsatkichga ta’sirini ifodalaydi hamda qurilgan model ko‘rsatkichlarining o‘zaro ta’sirini aniqlash imkonini berib, ko‘rsatkichlarni hamda boshlang‘ich va yuqori nuqtalarni aniqlash imkonini beradi. Bu, tizimni tadqiq qilishda muhim bo‘lib, lekin yetarli darajada aniq bo‘lmaydi. Aniqroq tadqiqot olib borish uchun yo‘naltirilgan grafning har bir yoyiga plyus yoki minus ishorasini qo‘shish talab etiladi. Plyus ishorasi i oshganda j oshsa, unda yoyni (i, j) qo‘shiladi, ya’ni ko‘rsatkichlar orasida to‘g‘ri proporsional aloqa bo‘ladi. Minus ishorasi i oshganda va j kamayganda qo‘yiladi, ya’ni ko‘rsatkichlar orasida teskari proporsional aloqa bo‘lganda.

Ishorali yo‘naltirilgan graflarga asoslangan model o‘zida ko‘plab qisqartmalarni ifoda etadi. Xususan, ba’zi bir o‘zgaruvchilarning o‘zaro ta’siri turli xil bo‘lishi mumkin. Agarda yoyga ishora emas, balki vaznli ishorasi bilan qo‘shilsa, bunda model yanada murakkablashadi. Natijada vaznli yo‘naltirilgan graf

hosil bo'lib, ishorali yo'naltirilgan grafdan ko'ra aniqroq modellashtirish instrumenti hosil bo'ladi.

Ishlab chiqilgan ishorali yoki vaznli yo'naltirilgan grafni inobatga olgan ko'rsatkichlarning o'zgarishini modellashtirish uchun yo'naltirilgan grafning cho'qqisi ko'rsatkichlari qiymati o'zgarishining u yoki bu qoidasini qabul qilishga to'g'ri keladi.

Yo'naltirilgan graflarning yana bir imkoniyati borki, bu ham bo'lsa unda ko'rsatkichlarning nafaqat o'zaro bog'liqligini, balki qayta aloqalarini ham kuzatish mumkinligidadir. Ko'p komponentli murakkab tizimlarning modelini tuzishda U.R. Eshbi taklif qilgan qayta aloqani ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir⁵⁵. Agar tuzilgan model qayta aloqani o'zida jamlagan bo'lsa, u holda qaralayotgan tizimning dinamikasini ham o'rganish mumkin bo'ladi.

Ishorali, ishorali vaznli, ishorali funksional yo'naltirilgan graflar yo'naltirilgan grafning kengaytirilgan matematik modeli hisoblanadi. $G(X,E)$ yo'naltirilgan grafdan tashqari, model quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

$V = \{vi, i \leq N = ||X||\}$ graf cho'qqilari parametrlarining to'plami. Har bir xi cho'qqiga mos $vi \in V$ parametri muvofiq qo'yiladi. Yoylarni o'zgartiruvchi funksional $F(V,E)$.

n vaqt momentida xi cho'qqining qiymatini o'zgarishi xi cho'qqidagi $Pi(n)$ impuls deyiladi:

$$Pi(n) = vi(n) - vi(n-1). \quad (1)$$

x cho'qqi parametri qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$vi(n) = vi(n-1) + \sum F(vi, vj, eij) Pj(n-1) + Pi(n) \quad (2)$$

Bu yerda $Pi(n)$ – n davrda ei cho'qqiga beriladigan tashqi impuls. Ko'rsatkichlarni o'zgarishini modellashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi $S=1, 2, \dots$ yuqori nuqtadagi orgrafning qiymatini $Vi(0)$, $i \in G$ ga teng bo'lgan qiymatini qabul qilamiz. $i: Vi(S)$, $S=1, 2$, bo'lganda ketma-ketligini aniqlash zarur

⁵⁵ Eshbi U.R. Vvedenie v kibernetiku. – M.: Nauka, 1959. – 432 c.


va ko‘rib chiqiladigan ko‘rsatkichlarning har birining o‘zgarish tendensiyasini o‘rganish kerak bo‘ladi. Mavjud ishorali yoki vaznli yo‘naltirilgan grafning har bir yoyi $(i, j) \in G$ a_{ij} koeffitsientga ega bo‘lib, bunda koeffitsient +1 yoki -1 ga teng bo‘ladi, agarda bu vaznli yo‘naltirilgan graf bo‘lsa berilgan koeffitsient belgilangan qiymatni o‘zining ishorasi bilan qabul qiladi. Amalda, impulslarga asoslangan ko‘rsatkichlar qiymatini hisoblashni amalga oshirishda oldindan berilgan formulasi (1) uchun turli xil variantda bo‘lishi mumkin.

Modellashtirish natijasiga vektorning dastlabki impulsi ta’sir qilishi mumkin. Ko‘rsatkichlarning dastlabki impulslari bo‘lishiga qarab, natijalar ko‘pincha shunga bog‘liq bo‘ladi. Boshidan impuls berilgan ko‘rsatkichlar faollashtirish ko‘rsatkichlar deyiladi.

Shunday qilib, sug‘urta kompaniyasi faoliyatini dinamik modellashtirishda dastlab asosiy omillar aniqlab olinadi. Omillarni tanlab olish juft va ko‘p omilli ekonometrik modellar orqali aniqlanadi. Sug‘urta kompaniyasi faoliyati samaradorligini baholash jarayonini belgilovchi bazis jarayon sifatida quyidagi parametrlarni keltirish mumkin.⁵⁶

- o‘z mablag‘lari;
- sug‘urta mukofotlari hajmi;
- sug‘urta zahiralari hajmi;
- investitsiya qo‘yilmalari;
- sug‘urta qoplamalari;
- sug‘urta xizmatlari tannarxi;
- umumxo‘jalik faoliyati foydasi (zarari) va boshqalar.

⁵⁶ Ryabikin V. I., Tixomirov S.N, Baskakov V.N. Straxovanie i aktuarnye rascheti: uchebnik. – M.: Ekonomist, 2006, 464 s.



2.1-rasm. Sug‘urta kompaniyasi barqarorligini asosiy omillar asosidagi yo‘naltirilgan graf ko‘rinishidagi modeli⁵⁷.

Model yo‘naltirilgan vaznli graf ko‘rinishida quriladi. Bunda cho‘qqilarga belgilab olingan bazaviy jarayonlar qo‘yiladi. Jarayonlarning o‘zaro munosabatlari tegishli cho‘qqilar o‘rtasida o‘tkazilgan yo‘naltirilgan yo‘llar orqali ifodalanadi.

2.1-rasmda ko‘rsatkichlarni rivojlanishi vaznli yo‘naltirilgan graflar asosida modellashtirilgan.

Modellashtirishning natijasiga boshlang‘ich impulslar vektori jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Boshlang‘ich impuls beriladigan ko‘rsatkichlarni faollashtiruvchi ko‘rsatkichlar deb ataladi. Aynan shu faollik ko‘rsatkichlarning kichik o‘zgarishlari boshqa omil ko‘rsatkichlarni qanday o‘zgartirishi va bu o‘zgarish barqarorlikni saqlab qola olishi ushbu modelning asosiy vazifasi hisoblanadi. Agar faollik ko‘rsatkichi sug‘urta mukofoti hajmi bo‘lsa, uning impuls qiymati birga teng bo‘lib, qolgan ko‘rsatkichlarning qiymatini shu impuls asosida bir nechta qadamda aniqlasa

⁵⁷ Model muallif tomonidan XXX sug‘urta kompaniyasining ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

bo'ladi. Ushbu model asosida sug'urta kompaniyalari barqarorligini uning asosiy faoliyat ko'rsatkichlaridan birortasi faollashtirilganda boshqa ko'rsatkichlar o'zlarini qanday tutishi bir necha qadamlarda o'rganiladi. Bu o'zgarishlar mazkur ko'rsatkichlarning kelgusidagi xatti-xarakatlarini qanday bo'lishini belgilab beradi. Shunga ko'ra, qaysi ko'rsatkich o'zgarishiga boshqalarining sezuvchanligi baholanadi hamda sug'urta kompaniyasi faoliyatini nobarqarorlikka olib keluvchi boshqaruvchi ko'rsatkich aniqlanadi.

Sug'urta kompaniyalari barqarorligini baholashning taklif qilinayotgan modeli asosida nafaqat barqarorlikni yo'qotish holati, balki shu vaziyatga kelishi uchun eng sezuvchan omillarni ajratib olish imkoniyati ham mavjud. Shuningdek, ushbu jarayon dinamikada ko'rilishi barqarorlikni yaqin va o'rta muddatlarga prognozini amalga oshirishda ham ahamiyatli hisoblanadi.

2.3. Sug'urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish yo'llari

Iqtisodiy nazariyada infratuzilma tushunchasidan keng foydalaniladi. Iqtisodiyotda xuddi tarmoqlar kabi, infratuzilma ham ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasiga bo'linadi. Shuningdek infratuzilma iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining barqaror rivojlanishiga zamin va sharoit yaratadi. Infratuzilmaning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish turlariga aniqlik kiritadigan bo'lsak, ishlab chiqarish infratuzilmasiga transport va aloqa, noishlab chiqarish infratuzilmasiga sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, jismoniy tarbiya va sport, moliya tizimi va boshqalar kiradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda sug'urta infratuzilmasini tor va keng doirada talqin qilinadi. Keng doirada, sug'urta infratuzilmasini sug'urta bozorining uzluksiz faoliyat ko'rsatish sharoiti sifatida tushuniladi. Keng doiradagi sug'urta bozori infratuzilmasi institutsional infratuzilma, ikkilamchi sug'urta bozori (qayta sug'urtalash), sug'urta ta'limi tizimi va boshqa sharoitlarni o'z ichiga oladi.

Hududlarda zamonaviy sug'urta bozorining faoliyat yuritishi uchun mazkur hududda ma'lum sharoitlar bo'lishi talab etiladi. Mazkur sharoitlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning mavjudligi;
- sug'urta xizmatlarini ko'rsatadigan sug'urta va qayta sug'urta kompaniyalarining mavjudligi;
- sug'urta sohasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikning mavjudligi va mukammalligi;
- mavjud qonunchilik normal ishlashi uchun sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi davlat organining faoliyat yuritishi.

Sug'urta infratuzilmasi tor doirada, umuman sug'urta bozori rivojlanganligini ifodalovchi belgilangan institutlarning mavjudligi bilan ifodalanadi. Sug'urtaning tor ma'nodagi infratuzilmasiga quyidagilar kiradi:

- sug'urta vositachilari (sug'urta agenti, sug'urta va qayta sug'urta brokerlari);
- sug'urta baholovchilari;
- sug'urta aktuariylari;
- sug'urta auditorlari.

Mustaqillik yillarida sug'urta bozorining institutsional asoslarini yaratish, uning samarali faoliyat yuritishi uchun respublika sug'urta bozorini shakllantirish, uning faoliyatida iqtisodiy agentlar va sug'urtalovchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish⁵⁸, sug'urta bozori ishtirokchilari o'rtasida sog'lom raqobatni rivojlantirish⁵⁹ bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 2002 yil 5 aprel.

⁵⁹ Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasining xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2014 yil 31 dekabrda qabul qilingan №91, 2014-38 va 01/19-26/29 sonli «Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilikning sug'urtalovchilar tomonidan buzilishi holatlarida qo'llaniladigan jarima sanksiyalari to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»

O‘zbekiston sug‘urta bozori infratuzilmasi sub’ektlari sonining yillar davomida o‘zgarish dinamikasi⁶⁰

Sub’ektlar	2014	2015	2017	2020	2021	2022	2023	2014/2023 O‘shish/ Kamayish
Sug‘urta kompaniyalari	31	26	27	41	42	41	38	+7
Sug‘urta brokerlari	2	3	3	5	5	7	8	+6
Sug‘urta agentlari	5800	5800	7200	8870	9536	9155	4736	-1064
Assistans	9	8	10	9	9	10	10	+1
Syurveer	7	6	8	7	7	7	7	-
Adjaster	5	4	6	6	6	7	6	+1
Aktuariy	2	4	4	5	5	5	5	+3
Sug‘urta kompaniyalari bo‘linmalari	1048	1123	1284	1873	1965	1935	1924	+876

Milliy iqtisodiyotda sug‘urta bozorini rivojlantirish bo‘yicha davlat tomonidan olib borilgan chora-tadbirlar natijasida respublikada sug‘urta bozori infratuzilmasi asta-sekinlik bilan rivojlanib, takomillashib bormoqda (2.9-jadvalga qarang).

2.9-jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, 2023 yil yakunlari bo‘yicha milliy sug‘urta bozori infratuzilmasida sug‘urta kompaniyalari soni 2014 yilga nisbatan 7 taga oshgan bo‘lsa, sug‘urta agentlari soni ushbu davrda 1064 taga kamaygan, sug‘urta kompaniyalarining bo‘linmalari soni 876 taga ortib, aktuariylar 3 taga, sug‘urta brokerlari 6 taga, adjasterlar soni 1 taga ortgan, syurveerlar sonida o‘zgarish kuzatilmagan. Demak, infratuzilma sub’ektlari ichida sug‘urta agentlari sonida keskin kamayish yuz bergan va sug‘urta kompaniyalarining bo‘linmalari soni yuqori o‘shish darajasiga ega bo‘lgan. Ammo shuni ta’kidlash kerak, rivojlangan bozorlarda, odatda adjasterlar, syurveerlar va sug‘urta brokerlari soni va ular tomonidan

⁶⁰ IMDA.UZ sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi katta bo'lib, mamlakatimizda ushbu sub'ektlar sonida o'sish deyarli yuz bermagan.

Sug'urta sohasida sug'urta infratuzilmasini zamon talablari darajasida rivojlantirish sug'urta bozori rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu holatni e'tiborga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida sug'urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan bo'lib, ushbu yo'nalishlardan biri sifatida, sug'urta brokerlari faoliyatini faollashtirish, sug'urta agentlarining ishlash tizimini takomillashtirish, banksug'urta mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, umuman sug'urta bozori professional ishtirokchilarining rolini oshirish orqali sug'urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish va kengaytirish masalasi ko'zda tutilgan. Ushbu qaror asosida qabul qilingan yo'l xaritasida "Sug'urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish va kengaytirish" deb nomlangan alohida bo'lim shakllantirilib, unda yangi tahrirdagi Sug'urta agentlari to'g'risida nizom ishlab chiqish, Adjester, syurveyer va assistans xizmatlari sohalaridagi sub'ektlar ishini tashkil qilishni tizimlashtirish va iste'molchilar manfaatlarini uchun ushbu xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha yagona talablarni joriy etishga qaratilgan adjester, syurveyer va assistans xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish, O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasining faoliyati samaradorligini oshirish va faollashtirish, ichki sug'urta bozori sig'imini oshirish, shuningdek, qayta sug'urta sohasida samarali faoliyatni tashkil qilish borasidagi ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, keyinchalik quyidagi imkoniyatlar va istiqbollar to'g'risida tegishli takliflarni ishlab chiqish belgilangan. Ushbu qarorda xususan bu borada quyidagilar belgilangan:

faqat qayta sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi sug'urta tashkilotini, yetakchi xalqaro sug'urta kompaniyalarini ishtirokchi sifatida jalb qilgan holda tuzish;

sug'urta (qayta sug'urta) brokerlariga sertifikat berish, shuningdek, xorijiy sug'urta (qayta sug'urta) brokerlari respublika hududida faoliyat ko'rsatishi uchun ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini joriy qilish;

aktuar faoliyatini tashkil qilish sohasidagi xorijiy tajribani o'rganish asosida, shu jumladan aktuar tashkilotlar va aktuariylarning vazirliklar va idoralardan statistik ma'lumotlarni olish imkoniyatini kengaytirish yuzasidan takliflar tayyorlash;

nodavlat notijorat tashkilot shaklidagi Aktuariylar jamiyatini tashkil qilish.

Yuqoridagi vazifalarning belgilanishi bejizga emas albatta. Sug'urta agentlari faoliyatini olib qaraydigan bo'lsak, sug'urta vositachilari ichida sug'urta agentlari faoliyati mamlakatimizda sezilarli darajada kengayganligini ta'kidlash mumkin. Ushbu sub'ektlar soni bugungi kunda 9 mingdan ortiqni tashkil etmoqda. Ammo ular klassik tarzdagi sug'urta agenti bajarishi kerak bo'lgan funksiyalarni bajaryaptimi? Albatta yo'q. Sug'urta sohasidagi adabiyotlar va sug'urta atamaları lug'atlarida sug'urta agentiga shunday ta'rif beriladi: sug'urta agenti – sug'urtalovchining nomidan va uning topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasini tuzish va uning ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs⁶¹. O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta agentlari esa sug'urtalanuvchi bilan sug'urta shartnomasini tuzish va sug'urta mukofotining to'lanishini ta'minlash bilan mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha o'z faoliyatini yakunlaydi, shartnoma amal qilishidan uning tugallanishigacha bo'lgan davr hech kimni qiziqitirmaydi.

Adjaster, syurveer va assistans xizmatlariga kelsak, katta bir mamlakat sug'urta bozorida bugungi kunda bor-yo'g'i 20 dan ortiqroq shu kabi sub'ektlar faoliyat ko'rsatmoqda va ular ham asosan bir nechta yirik sug'urta kompaniyalari qoshida tashkil etilgan tashkilotlar hisoblanadi. Ularning faoliyati bozorda sezilarli darajada emas.

⁶¹ Qo'ldoshev Q.M. Sug'urta bozori. O'quv qo'llanma. Toshkent-iqtisodiyot 2011, 113 b.

Bozorda jami 5 ta brokerlik tashkiloti faoliyat ko'rsatib, ular asosan qayta sug'urta sohasida vositachilik qilishmoqda.

Aktuar faoliyat yaxshi rivojlanmagan, 5 ta aktuar tashkilot faoliyat ko'rsatmoqda va ularda ham malakali aktuariylar yetishmaydi.

Amaliyotda sug'urta kompaniyasi bilan manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganda, odatda iste'molchilar - sug'urta xizmatlaridan foydalanuvchilar zaif holatga tushib qolishadi. Ehtimol ular bunday holatga birinchi marta tushayotgandir, buning asosiy sababi ularning sug'urta qoidalarini tushunmaganliklaridan. Ammo sug'urta kompaniyasi uchun bu odatiy holat va u bunday sharoitda o'z manfaatini to'g'ri himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqqan va bu borada katta tajribaga ega. Bundan tashqari, aksariyat mizojlar shartnoma shartlari bilan chuqur tanishmaydi va o'zlarining huquqiy hatti-harakatlarini yaxshi bilishmaydi. Bunday muammolarni ijobiy hal qilish, mijozlarga yordam berish, ular qiyin ahvolda qolganlarida qo'llab-quvvatlash borasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat turi rivojlangan sug'urta bozorlarida allaqachon shakllanib bo'lgan, bu assistans kompaniyalarining xizmatlaridir. Biroq, mamlakatimizda ushbu bozor segmenti rivojlangan davlatlarga nisbatan ancha orqada va yetarli darajada rivojlanmagan.

Sug'urta bozorining rivojlanishi bevosita jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan dolzarb iqtisodiy tendensiyalarga bog'liq. Moliya sohasidagi inqirozlar, valyuta kurslari va narx-navoning o'zgarishi, tabiiy va texnogen jarayonlar salbiy holatlarining ko'payishi, pandemiya va boshqa iqtisodiyotdagi salbiy hodisalar sug'urta bozoriga va assistans kompaniyalari faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

«Assistans» tushunchasi (ingliz tilida assistance – yordam) yordam, ko'mak, qo'llab-quvvatlash degan ma'nolarni anglatadi. Xalqaro biznes yuritishda «assistans» – bu jismoniy va yuridik shaxslarga texnik, tibbiy, servis, informatsion, huquqiy va moliyaviy yordam ko'rsatishga qaratilgan faoliyatning asosiy yo'nalishini ko'rsatadigan kompaniyalar nomlariga qo'shimcha sifatida ishlatiladigan umumiy qabul qilingan atama hisoblanadi⁶².

⁶² Ovchinnikova Y. A. Osobennosti posrednicheskoy deyatelnosti v straxovanii // Ekonomicheskij jurnal. - M.: Izdatelstvo Ippolitova, (2008) - № 15.

Assistans dunyoning ko‘plab mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyatining turi sifatida keng rivojlangan. Birinchi marta ushbu xizmat turi Fransiyada XX asrning 60-yillari boshlarida paydo bo‘ldi. Aynan o‘sha paytda assistans tibbiy xarajatlarni klassik sug‘urtalashdan tashqari, o‘z mijozlariga vaqtida sifatli xizmat ko‘rsatishni ta‘minlash (yo‘lga qo‘yish) maqsadida kompaniyalar ko‘rinishida paydo bo‘la boshlagan. Asosiysi, bunda barcha xarajatlarni sug‘urta kompaniyasining o‘zi amalga oshirgan.

Shunday qilib, assistansning asosiy vazifasi – bu sug‘urta kompaniyasi mijozlariga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, mijozlar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularga turli xizmatlarni ko‘rsatish, xizmat ko‘rsatuvchilar (tibbiyot muassasalari, texnik xizmat ko‘rsatuvchi markazlar, evakuatorlar, yurist va advokatlar, mehmonxonalar) bilan hamkorlikda ishlashni takomillashtirish, shuningdek mintaqaviy xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, yordamchi assistanslar (sug‘urtaga aloqasi bo‘lmagan) onlayn tarzda transport xizmatlari (taksilar, mikroavtobuslar) tashkil etishni o‘z ichiga olgan xizmatlar, shaxsiy assistans (sovg‘alar, gullar, kur‘erlik xizmatlari, gidlar va boshqalar), uy hayvonlari (mushuk, itlar va h. k) uchun tibbiy xizmat assistansi, ijara (uy, ofis, avtotransport va h. k) assistanslari ham mavjud.

Tashkiliy-huquqiy shakliga qarab sug‘urta sohasidagi assistanslar sug‘urta kompaniyasi tarkibidagi va alohida yuridik shaxs sifatidagi ko‘p tarmoqli assistans (multiassistans) shaklida bo‘ladi. Sug‘urta kompaniyasi tarkibida assistansni tashkil etishning ijobiy tomonlari - bu sug‘urta mahsulotlarini yaratish va sotish bo‘limlari bilan o‘zaro yaxshi konstruktiv aloqalarning shakllanishidir. Bunday aloqalar hamkorlikda ishlash tizimini kuchaytiradi va natijada mijozlarga yuqori sifatli xizmatlar ko‘rsatiladi, shuningdek, mijozlarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga tezkor ta‘sir qilish imkoniyatini oshiradi. Ammo ko‘p hollarda bunday assistans sug‘urta kompaniyasi ehtiyojlari bilan cheklanib qoladi va mustaqil rivojlanish imkoniyatlaridan mahrum bo‘ladi.

Multiassistans – bu mijozga yordamni tashkil etishning ko‘p bosqichli tizimi bo‘lib, unda sug‘urta kompaniyalari o‘z nomidan ish yuritishni assistansga

topshiradi va u dispetcher vazifasini bajaradi, shakllangan xizmat orqali subassistans tarmoq xizmatlarini tashkil etadi, ya'ni boshqa (xududiy yoki o'zining assistans tarmoqlari) assistans kompaniyalarini jalb qiladi. Bunday holda, OverFee (to'lovni oshishi) usuli qo'llaniladi, bunda asosiy (umumiy) assistansning xizmat narxlariga sug'urta hodisasini hal qilishga jalb qilingan subassistans xizmat narxlari qo'shiladi va u narxning oshishiga ta'sir qiladi. Ammo shunga qaramasdan, sug'urta kompaniyasi bilan assistans hamkorligi sug'urta kompaniyasiga mablag'larni iqtisod qilish imkoninini beradi.

Faoliyat turiga qarab, assistans ixtisoslashgan va universal assistanslarga bo'linadi. Hududiy jihatdan esa hududiy (bir hududda), hududlararo (bir nechta hududlar o'rtasida), milliy (bir mamalkatda) va xalqaro (mintaqaning bir qator mamlakatlarida) va transmilliy (ko'plab mintaqalar xududlarida) assistanslarga bo'linadi.

Xorijiy mamlakatlarda xizmat ko'rsatish uchun assistans kompaniyasini tanlashda sug'urta kompaniyalari quyidagilarga e'tibor berishlari kerak, ya'ni dunyoning barcha burchaklarida keng vakolatxonalar tarmog'iga ega ekanligi, shuningdek, assistans kompaniyasi bilan hamkorlik shartnomalariga ega bo'lgan provayderlarning mavjudligi, ko'rsatilayotgan assistans xizmatlarining o'rtacha narxlari, sug'urtalanuvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga) xizmat ko'rsatishning sifati va samaradorligi, sug'urtalovchi xizmat ko'rsatayotgan xudud va mintaqalarda vakolatxonalarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Sug'urta kompaniyasining asosiy vazifasi - sug'urta fondini boshqarishdir. Shu sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni sifatli baholash, zahiralarni to'g'ri shakllantirish va o'z vaqtida sug'urta hodisalari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish har qanday sug'urta kompaniyasining asosiy maqsadi va vazifasi hisoblanadi. Aynan shunday siyosat kompaniyaning ijobiy imijini va rivojlanishini belgilaydi. Bugungi kunda raqobatbardosh tarif stavkalari bilan mijozni o'ziga jalb qilish juda qiyin, shuning uchun mijozga sifatli xizmatlar ko'rsatish zarur, ayniqsa, sug'urta hodisasi yuz bergan holatlarda. Bunda sug'urta kompaniyalari birinchi navbatda o'zlarini firibgarlikdan himoya qilish va sug'urta hodisalarini bartaraf etish

xarajatlarini minimallashtirishga qaratadilar. Bularni hisobga olgan holda assistans kompaniyalari sug'urta kompaniyalariga qoida tariqasida quyidagi xizmatlarni taqdim etishadi:

1) sug'urta hodisasi yuz berishining sabablari va zarar miqdorini aniqlash (adjustingservice), bunga quyidagilar kiradi: texnik ekspertiza o'tkazish va zararni malakali baholash, hisobot tuzish (assessorreports); fors-major holatlarining mavjudligi (yo'qligi) to'g'risida vakolatli idoralardan ma'lumotnomalar so'rash va olish; avariya sertifikatlarini tayyorlash (surveyreports); murojaat hududidan kelib chiqqan holda sug'urta kompaniyalarining regress huquqlarini mahalliy sudlarda himoya qilish; mahalliy huquqni muhofaza qilish idoralarida sug'urta kompaniyasining manfaatlarini himoya qilish (baxtsiz hodisalarini tekshirish jarayonida); zarar yetkazilgan avtotrasportni baxtsiz hodisa sodir bo'lgan joyda muhofaza qilish, quriqlash choralari ko'rish, zarar ko'payishining olidini olish maqsadida sug'urta hodisasidan keyin har qanday ob'ektni himoya qilish (kuzatish) ishlari;

2) da'volarni ko'rib chiqish xizmati (claimshandlingservice). Sug'urta kompaniyalari uchun da'volarni qondirish – bu yaxshi moliyaviy investitsiyalarni, malakali ishchi kuchi va o'rnatilgan aloqalarni talab qiladigan jarayondir. Afsuski, provayderlar yoki sug'urtalanuvchilarning da'volarini tahlil qilishda tasodifiy (tasodifiy bo'lmagan) xatolar va nomuvofiqliklar ko'plab topiladi. Sug'urta biznesining rentabelligi da'volarni ko'rib chiqish va ularni qoplash bo'yicha ishlarning qanchalik to'g'ri va professional tarzda amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi.

Assistans va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik samaradorligi, sug'urta kompaniyasining o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini qanday bajarishiga, ya'ni ma'lumotlar bazasini o'z vaqtida taqdim etishi yoki sug'urta polisining haqiqiylikini tasdiqlashi, assistansning ushbu masaladagi so'roviga operativlik bilan javob berishiga bog'liq, shuningdek, taqdim etilayotgan xizmatlar va aniq ko'rsatilgan sug'urta shartlarining mavjudligi, asosiysi o'zaro hamkorlik shartnomasi shartlariga muvofiq hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga

oshirilishiga bog‘liq bo‘ladi⁶³. Zarur bo‘lganda sug‘urta kompaniyasi ko‘rsatilayotgan xizmatlarning haqiqiy hajmini, ishlatilgan materiallarning aniq nomi, miqdori va ularning haqiqiy narxini aniqlash asosida xududda tasdiqlangan yoki belgilangan narxlarni provayderlar yoki assistanslardan so‘rashi va nazorat qilishi mumkinligiga bog‘liq bo‘ladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sug‘urta bozorida assistans faoliyatini bu bozor mexanizmlarining ishlashini, ya’ni sug‘urtalanuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar), sug‘urta mahsulotlarini iste’mol qiluvchilarning sug‘urta xizmatlaridan foydalanish paytida yuzaga keladigan muammolarini hal qilish, oldini olish, ularga yordam (tibbiy, texnik, huquqiy) ko‘rsatish orqali ularni qo‘llab-quvvatlashda muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, bozorda faoliyat yuritish va raqobatchilardan ustunlikni ta’minlashda sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta shartnomasi imzolanganidan keyingi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu faoliyat turini bozorda assistans kompaniyalari taqdim etadi.

Yuqorida aytilganidek, assistans kompaniyalarining asosiy maqsadi sug‘urta xizmatlari mizojlarini ularga turli qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatish orqali har tomonlama ko‘llab-quvvatlashdir. Afsuski hozirgi kunda ko‘pchilik sug‘urta kompaniyalari sug‘urta shartnomasi imzolanganidan keyingi jarayonni nazorat qilishmaydi yoki bu sohada deyarli nazorat mavjud emas. Bunga bir qancha omillar ta’sir qiladi, ya’ni sug‘urta kompaniyasining katta kichikligi, ularda xizmat ko‘rsatuvchi assistans xizmatlarining yo‘qligi, bu boradagi xarajatlarning yuqoriligi va boshqa holatlar. Shu munosabat bilan assistans faoliyati yoki sug‘urta kompaniyalari faoliyatida assistans xizmatlarini tashkil etishning normativ-huquqiy bazasini yaratish, ular faoliyatini har tomonlama rag‘batlantirish (soliq imtiyozlari berish) chora-tadbirlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi va bu o‘z navbatida milliy sug‘urta xizmatlari bozorida yana bir professional ishtirokchi faoliyatining rivojlanishiga zamin yaratgan bo‘lar edi.

⁶³ Osadetsъ S. S. Straxuvannya: Pidruchnik / Kerivnik avt. kolektivu i nauk, red. Vid. 2-ge, pererob. i dop. (2002) K.: KNEU

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, assistans kompaniyalari ikki xil tarzda tashkil etilishi mumkin, ya'ni sug'urta kompaniyalari qoshida yoki to'g'ridan-to'g'ri ular tarkibida yoki biror-bir sug'urta kompaniyasiga aloqador bo'lmagan, alohida yuridik shaxs maqomida tashkil etilishi mumkin. Mamlakat va shu bilan birga ushbu mamlakat sug'urta bozori rivojlanish bosqichida bo'lgan, aholining moliyaviy imkoniyatlari o'rtacha va sug'urtaning aholi orasiga kirib borganlik darajasi past bo'lgan mamlakatlarda assistans xizmatlarini sug'urta kompaniyasi qoshida yoki uning tarkibida tashkil etish har jihatdan qulay bo'ladi. Shunday usulda assistansni tashkil etishda tashkiliy xarajatlarni topish muammosiga duch kelinmaydi, chunki ushbu xarajatlar sug'urta kompaniyasi hisobidan amalga oshiriladi. Bunday usulda tashkil etilgan assistans xizmatlari uchun haq sug'urtalanuvchi zimmasiga emas, balki sug'urta kompaniyasi zimmasida bo'ladi. Bunday holatda assistans xizmatlarini tez rivojlantirish va shu asosda mijozlarni ko'proq jalb qilish imkoniyati yuzaga keladi. Albatta bir necha turdagi assistans xizmatlarini ko'rsatish sug'urta tarifiga (uning oshishiga) biroz bo'lsada ta'sir ko'rsatadi, ammo sezilarli darajada emas.

Hozirgi sharoitdagi O'zbekiston sug'urta bozori uchun assistans xizmatlarini sug'urta kompaniyalari qoshida tashkil etish va ular tomonidan quyidagi xizmatlar ko'rsatilishini tashkil etishni taklif etamiz:

- TVEFJMS bo'yicha sug'urta hodisasi sodir bo'lganda "evroprotokol"ni rasmiylashtirish va sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlash;

- ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urtalangan transport vositasida sug'urta hodisasi yuz berganda qoplamaning to'lash bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish va texnik xizmatlar ko'rsatish;

- baxtsiz hodisalar natijasida shikast yetgan sug'urtalanuvchilar, haydovchi va yo'lovchilarga tibbiy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq texnik xizmatlar ko'rsatish;

- zarar ko'rgan transport vositasi, binolar va boshqa mulklarga yetkazilgan zarar miqdorini baholatishni tashkil etish.

O'zbekiston sug'urta bozorida yangi sug'urta kompaniyalarining paydo bo'layotganligi va ularning barchasi xususiy mulkka asoslangan kompaniya ekanligi

hamda davlat ulushi mavjud bo'lgan kompaniyalarning davlat ulushlarini kamaytirish borasida olib borilayotgan tadbirlar bu kabi kompaniyalarning bozordagi ulushi kamayishiga olib kelmoqda.

Davlat ulushi mavjud bo'lgan sug'urta kompaniyalarining davlat ulushini xususiy sektorga sotish risklarni boshqarish vositasi sifatida, sug'urtaga bo'lgan qiziqishni orttiradi, chet el investitsiyalari va texnologiyalarini jalb qilish, mazkur sohada yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatini beradi, shu bilan birga, sug'urta mahsulotlarining turlari ko'payib, aholida ushbu yo'nalishda tanlash imkoniyati kengayadi, bozorda o'zaro raqobat kuchayadi, raqobatning kuchayishi esa tariflarning pasayishiga va xizmatlar sifatining oshishiga olib keladi.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillardan kelib chiqqan holda sug'urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Sug'urta bozori infratuzilmasining barqarorligi va ishonchliligini, shuningdek, uning faoliyati samaradorligini oshirish sug'urta bozori rivojlanishining zarur shartidir. Bu quyidagi chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirishni o'z ichiga olishi kerak:

- sug'urta brokerlari va sug'urta agentlari institutini rivojlantirish va ular faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish hamda samarali nazorat qilish mexanizmini yaratish. Vositachilarning o'z xizmatlari sifati uchun mas'uliyatini oshirish. Xizmatlar ko'rsatish shartlarini (shu jumladan komissiya miqdorini) belgilashda sug'urtalovchilar, sug'urta brokerlari va sug'urta agentlari manfaatlarini muvozanatini ta'minlash;

- aktuar faoliyatni qonun hujjatlari bilan tartibga solish, sug'urta aktuariylari institutini shakllantirish, sug'urtalovchi tomonidan qo'llaniladigan sug'urta tariflarining asosliligini va shakllantirilgan sug'urta zahiralarining yetarliligini tasdiqlovchi aktuar xulosalarni aktuariylar tomonidan tuzish amaliyotini joriy etish;

- sug'urta shartnomasini tuzish bosqichida risklarni professional baholashni amalga oshiruvchi sug'urta syurveerlari, zararni baholash va yo'qotishlarni bartaraf etish bo'yicha professional faoliyatni amalga oshiruvchi favqulotda vaziyatlar

komissarlari va administratorlari institutini shakllantirish, ularning faoliyatini, huquqlari, burch va majburiyatlarini tartibga solish, ular faoliyatini sertifikatlashtirish mexanizmini va nazorat qilish shakllarini ishlab chiqish;

- sug'urta kompaniyalarining ishonchliligi va moliyaviy barqarorligini baholash maqsadida ularning reyting tizimiga talabni oshirish. Reyting tashkilotlari faoliyatining mustaqilligi va oshkoraligini yanada oshirish;

- Sug'urtalovchilar assotsiatsiyasining maqomi va rolini oshirish, jumladan: Sug'urtalovchilar assotsiatsiyasining sug'urta bozori bilan bog'liq axborot resurslarini to'plash tizimini shakllantirish, ushbu tizimni davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining axborot tizimlariga integratsiyalashuvini ta'minlash;

- sug'urtalovchilar assotsiatsiyasi tomonidan o'z a'zolarining sug'urta faoliyati bilan bog'liq zararlilik ko'rsatkichlarini doimiy tahlil qilib borishni yo'lga qo'yish va ushbu tahlillar asosida tavsiyalar ishlab chiqish;

- sug'urta va sug'urta hodisalarining ayrim turlari bo'yicha risklar xaritalarini ishlab chiqish va joriy etish;

- sug'urtalovchilarni birlashtirishda hakamlik sudlarini shakllantirish amaliyotini kengaytirish va sug'urtalovchilar bilan sug'urtalanuvchi hisoblangan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi nizolarni hal etishda hakamlik sudlari xizmatidan foydalanish amaliyotini joriy etish;

- sug'urtalovchilarning o'z faoliyatini amalga oshirish amaliyotini xalqaro amaliyot bilan uyg'unlashtirishga ko'maklashish hamda xalqaro darajadagi sug'urtalovchilar uyushmalari bilan o'zaro hamkorlik amaliyotini kengaytirish;

- assistans xizmatini rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash. Bunda chet mamlakatlarning ilg'or tajribalarini amaliyotga joriy etishni samarali ta'minlash maqsadida chet mamlakatlarning assistanslik tashkilotlarini to'g'ridan-to'g'ri jalb qilgan holda ular faoliyatini yo'lga qo'yishga erishish;

- milliy qayta sug'urta bozorini rivojlantirish va samaradorligini oshirish hamda uning sig'imini kengaytirish maqsadida sug'urta kompaniyalari ishtirokida qayta sug'urtalashga ixtisoslashgan o'zaro sug'urtalash jamiyatini tashkil etish.

Sug'urta sohasi o'zining rivojlangan darajasida iqtisodiyotning bazaviy

tizimlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday darajaga erishishda sug‘urtani tashkil qilishning ikkita asosiy shakli amal qilishi muhim hisoblanadi. Bular: tijoratga asoslangan sug‘urta va o‘zaro sug‘urta shakllaridir⁶⁴.

Qayta sug‘urta faoliyati sug‘urta tashkilotlarining keng qamrovli faoliyat olib borishi uchun sharoit yaratib beradigan muhim soha hisoblanadi. Qayta sug‘urtasiz sug‘urta tashkilotlarining faoliyati faqat o‘z imkoniyatlari doirasida chegaralanib qolgan bo‘lar edi. Xuddi shunday, o‘zaro sug‘urta uchun ham qayta sug‘urta xizmatlari muhim bo‘lib, o‘zaro sug‘urta jamiyatlari qayta sug‘urta xizmatlaridan tijoratga asoslangan qayta sug‘urta tashkilotlari yoki o‘zaro sug‘urtaga asoslangan qayta sug‘urta jamiyatlari vositasida foydalanishi mumkin. Albatta o‘zaro sug‘urtaga asoslangan qayta sug‘urta jamiyatlarining xizmatlari arzon va ishonchli bo‘lishi tabiiy⁶⁵.

O‘zbekiston milliy sug‘urta bozorida qayta sug‘urta sig‘imi anchagina past bo‘lib, buning sababi maxsus qayta sug‘urta tashkilotining mavjud emasligi va qayta sug‘urtani amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan sug‘urta kompaniyalarining kamligidir. Shu sababli qayta sug‘urtaga berilayotgan javobgarliklarning katta qismi xorijiy mamlakatlarning qayta sug‘urta tashkilotlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa katta miqdordagi valyuta mablag‘larining chetga chiqib ketishiga olib kelmoqda. Ushbu muammoni hal etish yo‘llaridan biri sifatida milliy sug‘urta bozorining barcha sug‘urta tashkilotlari ishtirokida qayta sug‘urtaga ixtisoslashgan o‘zaro sug‘urtalash jamiyatini tashkil etishdir.

O‘zaro sug‘urtalash mexanizmi mamlakamizda yetarli rivojlanmagan bo‘lsada, uning o‘ziga xos xususiyatlaridan foydalangan holda milliy sug‘urta bozorining rivojlanishiga katta ko‘mak beradigan, hamda chet el kapitaliga qaramlikdan xoli bo‘lgan ixtisoslashgan o‘zaro qayta sug‘urta tashkilotini tashkil etish imkonini berishi mumkin⁶⁶.

⁶⁴ Qo‘ldoshev Q.M. O‘zbekistonda o‘zaro sug‘urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ishi. Toshkent-2019 y.

⁶⁵ Qo‘ldoshev Q.M. O‘zbekistonda o‘zaro sug‘urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ishi. Toshkent-2019 y.

⁶⁶ Sultanov D.M. O‘zbekistonda risklarni qayta sug‘urtalashda o‘zaro sug‘urtalash tamoyillarini qo‘llash imkoniyatlari. // Moliya va bak ishi elektron ilmiy jurnali. -Toshkent 4-son, iyul-avgust, 2020.

O‘zbekiston sug‘urta bozorining qayta sug‘urta mukofotlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari (mlrd. so‘mda)

Ko‘rsatkichlar Yillar	Jami qayta sug‘urta mukofotlari	Shundan, chet elga to‘lab berilgan qayta sug‘urta mukofotlari	Chet eldan kelib tushgan qayta sug‘urta mukofotlari	Chet elga berilgan qayta sug‘urta mukofotlari ulushi, %
2016	138,7	66,4	0,1	47,9
2017	173,0	129,1	1,0	74,6
2018	209,3	175,2	9,6	83,7
2019	316,1	283,6	38,6	89,7
2020	325,3	245,9	87,5	75,6
2021	823,8	490,9	332,7	59,6
2022	1695,6	755,1	940,5	44,5
2023	2847,8	1522,7	1325,1	53,5

O‘zbekiston sug‘urta bozorining qayta sug‘urta mukofotlari bo‘yicha ko‘rsatkichlariga e‘tibor qaratganimizda (2.10-jadvalga qarang) sug‘urta kompaniyalari tomonidan olingan sug‘urta javobgarliklarining chet mamlakatlarning qayta sug‘urta kompaniyalariga berish hajmi 2020 yildan (pandemiya davrida sug‘urta xizmatlari hajmining kamayishi o‘z navbatida qayta sug‘urtaga berilgan javobgarliklar hajmining pasayishiga sabab bo‘lgan) boshqa barcha yillarda o‘sib borganligini ko‘rish mumkin. 2020 yilda qayta sug‘urta javobgarliklarini chet mamlakatlarga berish hajmining pasayishiga faqat pandemiya emas, balki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi 4412-son qarorida qayta sug‘urta bo‘yicha kiritilgan talab ham sabab bo‘lganligini ta’kidlash mumkin. Qayta sug‘urta sohasida mamlakatimiz sug‘urta bozoridagi ijobiy o‘zgarishni ushbu jadvaldan ko‘rish mumkin, bu ham bo‘lsa, mamlakatimiz sug‘urta kompaniyalari tomonidan chet mamlakatlardan qayta sug‘urta javobgarliklarini olish borasidagi faoliyatining yuqori darajada o‘sib

borayotganligini keltirish mumkin. Bu borada yetakchilik qilayotgan kompaniya O'zbekinvest sug'urta kompaniyasi ekanligini qayb etamiz.

O'zbekiston milliy sug'urta bozorida qayta sug'urta sohasi talab darajasida emasligi va qayta sug'urta sig'imi pastligi bozorda maxsus qayta sug'urta tashkilotining mavjud emasligi bilan bog'liq ekanligini yuqorida aytib o'tdik. Bunday maxsus qayta sug'urta tashkilotini tashkil etishdagi asosiy muammo bizning nazarimizda katta miqdordagi ustav kapitalini shakllantirish masalasi bilan bog'liq. O'z faoliyatini kengaytirish, hali katta hajmda o'zlashtirilmagan risklar mavjud bo'lgan bozordagi bunday risklarni sug'urtaga qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lishni maqsad qilgan har bir sug'urta tashkiloti ishonchli va arzon qayta sug'urta xizmatlarining ushbu bozorning o'zida mavjud bo'lishidan manfaatdor.

Bunday imkoniyatga ega bo'lishning har jihatdan maqbul yo'li milliy sug'urta kompaniyalari o'rtasida qayta sug'urtaga ixtisoslashgan o'zaro sug'urtalash jamiyatini tashkil etishdir. Yildan-yilga aktivlari hajmi ortib borayotgan va bugungi kunda (2022 yil natijalari bo'yicha sug'urta kompaniyalarining jami ustav kapitallari hajmi 1.884 mlrd. so'mni tashkil etdi) yirik miqdordagi aktivlarga ega bo'lgan sug'urta kompaniyalari birlashgan holda notijorat shaklidagi qayta sug'urtaga ixtisoslashgan o'zaro sug'urta jamiyatini tashkil etishi mumkin va bu tadbir qayta sug'urta sohasidagi mavjud muammoni hal etadi. Bu esa o'z o'rnida har yili valyuta ko'rinishida chetga chiqib ketayotgan katta miqdordagi qayta sug'urta mukofotlarini milliy bozorda saqlab qolish imkonini beradi. Shu bilan birga, ishonchli va arzon qayta sug'urta xizmatlarining yuzaga kelishiga olib keladi.

O'zaro sug'urta ko'pgina afzalliklarga ega bo'lib, bular sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- a'zolarining bir vaqtning o'zida qayta sug'urtalovchi va qayta sug'urtalanuvchi ekanligi jamiyat faoliyati uchun barcha a'zolarining birday javobgar ekanligini keltirib chiqaradi va bu jamiyat faoliyatining samarali, turli ortiqcha xarajatlardan xoli bo'lishiga olib keladi;

- barcha a'zolarning jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega ekanligi ma'lumotlar shaffoligini hamda qabul qilinayotgan qarorlarning mukammalligi va hamma uchun maqbulligini ta'minlaydi;

- jamiyatning notijorat shaklda tashkil etilishi turli soliqlardan xoli bo'lishiga va natijada to'plangan mablag'larning katta qismini sug'urta hodisalaridan ko'rilgan zararlarni qoplashga yo'naltirish imkoniyati yuzaga keladi;

- a'zolar tomonidan tuzilgan sug'urta va qayta sug'urta shartnomalarida ko'zda tutilgan sug'urta hodisalari yuz berishining oldini olishga qaratilgan ogohlantirish tadbirlarining tizimli yo'lga qo'yilishi sug'urta hodisalari yuz berish darajasining sezilarli pasayishiga olib keladi.

O'zaro sug'urtaning yuqoridagi xususiyatlari milliy sug'urta kompaniyalari ishtirokida tashkil etiladigan qayta sug'urtaga ixtisoslashgan o'zaro sug'urtalash jamiyati faoliyatining yo'lga qo'yilishi ushbu jamiyat faoliyatining samarali rivojlanishiga va mamlakatda qayta sug'urta xizmatlarining talab darajasida yo'lga qo'yilishiga olib keladi.

Amalga oshirilgan tahlillardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, sug'urta infratuzilmasi sug'urta faoliyatining rivojlanishi, xizmatlar hajmi hamda samaradorligining oshishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda mazkur infratuzilma sub'ektlari faoliyati talab darajasida rivojlanmaganligi sug'urta xizmatlarining iqtisodiyotda yetakchi tarmoq sifatida shakllanishini birmuncha sekinlashtirmoqda. Natijada ko'p sondagi potensial sug'urtalanuvchilarda sug'urta xizmatlariga bo'lgan qiziqish pastligicha qolmoqda. Ushbu infratuzilma sub'ektlari faoliyatini rivojlantirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

1. Sug'urta kompaniyalari ishtirokida o'zaro sug'urtaga asoslangan qayta sug'urta jamiyatini tashkil etish orqali milliy sug'urta bozorining qayta sug'urta sig'imini oshirishga erishish.

2. Sug'urta bozorida assistans xizmatlarini rivojlantirish maqsadida assistans faoliyati nizomini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish. Ushbu faoliyatning rivojlanishini rag'batlantirish maqsadida assistans xizmatlarini uch yil muddatga foyda solig'idan (yagona soliqdan) ozod qilish. Sug'urta kompaniyalariga o'z

tarkibida assistans xizmatini tashkil etish yoki alohida assistans tashkiloti bilan assistans xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma tuzish orqali ushbu xizmatni yo'lga qo'yish majburiyatini yuklash.

3. Sug'urta brokerlari faoliyatini rivojlantirish maqsadida brokerlik tashkilotlarini litsenziyalanuvchi sub'ektlar tarkibidan chiqarish va brokerlik tashkilotlarini uch yil muddatga foyda solig'i (yagona soliq) to'lashdan ozod qilish. Uch yildan keyingi davr uchun minimal soliq stavkasini belgilash.

II-BOB BO'YICHA QISQACHA XULOSA

Ushbu bobda O'zbekiston sug'urta bozorining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan bo'lib, tahlillar asosida xulosalar shakllantirilgan, xususan, YaIMda sug'ura mukofotlarining hissasi dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, to'qqiz yillik davr davomida ushbu ko'rsatkich 0,28 foizdan 0,50 foizga yetganligi va bu rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslanganda sezirli darajada past ekanligi va hattoki ba'zi qo'shni mamlakatlarga nisbatan ham pastligi aniqlangan.

Sug'urta xizmatlariga nisbatan potensial sug'urtalanuvchilarda ishonchning pastligi saqlanib qolayotganligi va buning asosiy sabablaridan biri to'plangan sug'urta mukofotlariga nisbatan to'lab berilayotgan sug'urta qoplamalari hajmi sezilarli darajada past ekanligi keltirilgan bo'lib, ushbu holat statistik ma'lumotlar asosida asoslab berilgan. Sug'urta qoplamalari hajmining past darajasiga sabab bo'layotgan holatlar aniqlangan bo'lib, bular sifatida tuzilayotgan sug'urta shartnomalari shartlarining ko'proq sug'urta kompaniyalari manfaatlarini ko'zlagan holda ishlab chiqilayotganligi, bozorda o'zaro raqobatning pastligi va bunga bozorning chet el sug'urta kompaniyalari uchun yopiqligi va shu kabi bir nechta holatlar asos sifatida keltirilgan.

Sug'urta xizmatlari hajmining nisbatan pastligining sabablari aniqlangan bo'lib, asosiy sabablardan biri sifatida sug'urta xizmatlari konsentratsiyasining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi, ya'ni ushbu xizmatlarning asosiy qismi

Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelayotganligi, viloyatlarda sug'urta xizmatlari talab darajasida yo'lga qo'yilmaganligi va buning sabablari keltirilgan.

Ushbu bobda sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ekonometrik tahlil qilish bo'yicha tahlillar olib borilgan bo'lib, muallifning fikriga ko'ra, sug'urta kompaniyalarining samarali faoliyat yuritishida ularning moliyaviy jihatdan barqarorligini ta'minlash masalasi o'ta dolzarb hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik sug'urtalanuvchilarning sug'urtalovchilarga bo'lgan ishonchini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur bobda sug'urta bozori infratuzilmasining mazmun-mohiyati, ushbu infratuzilmaning bozor rivojlanishidagi o'rni ochib berilgan bo'lib, O'zbekiston sug'urta bozori infratuzilmasining hozirgi holati tahlil qilingan va tegishli xulosa va takliflar shakllantirilgan. Xususan, assistans faoliyati va uning bozordagi o'rni chuqur tahlil qilingan. Assistans dunyoning ko'plab mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyatining turi sifatida keng rivojlanganligi, ushbu xizmat turi Fransiyada XX asrning 60-yillari boshlarida paydo bo'lganligi keltirilgan. Assistansning asosiy vazifasi – bu sug'urta kompaniyasi mijozlariga xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qilish, mijozlar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularga xizmat ko'rsatish, xizmat ko'rsatuvchilar (tibbiyot muassasalari, texnik xizmat ko'rsatuvchi markazlar, evakuatorlar, yurist va advokatlar, mehmonxonalar) bilan hamkorlikda ishlashni takomillashtirish, shuningdek mintaqaviy xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, yordamchi assistanslar (sug'urtaga aloqasi bo'lmagan) onlayn transport xizmatlari (taksilar, mikroavtobuslar) tashkil etishni o'z ichiga olgan xizmatlar, shaxsiy assistans (sovg'alar, gullar, kur'erlik xizmatlari, gidlar va boshqalar), uy hayvonlari (mushuk, itlar va h. k) uchun tibbiy xizmat assistansi, ijara (uy, ofis, avtotransport va h. k) assistanslari ham mavjud. Shunday ekan, assistans faoliyati keng qamrovli bo'lib, sug'urtalanuvchilar uchun keng imkoniyatlar yaratib berishi mumkinligini va bu bozorning kengayishiga olib kelishi mumkinligi asoslab berilgan.

Tashkiliy-huquqiy shakliga qarab assistanslar sug'urta kompaniyasi tarkibidagi va alohida yuridik shaxs sifatidagi ko'p tarmoqli assistans

(multiassistans) shaklida bo‘ladi. Sug‘urta kompaniyasi tarkibida assistansni tashkil etishning ijobiy tomonlari bu sug‘urta mahsulotlarini yaratish va sotish bo‘limlari bilan o‘zaro yaxshi konstruktiv aloqalarning shakllanishidir. Bunday aloqalar hamkorlikda ishlash tizimini kuchaytiradi va natijada mijozlarga yuqori sifatli xizmatlar ko‘rsatiladi, shuningdek, mijozlarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga tezkor ta’sir qilish imkoniyatini oshiradi. Ammo ko‘p hollar bunday assistans kompaniya ehtiyojlari bilan cheklanib qoladi va mustaqil rivojlanish imkoniyatlaridan mahrum bo‘ladi.

Faoliyat turiga qarab, assistans ixtisoslashgan va universal assistanslarga bo‘linadi. Hududiy jihatdan esa hududiy (bir hududda), hududlararo (bir nechta hududlar o‘rtasida), milliy (bir mamalkatda) va xalqaro (mintaqaning bir qator mamlakatlarida) va transmilliy (ko‘plab mintaqalar xududlarida) assistanslarga bo‘linadi.

Assistans xizmatlari bo‘yicha ushbu bobda xulosa sifatida ta’kidlanadiki, sug‘urta bozorida assistans faoliyatini bu bozor mexanizmlarining ishlashini, ya’ni sug‘urtalanuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar), sug‘urta mahsulotlarini iste’mol qiluvchilarning sug‘urta xizmatlaridan foydalanish paytida yuzaga keladigan muammolarini hal qilish, oldini olish, ularga yordam (tibbiy, texnik, huquqiy) berish, ularni qo‘llab-quvvatlashda muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, bozorda faoliyat yuritish va raqobatchilardan ustunlikni ta’minlashda sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta shartnomasi imzolanganidan keyingi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu faoliyat turini bozorda assistans kompaniyalari taqdim etadi.

Umuman olganda, mazkur bobda amalga oshirish ko‘zda tutilgan vazifalar bajarildi.

III-BOB. O‘ZBEKISTON MILLIY SUG‘URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

3.1. Sug‘urta bozorini rivojlantirish va tartibga solishda davlat ishtirokini institutsional rivojlantirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev rahbarligida oxirgi 5 yilda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar ro‘y berdi, barcha sohalarda islohotlar olib borilib, ular izchillik bilan davom ettirilmoqda. Ayniqsa, mamlakatimizning xalqaro maydonda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, Respublikamiz iqtisodiy ravnaqi va salohiyatini yanada ko‘tarish maqsadida jahondagi ilg‘or moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish va sohalarda ishlarni xorij tajribalari asosida tashkil etish yuzasidan muhim huquqiy va me‘yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda. Sohalar faoliyatiga oid ayrim qonunlar va qonun osti me‘yoriy hujjatlar xalqaro andozalarga mos keltirilib qayta ishlab chiqilgan holda amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Xususan, mamlakatimiz ijtimoiy va iqtisodiyot hayotida alohida o‘ringa ega bo‘lgan sug‘urta sohasida ham islohotlar olib borilmoqda. Oxirgi 5 yil davomida ushbu sohaga oid qonunchlik hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining bir qator Farmon va Qarorlari qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustda «O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ – 4412-son Qarorining qabul qilinishi sug‘urtaning Respublika iqtisodiyotidagi o‘rnini belgilab berdi. Bundan tashqari, ushbu qarorda «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunning yangi taxriri ishlab chiqish belgilangan bo‘lib, bugungi kunda qonun ishlab chiqilib, amalga kiritildi. Mazkur qonun oldingi qonunga nisbatan sezilarli darajada keng qamrovli ekanligini oldingi 29 ta moddadan 72 taga ko‘payganligida ko‘rish mumkin.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sug'urtaning o'rnini ko'rsatib berish, ayniqsa, himoya vositasi sifatida sug'urtaning afzalliklarini va aholini ijtimoiy himoya qilish yuzasidan mohiyatini belgilab berish bugungi kun talabi bo'lib turibdi. Ammo, hozirgi vaqtda aholi va mijozlar o'rtasida sug'urta bo'yicha targ'ibot ishlarining yetarli emasligi aholining sug'urta to'g'risidagi huquqiy bilimlarining yetarli emasligiga, bu esa o'z o'rnida ularda sohaga bo'lgan ishonchsizlikning saqlanib qolishiga, oxir oqibatda sug'urta xizmatlarining Respublika iqtisodiy ko'rsatkichlaridagi ulushi pastligicha qolishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlarini sug'urtaga qamrab olish darajasi past. Tadbirkorlik faoliyati mamlakatimizda yuqori darajada kengayib bormoqda va o'z-o'zidan ular faoliyati bilan bog'liq risklar xilma-xilligi ortib bormoqda, ammo mavjud risklarning katta qismi sug'urta xizmatlari bilan ta'minlanmayapti. Faqatgina tadbirkorlik sub'ektlarining tijorat banklari bilan bog'liq risklarigina sug'urta himoyasiga olinmoqda.

2008 yilda qabul qilingan TVEFJMS, 2009 yilda qabul qilingan IFJMS va 2015 yilda qabul qilingan TFJMS majburiy sug'urta turlari ichida TVEFJMS bo'yicha transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urta xizmatlari bilan yuqori darajada qamrab olingan. Qolgan ikkita majburiy sug'urta turi bo'yicha majburiy sug'urtalanishi kerak bo'lgan sub'ektlarning katta qismi sug'urtalanmay qolmoqda.

Hozirgi zamon milliy sug'urta tizimining rivoji uning huquqiy bazasining qanchalik darajada takomillashganligi, davlatning soliq va pul-kredit siyosatining samaradorligi, sug'urta kompaniyalari ustidan davlat nazoratining mukammalligi hamda sug'urta kompaniyalarining to'lovga qobillik darajasiga bog'liq. Shu xususda mamlakat Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan sug'urtaga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirda shunday deyilgan edi: "Sohaga nazoratchi emas, ilg'or va zamonaviy standartlarni joriy etadigan, barcha ishtirokchilar o'rtasida chinakam raqobat muhitini yaratib, sug'urta bozorini rivojlantiradigan tuzilma kerak"⁶⁷. Shundan kelib

⁶⁷ Mirziyoev Sh. Sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilish. 2019 yil 10-iyul. <https://sputniknews-uz.com>

chiqqan holda, Prezident tomonidan 2019 yil 2 avgustda qabul qilingan 4412-son qarorda nazoratchi organ o'rniga Sug'urta bozorini rivojlantirish Agentligini tashkil etish masalasi qo'yildi. Tuziladigan Agentlikning zimmasiga, sug'urta tarmog'ini rivojlantirishning o'rta va uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va 2022 yilga kelib kishi boshiga to'g'ri keladigan sug'urta mukofotlarini 3 marta oshirish, uning YaIMdagi hissasini 2 marta oshirish vazifasi qo'yildi. Zamonaviy eksport sug'urtasini joriy etish, davlat tomonidan avtomobil va havo transportidan foydalanish xarajatlarining bir qismini davlat mablag'lari hisobidan qoplash belgilandi. Sug'urta kompaniyalarining ikkinchi asosiy daromad manbai bo'lgan investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida ularning lizing faoliyati bilan shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratib berish va shu maqsadda lizing faoliyatini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish masalasi qo'yildi. Bundan tashqari milliy sug'urta kompaniyalarining xalqaro moliya bozorlariga chiqishlari, ilg'or korporativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali xalqaro reytinglarga ega bo'lishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berish masalasi qo'yildi. Shu bilan birga, sug'urta sohasidagi zamonaviy kadrlarni tayyorlash, taniqli chet el universitetlarida mutaxassislar tayyorlash va yetakchi sug'urta kompaniyalarida malaka oshirishlarini ta'minlash belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 oktyabrda qabul qilingan "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5265-sonli qaroriga ko'ra 2022 1 iyuldan boshlab sug'urtaning barcha turlarini elektron shaklda amalga oshirishga ruxsat berildi, barcha sug'urta polislarini yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimida ro'yxatga olishni tashkil qilish belgilandi, 2023 yildan boshlab majburiy sug'urtaning barcha turlari bo'yicha sug'urta polislarini qog'oz blankalarda rasmiylashtirish amaliyoti bekor qilinishi belgilab qo'yildi.

Yuqoridagi qaror asosida sug'urta sohasida yana soliq imtiyozlari belgilandi, xususan, 2022 yil 1 yanvardan 2025 yil 1 yanvarga qadar hayot sug'urtasi sohasida faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlarining mazkur faoliyat qismi uchun hisblanadigan foyda solig'i bo'yicha belgilangan soliq stavkasi 50 foizga

kamaytirildi, 2024 yil 1 yanvarga qadar ish beruvchi tomonidan o'z xodimlari uchun baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish va tibbiy sug'urta turlari bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari uchun yo'naltiriladigan mablag'lar jismoniy shaxslarning jami daromadi sifatida qaralmaydigan bo'ldi. Mazkur qaror asosida 2021-2023yillarda hayot sug'urtasi hamda shaxsiy sug'urta turlarini rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritasi tasdiqlandi.

Yuqorida keltirilgan Prezident qarorlarining qabul qilinishi, yangitdan tashkil etilgan Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligining faoliyat mazmuni sug'urta sohasini nazorat qilish emas, balki rivojlantirishga qaratilishi, sug'urtalovchilar uchun yangi soliq imtiyozlarining belgilanishi, sug'urta xizmatlarini onlayn-sotuvning kengayishi hamda mamlakat iqtisodiyotining o'sishi va aholi daromadlarining ortishi sug'urta xizmatlari va sug'urta bozorining kengayishiga shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Ammo shunday bo'lsada, sug'urta bozorining o'ziga xos xususiyati ushbu bozorda sug'urta xizmatlarini taklif etayotgan va boshqa xizmatlarni ko'rsatayotgan ishtirokchilar faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish zaruratini keltirib chiqaradi.

Davlat sug'urta nazorati sug'urta faoliyatini tartibga solishning muhim unsuri hisoblanadi. O'zbekistonda sug'urta nazorati Vazirlar mahkamasining 1998- yil 8-iyuldagi 286-sonli qaroriga asosan Moliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan. O'zbekistonda davlatning sug'urta sohasi bo'yicha faoliyati keng ko'lamli bo'lib, sug'urta faoliyatida davlat aralashuvi samaradorligining yuqori bo'lishini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- sug'urta himoyasini ta'minlashda sug'urtalanuvchi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini o'zida mujassamlashtirgan mexanizmni ishlab chiqish;

- milliy sug'urta bozorida raqobat muhitining yuzaga kelishini ta'minlovchi, "soxta sug'urtalovchi"lar faoliyatiga chek qo'yuvchi huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish va ularning tatbiq etilishini ta'minlash;

– sugʻurtalovchilarning qimmatli qogʻozlar bozori, fond birjalaridagi toʻgʻridan-toʻgʻri faoliyatlarini ragʻbatlantirish;

– sugʻurta faoliyati rivojlangan malakatlar bilan hamkorlikni kengaytirish asosida xalqaro bozorga kirib borish va bu bozorda oʻz oʻrniga ega boʻlishni maqsad qilib qoʻyish;

- sugʻurta bozorida oʻzaro raqobatni taʼminlash va xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida sugʻurtaning boshqa shakllarini (oʻzaro sugʻurta, takaful sugʻurtasi) amalga kiritish hamda sugʻurta bozori infratuzilmasi subʼektlari faoliyatini kengaytirish maqsadida ular faoliyatini ragʻbatlantirish;

– aholining va yuridik shaxslarning sugʻurtaga boʻlgan ishonchini taʼminlash maqsadida, sugʻurta shartnomalari shartlarini nazoratga olish orqali sugʻurtalanuvchi va sugʻurtalovchi manfaatlarini birday koʻzda tutadigan va shu asosda sugʻurta hodisasi yuz berganda hech qanday moʻneliksiz sugʻurta qoplamasining toʻlab berilishini taʼminlash;

– sugʻurta sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni kengaytirish, buning uchun sugʻurta tashkilotlariga ishga qabul qilishda sugʻurta yoʻnalishida oʻqib oliy maʼlumotga ega boʻlgan mutaxassislarni ishga olishni ragʻbatlantirish, bozorda yetishmayotgan aktuariylar, syurveerlar, adjasterlar va assistans xizmati mutaxassislarini tayyorlashni yoʻlga qoʻyish;

- sugʻurta bozorida oʻzaro raqobatni kuchaytirish va xorijning ilgʻor tajribalarini toʻgʻridan-toʻgʻri oʻrganish imkonini yaratish maqsadida ilgʻor xorijiy sugʻurta kompaniyalarining Oʻzbekiston sugʻurta bozorida faoliyat koʻrsatishlariga yoʻl ochib berish.

2021 yilda umumiy sug'urta tarmog'ida sug'urta qoplamalarini eng kam to'lagan va umuman to'lamagan sug'urta kompaniyalari⁶⁸

№	Sug'urta kompaniyalari	Sug'urta mukofotlari (mln. so'mda)	Sug'urta qoplamalari (mln. so'mda)	Sug'urta mukofotiga nisbatan qoplamalar, %
1.	Temiryo'l-sug'urta MChJ	135316	13162	10
2.	Imkon sug'urta MChJ	77524	7828	10
3.	Xalq sug'urta	39991	3790	9
4.	Inson MChJ	36572	2956	8
5.	Hamkor sug'urta	35218	3694	10
6.	Trust-Insurance MChJ	16571	45	0,3
7.	Ariya sug'urta tashkiloti MChJ	13081	211	2
8.	Omad-sug'urta MChJ	12282	802	7
9.	Impex Insurance MChJ	5124	-	-
10.	Unipolis MChJ	3184	297	9

Biz yuqorida “soxta sug'urtalovchilar” degan iborani qo'lladik. Bunday sug'urtachilar bizning mamlakatimizda mavjudmi va buni nima bilan asoslash mumkin? 3.1-jadval ma'lumotlari bunga asos bo'ladi deb hisoblaymiz. Ushbu jadvalga ko'ra 2021 yil natijalari bo'yicha o'nta shunday nom bilan atash mumkin bo'lgan sug'urta kompaniyalarini keltirish mumkin. Yil davomida Impex Insurance MChJ sug'urta kompaniyasi 5 mlrd. 124 mln. so'm sug'urta mukofoti to'plab, 1 so'm ham sug'urta qoplamasi to'lamagan. Trust-Insurance MChJ sug'urta kompaniyasi yil davomida 16 mlrd. 571 mln. so'm sug'urta mukofoti to'plagan holda, bor-yo'g'i 45 mln. so'm suug'urta qoplamasi to'lab bergan va hokazo.

⁶⁸ IMDA.UZ sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Aslida sugʻurta faoliyati fuqarolarga nisbatan olib qaraganda ijtimoiy himoyaning bir koʻrinishi, yuridik shaxslarga nisbatan esa ular faoliyati bilan bogʻliq risklarni kafolatlash orqali ularning moliyaviy barqarorligini taʼminlash vositasi hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda sugʻurta shartnomalarining zararlilik darajasi 60-80 foizdan kam boʻlmaydi. 3.1-jadvalda keltirilgan sugʻurta kompaniyalarining zararlilik darajasi 0 dan 10 foizgachani tashkil etmoqda. Sugʻurta hodisalarining yuz berish darajasi bu qadar past boʻlishi mumkin boʻlmagan holat. Bunday koʻrsatkich bilan odamlarda sugʻurta xizmatlariga boʻlgan ishonch va qiziqishni taʼminlab boʻlmaydi.

Davlatning sugʻurta sektorini rivojlantirishga boʻlgan qiziqishi iqtisodiyot subʼektlari faoliyatida kutilmaganda yuzaga keladigan turli koʻrinishdagi zararlarni qoplash orqali iqtisodiyotning bir tekis rivojlanishini taʼminlashi bilan bogʻliq. Bunday imkoniyat sugʻurta tashkilotlaridagi mavjud xususiy aktivlarning hamda jalb qilingan aktivlarning hajmi bilan bogʻliq. Shu bilan birga, sugʻurta kompaniyalarining ikkinchi asosiy daromad manbai va toʻlovga qobilligini taʼminlovchi manba sifatidagi investitsion faoliyatining samaradorligini taʼminlash uchun mamlakatda investitsion jozibadorlik yuqori boʻlishi muhim hisoblanadi. Ushbu ikki omilning taʼminlanishida davlatning roli yuqori hisoblanadi. Yaʼni sugʻurtalanuvchilar sonining koʻpayishi uchun davlat tomonidan sugʻurtalanuvchilarga turli soliq va boshqa imtiyozlarning taqdim etilishi, investitsion jozibadorlikni taʼminlash uchun esa jozibador investitsiya instrumentlarining ishlab chiqilishi zarur.

Sugʻurta bozorida toʻplanayotgan sugʻurta mukofotlari hajmi bilan belgilanadigan toʻlovga qobillik talabi birinchi oʻrinda mamlakat yalpi ichki mahsuloti darajasi, yaʼni iqtisodiy oʻsish darajasi bilan belgilanadi. Bu shuni anglatadiki, sugʻurtaga boʻlgan talab potensialini baholash iqtisodiy agentlarning oʻsish imkoniyatini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Oxford Economics tomonidan amalga oshirilgan bunday tahlil Braziliya iqtisodiyotining koʻtarilishi, Indoneziya, Malayziya va Birlashgan Arab Amirliklarining iqtisodiyoti esa

pasayishini ko'rsatgan. Ushbu prognoz Xitoy iqtisodiyotining yanada ko'tarilishini ko'rsatgan⁶⁹.

Keng tarzdagi iqtisodiy o'sish bilan birga, quyidagi omillarsiz milliy sug'urta bozorining o'sishini ta'minlashning imkoni yo'q deb hisoblaymiz:

- yaqin kelajakda iqtisodiyot moliyaviy barqarorligining ta'minlanishi;
- foydalanishga qulay bo'lgan sotish kanallarining rivojlanishi;
- bozorning mahsulotlar innovatsiyalarini qabul qilish qobiliyatining mavjudligi;
- sug'urta xizmatlariga iste'mol talabining mavjudligi.

Ma'lumki, iqtisodiyotdagi moliyaviy barqarorlik sug'urta bozorining o'sishini va yangi sug'urta mahsulotlarining paydo bo'lishini ta'minlaydi. 2009 yillardagi bo'lib o'tgan xalqaro iqtisodiy krizisdan keyin rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida yuzaga kelgan barqarorlik ushbu mamlakatlardagi katta qismi o'zlashtirilmagan bozorning rivojlangan sug'urta bozorlariga nisbatan yuqori tezlikda o'sishini ta'minladi. Misol uchun, ushbu mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar hajmining keskin oshishiga olib keldi, bu esa o'z o'rnida kreditlar qaytmasligidan sug'urtalash, kredit uchun garovga qo'yilgan mulk sug'urtasi hamda kredit oluvchining hayoti sug'urtasi kabi sug'urta turlari bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalari hajmining keskin oshishini ta'minladi. Ushbu tendensiya O'zbekistonda ham yuzaga keldi va sug'urta xizmatlari hajmining sezilarli oshishiga olib keldi.

Shunday bo'lsada, O'zbekiston sug'urta bozori rivojlangan va ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar bilan taqqoslanganda sezilarli darajada orqada qolmoqda. Milliy sug'urta bozorini rivojlantirishda davlatning roli muhim bo'lib, davlat ushbu bozorni talab darajasida rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratishi zarur deb hisoblaymiz:

- sug'urta bozori va institutlari huquqiy bazasini takomillashtirish;

⁶⁹ Oxford Economics [electron resurs]. URL: <http://www.oxfordeconomics.com/forecasts-and-models>

- ixtiyoriy va majburiy sug'urta instrumentlarining balanslashgan tarkibini shakllantirish;

- davlat tomonidan sug'urta bozorini tartibga solishning samarali vositalarini ishlab chiqish;

- uy xo'jaliklarining jamg'armalarini uzoq muddatli hayot sug'urtasi vositasida investitsiyaga yo'naltirishga motivatsiyalar yaratish;

- milliy sug'urta bozorining xalqaro sug'urta bozorlari bilan integratsiyalashuvini bosqichma-bosqich shakllantirib borish.

- milliy sug'urta bozorining nufuzini oshirish uchun turli katastrofik holatlar natijasida uy xo'jaliklari va korxonalar ko'rgan zararlarni qoplashda sug'urta kompaniyalarining ishtirokini oshirish. Buning uchun xavfli ob'ektlarni aniqlash bo'yicha inventarizatsiya tadbirlarini amalga oshirish, aniqlangan ob'ektlarning real qiymatini aniqlash va shu asosda ularni majburiy sug'urta yo'li bilan yoki boshqa jalb qilish usullari yordamida sug'urtalashga erishish.

Ma'lumki, mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'ringa ega. Ushbu tarmoqning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi 28 foizdan ortiqni tashkil etayotganligi mazkur sohani ishonchli sug'urta xizmatlari bilan ta'minlashning muhimlik darajasini oshiradi. Bu esa ushbu masalani davlat darajasida hal etishni taqozo etadi. Mazkur masalaga deyarli barcha mamlakatlarda davlat alohida e'tibor qaratadi, turli soliq imtiyozlari berish hamda subsidiyalar ajratish orqali mavjud risklarning sug'urtaviy ta'minotini amalga oshiradi. Qishloq xo'jaligi sug'urtasi infratuzilmasida davlat institutlari yetakchi rol o'ynaydi. Ular maxsus tarzda sug'urtani rag'batlantirish va tartibga solish funksiyalarini bajaradi, institutsional muhitni shakllantiradi, sug'urta tizimini rivojlantirishning umumiy qoidalarini ishlab chiqadi, shu sohadagi tashkiliy institutlarni yaratadi.

Qishloq xo'jaligini sug'urtalashga ko'maklashuvchi institutlar qatoriga ushbu sohaga ajratiladigan byudjet mablag'larini boshqarish bo'yicha idoralar, meteorologiya va atrof-muhit monitoringi xizmatlari, hakamluk sudlari, davlat banklari, sug'urta sohasini tartibga solish va rivojlantirishga ixtisoslashgan tashkilotlar kiradi. Fermer va dehqon xo'jaliklarida yirik yo'qotishlar xavfi barcha

qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari ham to'lashga qodir bo'lmagan sug'urta narxlarining shakllanishiga sabab bo'ladi. Qishloq xo'jaligi barcha aholi va butun mamlakat uchun muhim soha ekanligi yuqori narxga ega bo'lgan sug'urta xizmatlari uchun davlat subsidiyalariga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, sug'urta jarayoni barcha ishtirokchilarining manfaatlari turlicha ekanligi diametral qarama-qarshi yo'nalishlarni hosil qiladi. Bunday holatda turli ta'sir vositalariga ega bo'lgan davlat bunday qarama-qarshiliklarni o'zaro muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, sug'urta jarayonini davlat tomonidan tartibga solish, odatda, davlat darajasida ham, qishloq xo'jaligi korxonalarida ham risklarni boshqarishning boshqa vositalari bilan birgalikda olib borilganda samarali bo'ladi. Xalqaro savdoni liberallashtirish va yaqin yillarda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish sharoitida qishloq xo'jaligi sug'urtasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning roli yanada ortadi. JSTga a'zolik sharoiti o'zaro bog'liq qo'llab-quvvatlashlarni kamaytirish, tarifli kvotalash, mahsulotlar va alohida qishloq ishlab chiqaruvchilarini subsidiyalashni kamaytirish, import tariflarini pasaytirishni ko'zda tutadi.

Qishloq xo'jaligi risklarini boshqarishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samaradorligi nuqtai-nazaridan, byudjet mablag'larini xo'jaliklarda yuzaga kelgan hodisalar natijasida ko'rilgan zararlarni to'g'ridan-to'g'ri qoplashga yo'naltirishdan ko'ra, ushbu mablag'larni sug'urtaga yo'naltirish orqali xo'jaliklarni yoppasiga sug'urtalashga erishish har jihatdan samarali hisoblanadi.

Birinchi, bunday usulda sug'urta fondi davlat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari o'rtasida birgalikda shakllantiriladi va bu fond hajmini kengaytirish hamda undan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Ikkinchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini sug'urta orqali qo'llab-quvvatlash, ulardagi boqimandalik xususiyatini yo'qotadi, risklarni boshqarishning yana boshqa yo'llarini izlab topishga undaydi.

Uchinchi, davlat zimmasidagi ma'muriy yuk hajmi uni sug'urtalovchilarga o'tkazish orqali kamayadi.

To‘rtinchidan, sug‘urta davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanganda mablag‘lar bir maromda to‘planib boradi va yirik zararlarni ham qoplash imkoniyati yuzaga keladi.

Beshinchidan, sug‘urtani byudjetdan qo‘llab-quvvatlash, xo‘jaliklarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab quvvatlashga nisbatan bozor qoidalariga ko‘proq mos keladi.

Ko‘plab mamlakatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lovlar faqat katastrofik holatlarda yoki aniq milliy dasturlarni amalga oshirishda qo‘llaniladi⁷⁰.

Qishloq xo‘jaligini sug‘urtalashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash sug‘urtaning risklarni boshqarish instrumenti sifatidagi rolini yanada oshirish, tabiiy va boshqa ko‘rinishdagi hodisalardan ko‘riladigan zararlarni o‘z vaqtida qoplash orqali qishloq xo‘jaligining bir tekis rivojlanishini ta‘minlash, kredit resurslari va lizing xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini hamda qishloq xo‘jaligi sohasining investitsion jozibadorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda hamda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi ayniqsa so‘nggi yillarda pasayganligini hisobga olgan holda quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

- risklarning turli-tumanligi va ular masshtabining kengligi, xavfni oldindan ko‘ra bilishning imkonsizligi, kumulyativlik, katastrofik holatlarning yuz berib turishi bu ko‘rinishdagi zararlarni qoplash uchun katta hajmdagi sug‘urta zahiralariga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Bunday zahiraga ega bo‘lish uchun potensial sug‘urtalanuvchilarni yoppasiga sug‘urtalash va bunga erishish uchun sug‘urta mukofotlarining bir qismini davlat mablag‘lari hisobidan to‘lab berishni yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi.

- qishloq xo‘jaligi sug‘urtasining zararlilik darajasi yuqori ekanligi ushbu sohani ishonchli qayta sug‘urta xizmatlari bilan ta‘minlashning muhimligini keltirib chiqaradi. Mamlakatimizda maxsus qayta sug‘urta kompaniyasining mavjud

⁷⁰ Sokolova I. A. Straxovanie selskoxozyaystvennoy deyatelnosti - element agrarnoy politiki//Ekonomika selskogo xozyaystva Rossii. – 2010. - № 10. – s. 56-64

emasligi trasmilliy chet el qayta sug'urtalovchilarini jalb qilish orqali ushbu muammoni hal etish maqbul yechimdir.

3.2. Sug'urta xizmatlariga bo'lgan iste'mol talabini oshirishning innovatsion yo'llari

Sug'urta sohasini hozirgi zamon talablari darajasida rivojlantirishda innovatsiyalarni qo'llash keng imkoniyatlarni ochib beradi. Yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, ularni xizmat sifatida sug'urtalanuvchilarga taqdim etish hamda ko'rsatish usullari va texnologiyalari, sotish kanallari, yangi innovatsion infratuzilmani shakllantirish va milliy sug'urta bozorini rivojlantirish sharoitida dolzarb ilmiy va amaliy muammo bo'lib qolmoqda. Sug'urtani konservativ nuqtai nazardan rivojlantirib bo'lmaydi, uning rivojlanishi innovatsiyalarni doimiy ravishda joriy etish bilan birga, ko'plab yangi xizmat turlarining shakllanishi, ularni sotishning yangi texnologiyalari va sug'urta sohasidagi turli xil moliyaviy munosabatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Sug'urtada innovatsiya tushunchasi deganda, sug'urta faoliyatining va sug'urta texnologiyalarining har qanday yangi ko'rinishlarini bozordagi professional ishtirokchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikda amalga oshirish faoliyati tushuniladi. Bunday hamkorlik natijasida esa ularni qo'llash hududi kengayadi va bu kutilgan natijaga olib keladi. Sug'urtada davriylikka asoslangan uch xil ko'rinishdagi innovatsiyalar mavjud:

1. Sug'urta mahsulotlarini sotishni kengaytirishga xizmat qiluvchi innovatsiyalar – taklif etilayotgan sug'urta turlarining tannarxini pasaytirishga erishish orqali ommabop narxlarda sug'urta mahsulotlarini sotishga o'tish. Bunday innovatsiyalar sug'urta bozorining ekstensiv ravishda kengayishiga olib keladi.

2. Erishilgan sotish hajmini saqlashga imkoniyat yaratadigan innovatsiyalar. Bunday innovatsiyalar sug'urta mahsuloti dizaynini yaxshilash evaziga, o'xshash bo'lsada ko'p jihatdan yangilangan va sotish uchun qo'lay mahsulotlar yaratilishiga olib keladi.

3. Faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsiyalar – biznes yuritish xarajatlarini pasaytirish va sug'urta mahsulotlari rentabelligini oshirishga

xizmat qiluvchi (masalan internet orqali sotishni yo'lga qo'yish orqali sotish xarajatlarini kamaytirishga erishish) innovatsiyalar.

Bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasidagi keskin o'zgarishlar, globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sut'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda. Bular sifatida sug'urta va lizing hamda boshqa moliyaviy xizmatlar hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobidan kengaytirish, shuningdek, kapitalni jalb qilish hamda moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish muhim yo'nalishlardan hisoblanadi.

Ma'lumki, jahon amaliyotida yirik tavakkalchiliklarni sug'urtalashda mamlakatdagi bir necha sug'urta tashkilotlarini guruhlariga, jamiyatlarga yoki uyushmalarga birlashtirish orqali qayta sug'urtalash tashkilotlarini tuzish tajribasi XIX asrdayoq yo'lga qo'yilgan. Mamlakatimizda esa hozirga qadar ushbu mexanizmdan foydalanilmaydi. Natijada katta miqdordagi sug'urta mukofotlari qayta sug'urtalash uchun chet mamlakatlarga valyuta ko'rinishida chiqib ketmoqda. Milliy sug'urta bozorida bugungi kunga qadar maxsus qayta sug'urta tashkiloti mavjud emas. Bunday tashkilotni davlatning ko'magi va tashabbuskorligida tashkil etish zarur deb hisoblaymiz.

Milliy sug'urta bozoridagi og'riqli nuqtalardan biri kadrlar salohiyati bilan bog'liq. Bugungi kunda soha xodimlarining 60 foizdar ortig'i o'rta maxsus ma'lumotga ega. Sohada faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning katta qismi sug'urta yo'nalishida emas, balki turli boshqa sohalarda ta'lim olgan kadrlardan tashkil topgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustda qabul qilingan 4412-son qarorida sug'urta kompaniyalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'rta maxsus ta'lim muassasalarini tugatgan xodimlarni test sinovlarisiz oliy o'quv yurtiga qabul qilish imtiyozini belgilanganligi ushbu muammoni yumshatishga hissa qo'shishi kutilmoqda. Ammo sug'urta kompaniyalari tomonidan yangi xodimlarni ishga qabul qilishda nomzodning tamomlagan mutaxassisligini e'tiborga olishga e'tibor

qaratilmayotganligi yuqoridagi qarorda taqdim etilgan imtiyozdan yetarli darajada foydalanishga bo'lgan qiziqishni susaytirmoqda.

Sug'urta kompaniyalarida agent sifatida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar va alohida sug'urta agentliklarida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta agentlarining asosiy qismi turli yo'nalishdagi o'rta maxsus bilim yurtlarini tugatgan hamda sug'urta sohasida yetarli bilim va tajribaga ega bo'lmagan kadrlardan tashkil topganligi ular tomonidan mijozlarga tuzilayotgan sug'urta shartnomalari hamda umuman sug'urta to'g'risida to'g'ri va to'liq ma'lumot berilmasligi natijasida sug'urtalanuvchilar sug'urta to'g'risida va o'zlari imzolagan sug'urta shartnomasi shartlarini to'liq tushunib olish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar. Oqibatda sug'urta hodisasi yuz berganda o'z haq-huquqlarini talab qilib ololmaydilar va natijada ularda sug'urtaga bo'lgan ishonchsizlik paydo bo'ladi va sug'urtaga bo'lgan qiziqish pasayadi.

O'zbekistonda shu paytgacha qadar shaxsiy sug'urta turlarini keng ommalashgan deb bo'lmaydi. Ushbu muammoni hal etishda innovatsion shaxsiy sug'urta turlarini ishlab chiqish va joriy etish zarur deb hisoblaymiz. Shaxsiy sug'urtaning nafaqat bizning mamlakatimizda, balki Rossiyada ham keng rivojlanmaganligini ta'kidlash mumkin. Shu masalada chet ellik olimlar quyidagi fikrlarni bildirishadi:

- umumiy holda aytganda, quyidagi holatlar ixtiyoriy shaxsiy sug'urta bozorining rivojiga to'sqinlik qilib kelmoqda: aholida sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchning pastligi, mamlakat aholisining asosiy qismi shaxsiy sug'urta xizmatlaridan foydalana olmaydilar, buning sababi ular to'lov qobiliyatining pastligi, shaxsiy sug'urta rivojlanishiga noqulay soliq qoidalarining to'sqinlik qilishi. Aslida esa ular sug'urtalanuvchilarda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni shakllantirishga yordam berishi kerak, kompaniyalarninigi sug'urta xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatish va tanishtirish mexanizmlarining yetarli emasligi, aslida bu ularning ommabopligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi, sug'urta zahiralari joylashtirish uchun ishonchli investitsiya vositalarining yo'qligi, mintaqaviy yoki hududiy sug'urta bozorlari infratuzilmasining rivojlanmaganligi, sug'urta sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish sust darajada

olib borilayotganligi, shuningdek ularda sugʻurtalanuvchilar manfaatlari toʻliq aks ettirilmasligi⁷¹.

Chrysovalantis Gaganisa va boshqalar sugʻurta sohasida innovatsiyalarni joriy etishda koʻp omillarni hisobga olish kerakligini taʼkidlab oʻtishgan, masalan, maʼlum bir mamlakatda joriy etilgan yangi sugʻurta mahsulotlari boshqa davlatlarda yashab qolishi qiyin kechadi. Sugʻurtada innovatsiyalarni joriy etish mamlakatning barcha iqtisodiy omillari (iqtisodiy oʻsish, qayta moliyalash stavkasi, sugʻurtaning rivojlanganlik darajasi va huquqiy asoslari) bilan birga, ijtimoiy va siyosiy omillarni (sugʻurta madaniyati, halqning urf odatlari, diniy kelib chiqishi, siyosiy omillarning holati) hisobga olishni taqozo etadi⁷². Darius Lakdawalla va boshqalar shaxsiy sugʻurta sohasida innovatsiyalarning qoʻllanilishi koʻplab ijobiy natijalarni berishi mumkinligini, jumladan, sugʻurtalashda innovatsiyalar nafaqat sugʻurta kompaniyasi tomonidan joriy etiladigan yangi sugʻurta mahsulotlari yoki sotish kanallarini rivojlantirish, balki mijozning ularni qabul qilish borasida tayyorlik darajasiga bogʻliqligi ham muhim hisoblanadi⁷³. N.V. Maslennikova sugʻurtada innovatsiyalarni joriy etishda qoʻplab tadqiqotlar olib borgan. Bunday innovatsiyalardan biri, mikrosugʻurta turlarini sugʻurta bozoriga joriy etish hisoblanadi. Shuningdek, innovatsiyalarni rivojlantirishda salbiy taʼsir koʻrsatadigan omillar aniqlanmagan⁷⁴.

Oʻzbekiston sugʻurta bozorida yaqin istiqbolda mamlakatda jadal surʼatlarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanayotganligi, ekotizimlar va barcha sohalarda onlayn-sotuvlarning kengayib borishi hamda yuridik va jismoniy shaxslar toʻlov qobiliyatining oshib borayotganligi ular oʻrtasida sugʻurta xizmatlariga boʻlgan isteʼmol talabining oshishiga olib keladi. Yangicha bozor sharoitlarining yaratilishi sugʻurtalovchilarning sugʻurta mahsulotlari tarkibini qayta koʻrib chiqishlari va

⁷¹ Vorotilova O.A. Problemi razvitiya lichnogo straxovaniya v Rossii. Mejdunarodniy jurnal sotsialnix i gumanitarnix nauk. – 2016. – T. 7. №1. – S. 171-174.

⁷² Chrysovalantis Gaganisa, Iftekhar Hasanb, Panagiota Papadimitrie, Menelaos Tasioue. National culture and risk-taking: Evidence from the insurance industry. Journal of Business Research 97 (2019) 104–116 p.

⁷³ Darius Lakdawalla, Anup Malani, Julian Reif. The insurance value of medical innovation. Journal of Public Economics 145 (2017) 94–102 p.

⁷⁴ Maslennikova, N.V. Sushnost i soderjanie sistemi mikrostraxovaniya / N.V. Maslennikova // Novaya nauka: strategii i vektori razvitiya: Mejdunarodnoe nauchnoe periodicheskoe izdanie po itogam Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii (19 maya 2016 g., Ijevsk) v 3 ch. Ch.1 – Sterlitamak: AMI, 2016. – S. 150-152.

sug'urtalanuvchilarning o'zgarib borayotgan talablarini qondiradigan innovatsion sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqishlarini rag'batlantiradi. Mazkur o'zgarishlar innovatsion texnologiyalar va servislarni uyg'unlashtirgan holda sug'urta bozorining bundan buyongi rivojlanishini ta'minlaydi.

3.2-jadval

Sug'urta faoliyatini innovatsiyalar asosida tashkil etish yo'nalishlari⁷⁵

Innovatsion faoliyat yo'nalishlari va turlari				
1. Yangi mahsulotlarni joriy etish				
Sug'urta mahsulotlari yadrosini o'zgartirish		Sug'urta mahsulotlari qobig'ini o'zgartirish		Yangi maqsadli takliflar
Sug'urta mahsulotining yangi fragmentlari	Maqsadli guruhlar uchun yangi rimklar	Sug'urta mahsulotining yangi arxitekturasi	Sug'urta mahsulotining yangi dizayni	Ijtimoiy tarmoqlardan sug'urtalanuvchi haqida to'plangan ma'lumotlardan kelib chiqib ishlab chiqilgan yangi mahsulotlar
2. Yangi texnologiyalarni qo'llash				
Raqamli texnologiyalar				Internet vositalari
Tele texnologiyalar	Blokcheyn	Big Data	Onlayn texnologiyalar	Sug'urta ob'ektining aqlli obrazini yaratish
3. Sug'urta mahsulotlarini sotishning yangi kanallari				
Internet orqali sotish		Mobil telefonlar, Smartfonlar, Planshetlar		Agregatorlar

S.V. Aksyutina tomonidan ishlab chiqilgan jadvalda (3.2-jadval) sug'urta faoliyatini innovatsiyalar asosida tashkil etish yo'nalishlari sifatida yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, raqamli texnologiyalar va internet vositalarini qo'llash hamda sug'urta mahsulotlarini sotishni internet, mobil telefonlar, smartfon va planshetlar hamda agregatorlar orqali yo'lga qo'yish keltirilgan. Ushbu keltirilganlar ichida mamlakatimizda faqatgina sug'urta polislarini onlayn-sotishning dastlabki qadamlari qo'yilganligini ta'kidlash mumkin.

⁷⁵ Aksyutina S.V. Transformatsiya straxovaniya: innovatsionnie produkti i texnologii. //Ekonomika, predprinimatelstva i pravo. Tom 10, №2 fevral 2020

Sugʻurta kompaniyalari yuqorida keltirilganlar bilan bir qatorda, innovatsion sugʻurta mahsulotlari sifatida aniq faktga asoslangan telematika va sugʻurta, telemeditsina, narsalar interneti (IoT), masofaviy tibbiyot va maʼlumotlarni raqamlashtirish, parametrik sugʻurta turlarini rivojlantirishga eʼtiborni qaratishlari oʻz samarasini beradi deb hisoblaymiz.

Pandemiya sharoitida jamiyat yashash va faoliyat koʻrsatishning yangicha yoʻllarini qidirib topishga, ijtimoiy muhit uchun qulay sharoitlarni yaratishga harakat qildi. Masofaviy xizmatlar vositasida tibbiy yordam va maslahatlar olish soʻngi yillarda koʻpgina mamlakatlarda kengayib bormoqda. Bunday masofaviy xizmatning rivojlanishi sugʻurta xizmatlari onlayn sotuvining ham shakllanishi va rivojlanishiga olib kelmoqda. Yunoncha "tele-" prefiksi "uzoq" degan maʼnoni anglatadi va maʼlumotlarni masofadan uzatishni bildiruvchi "televideniye", "telemetriya" soʻzlarini qoʻllashda ishlatiladi. Telemeditsina – bu masofaviy tibbiyot, kommunikatsiya texnologiyalarining hayotimizning barcha sohalariga kirib borishining mantiqiy natijasidir. Bunga doimo ehtiyoj bor edi, chunki, masalan, aholi kam yashaydigan va chekka hududlar aholisiga yuqori malakali tibbiyot xodimlari orqali tibbiy yordam koʻrsatish juda qiyin va qimmat. Ammo soʻnggi oʻn yillikda internetning rivojlanishi bilan koʻpgina mamlakatlarda telemeditsina asta-sekin davlat xizmatiga aylanib bormoqda.

Oʻzbekistonda birinchi marta telemeditsinani joriy etish masalasi bundan oʻn bir yil oldin muhokama qilingan edi. Shundan keyin xalqaro va mahalliy mutaxassislarning saʼy-harakatlari bilan respublikada telemeditsinani rivojlantirishning shart-sharoitlariga bagʻishlangan qator ilmiy tadqiqotlar nashr etildi. Bu davrda sogʻliqni saqlash tizimini isloh qilish, aholiga, ayniqsa, qishloq joylarda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimini isloh qilish, sogʻliqni saqlash tizimini texnik jihozlash, shu yoʻnalishdagi bilimlarga ega boʻlgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash boʻyicha ishlar amalga oshirildi.

Aholiga tibbiy xizmat koʻrsatishni tubdan yaxshilash, respublika sogʻliqni saqlash tizimini boshqarish samaradorligini taʼminlash, shuningdek, sohaga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, umumeʼtirof etilgan xalqaro standartlar va

innovatsion texnologiyalarni joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.08.2018 yildagi PQ-3894-sonli “O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlashni boshqarishning innovatsion modelini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion sog‘liqni saqlash milliy palatasi tashkil etildi. Ushbu palataning asosiy vazifasi respublikada sog‘liqni saqlashni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, ilg‘or xalqaro standartlar va ilg‘or jahon tajribasini hisobga olgan holda sog‘liqni saqlashni boshqarishning innovatsion modelini joriy etish, shuningdek, ilg‘or texnologiyalardan foydalanishdan iborat. Tibbiy amaliyot sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yo‘llaridan biri telemeditsinadir.

Bugungi kunda O‘zbekistonda telemeditsina sohasi shakllanishning dastlabki bosqichida. Buning sababi B2C kanalining rivojlanmaganligidir: aksariyat hollarda mijozlar telemeditsina xizmatlarini mustaqil ravishda sotib olishga hali tayyor emas (odamlar uchun raqamli tibbiyot hali ham notanish hikoya, tajribali foydalanuvchilar kam). Shu sababli ushbu segmentni ommalashtirish uchun bugungi kunda bunday xizmatlar uchun asosiy savdo kanallaridan biri sifatida sug‘urtalovchilardan foydalanish o‘z samarasini beradi deb hisoblaymiz. Mamlakatimizda mobil aloqaning keng ommalashganligini hisobga olgan holda, telemeditsina xizmatlarini mobil aloqa vositalari orqali sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta polisleri vositasida yo‘lga qo‘yish imkoniyati mamlakatimizda mavjud.

Sug‘urta kompaniyalari uchun raqamli tibbiy xizmatlarning elementlari o‘z mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va ularning iste‘mol qiymatini oshirishga yordam beradi. Ma‘lumki, ixtiyoriy tibbiy sug‘urta mamlakatimizda asosan korporativ ko‘rinishda nisbatan ommalashgan. Ushbu sug‘urta turiga yoki baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sug‘urta polisiga professional shifokorlar bilan masofadan muloqot qilish imkoniyatini qo‘shilsa mijoz uchun foydali va qiziqarli bo‘ladi. Bunday holatda faqat korporativ tibbiy sug‘urta emas, balki shaxsiy tibbiy sug‘urtaning ham rivojlanishiga imakoniyyat yaratiladi. Sug‘urtalovchi uchun telemeditsina (masofaviy tibbiy xizmat) erta tashxis qo‘yish (va arzonroq davolanish), to‘g‘ri terapiya (tez tiklanish, bu sug‘urtalovchi uchun sug‘urta

qoplamasi mablag'ini tejash imkonini beradi) va umuman, sug'urtalanganlarning kasallanishini kamaytirish imkoniyatidir. Sug'urtalanuvchi uchun u megapolisda yashovchi yoki uzoq kichik qishloqda yashovchi bo'lishidan qat'iy nazar kechayukunduz tibbiy yordam olish imkoniyatidir.

Sug'urtalovchilar uchun telemeditsinaning (masofaviy tibbiy xizmatning) yaqqol afzalliklaridan ba'zilarini ko'rib chiqaylik:

1) tibbiy yordamni tashkil etish xarajatlarini kamaytirish, birinchi navbatda, tibbiy muassasaga bevosita xizmat ko'rsatishni so'rab qilinadigan murojaatlar sonini kamaytirish imkoniyati. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, tibbiy muassasalarga mijozlar tomonidan murojaatlarning qariyb 40 foizi profilaktika xususiyatiga ega. Onlayn maslahat narxi shifokorga shaxsan tashrif buyurish narxidan ancha arzonroq bo'lishi mumkin. Natijada yangi xizmat sug'urta polisi narxini 20 foizga kamaytirish imkonini beradi. Ma'lumot uchun: bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida o'rtacha hisobda ixtiyoriy tibbiy sug'urta bo'yicha sug'urta tarifi sug'urta summasining 28-32 foizini tashkil etadi;

2) telemeditsina sug'urta polisining amal qilish geografiasini kengaytiradi. Bunday holatda tibbiy xizmatdan chet elda turib ham foydalanish mumkin. Yangi xizmat chekka hududlarda istiqomat qiluvchi aholiga uylaridan chiqmagan holda yetakchi tibbiyot muassasalarining eng yaxshi mutaxassislaridan tibbiy xizmat olish imkonini beradi;

3) telemeditsina xizmatlari ularning jozibadorligini oshirish uchun turli sug'urta mahsulotlarining xizmat ko'rsatish komponentiga aylanishi mumkin. Bu shaxsiy va mulkiy sug'urta mahsulotlariga tegishli. Shunga ko'ra, bozor oxir-oqibat deyarli har qanday sug'urta turlarini (baxtsiz hodisalardan sug'urtalash, avtomobil korpusini sug'urtalash, ipoteka sug'urtasi va boshqalar) sotish hajmini oshirish uchun telemeditsina xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi;

4) yangi xizmat orqali sug'urta xizmatiga talabning ortishi. Telemeditsinaning (masofaviy tibbiy xizmatning) rivojlanishi, shuningdek, bemorning sog'lig'i haqidagi ma'lumotlarni – tana xarorati, pulsi, qon bosimi va boshqalarni aniqlash imkonini beruvchi taqib yuriladigan elektron qurilmalar

bozorining rivojlanishiga olib keladi. Smartfonlarning yangi avlodi, aqlli soatlar va bilakuzuklar tez orada maxsus tibbiy asbob-uskunalar o'rniga muqobil bo'lishi mumkin.

Yevropa mamlakatlarida va AQShda sug'urta xizmatlari bilan bog'liq mobil aloqa xizmatlari bir necha yillardan beri ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Masalan, AQShning eng yirik klinikalaridan biri va Mayo Clinic tadqiqot markazi tomonidan asos solingan kompaniyalardan biri VitalHealth Software kompaniyasi diabet, saraton va altsgeymer kasalligi kabi surunkali kasalliklarga chalingan kishilarga yordam berishga mo'ljallangan bir qator elektron yechimlarni ishlab chiqdi. Shuningdek, AQShda Amodo xizmati keng miqyosda yo'lga qo'yilgan bo'lib, u qanday xavf-xatarlarga duchor bo'lishi va uning ehtiyojlari to'g'risida ishonchli ma'lumot olish imkonini beruvchi yaxlit mijoz profilini yaratish uchun smartfonlar va boshqa internet qurilmalaridan ma'lumotlarni to'playdi. Bunday ma'lumotlar asosida sug'urta kompaniyalarining individual narxlari va takliflari ishlab chiqiladi.

So'nggi bir necha yil ichida Yevropa va Amerikada tobora ko'proq ish beruvchilar telemeditsina xizmatlaridan foydalanishni sug'urtalashni boshladilar. Bunda xodim video-qo'ng'iroq yordamida telefon orqali shifokor bilan bog'linish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kompaniyalar uchun bu albatta AQShda yiliga bir necha ming dollar turadigan xodimni to'liq tibbiy sug'urta bilan ta'minlashdan ko'ra bir necha baravar arzon. Ushbu tendensiya telemeditsina bozorining o'sishi va rivojlanishiga yordam beradi. Sug'urtalovchilar o'zlarining tibbiy sug'urta polislari egalariga telemeditsina maslahati sifatida tanilgan masofaviy tibbiy maslahatni tanlashni taklif qilishadi. Telemeditsina xizmati birlamchi va ikkilamchi tibbiy maslahatlar uchun ham mavjud. Maslahat olishdan oldin mijoz so'rovnomani to'ldiradi. Maslahatlashuvning o'zi telefon yoki Skype orqali amalga oshiriladi, uning mazmuni VHI shartnomasi shartlariga rioya etilishini nazorat qilish uchun yozib olinadi.

Sug'urtalangan shaxs kompaniyaga murojaat qilganda, yordamni muvofiqlashtiruvchi shifokor mijozga teletibbiyot xizmatini taklif qilish mumkinmi

yoki yo‘qligini, ya’ni qarshi holatlar mavjudmi yoki yo‘qligini aniqlaydi. Shundan so‘ng, loyihada ishtirok etuvchi klinikalardan birining shifokori tomonidan masofadan turib maslahat o‘tkaziladi, bemorning ahvoriga qarab, ungi klinikaga tashrif buyurish taklif qilinishi mumkin. Ikkilamchi maslahat, masalan, test natijalari, instrumental tekshiruvlar yoki davolanish oldin mavjud bo‘lsa masofadan turib amalga oshirilishi mumkin. Mijoz rasmiy maslahat xulosasini oladi. Xizmat ko‘rsatilgandan so‘ng yordam bo‘yicha vositachi vakillar sug‘urtalanuvchining fikrini olish uchun u bilan qayta bog‘lanadi⁷⁶.

Xalqaro sug‘urta kompaniyalari tibbiyot profilaktikasini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Misol uchun, Janubiy Afrikaning Discovery kompaniyasi o‘z mijozlarining ruxsati bilan jismoniy faollik, turmush tarzi, xaridlar haqida ma‘lumot to‘playdi va salomatlikni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar beradi. O‘zlariga g‘amxo‘rlik qilayotganlar uchun esa tibbiy sug‘urta bo‘yicha chegirmalar taqdim etadi. Finlyandiyada muntazam tibbiy ko‘rikdan o‘tganlar shifokorga tashrif buyurmaganlarga qaraganda sug‘urta uchun 10 % kam haq to‘laydilar. Ispaniyalik sug‘urtachilar hayotni sug‘urtalash mahsulotiga ega bo‘lib, unda allaqachon shaxsiy murabbiy, shaxsiy ovqatlanish mutaxassisi va shaxsiy ovqatlanish dasturlari mavjud. Gadgetlar va doimiy ma‘lumotlar uzatilishi yordamida salomatlik ko‘rsatkichlari nazorat qilinadi va tavsiyalar beriladi. Hozirda Rossiyada telemeditsina xizmatlaridan foydalanuvchilar soni olti milliondan ortiq bo‘lib, ularning soni tobora ortib bormoqda.

Signa kompaniyasi tomonidan 2017 yil martidan 2019 yil martigacha o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, 132 ishtirokchi davlat orasida 32 ta tibbiyot mutaxassisligi jalb qilinib o‘tkazilgan telemeditsina xizmatlaridan so‘ng bemorlarning 31 foizi uyda qolib, ko‘rsatilayotgan xizmatlardan foydalanishni afzal ko‘rgan. Tibbiy sug‘urta bo‘yicha har yili o‘tkaziladigan konferensiyalarning 11-konferensiyasi (RGA kompaniyasi, Lissabon, Portugaliya) ma‘lumotlariga ko‘ra, sug‘urta kompaniyalari orqali amalga oshirilayotgan telemeditsinaning ijobiy

⁷⁶ <https://forinsurer.com/news/19/01/21/36529> ma‘lumotlari

tendensiyasi qayd etilgan. Biroq, barcha innovatsion loyihalarda bo‘lgani kabi, telemeditsina ham o‘zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega va yaqin kelajakda hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolar mavjud. Masalan, bozorning barcha ishtirokchilari ham, sug‘urtalovchilar ham tibbiyot muassasalari ham telemeditsina xizmatlarini asosiy sug‘urta mahsulotlariga joriy etishga texnik jihatdan tayyor emas. Buning sababi me‘yoriy-huquqiy bazaning, front va back-ofis mutaxassislarining, moddiy-texnik jihozlarning (jumladan, aktuar hisob-kitoblarning) yo‘qligi, bemorning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va ularni uzatish va saqlash vaqtida tibbiy sirlarning maxfiyligiga qo‘yiladigan talablarning yetarli emasligidir. Shunga qaramay, turli ekspert baholariga ko‘ra, telemeditsina bozorining sanoati qonuniylashtirilishining dastlabki yillarida foydasi ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin, ammo iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirishni hisobga olsak, ushbu sohaning kelajagi bor. Bunga hududiy omillar va respublikaning chekka hududlarida masofaviy xizmatlarga bo‘lgan talabning ortishi yordam berishi mumkin. Shu sababli, sug‘urta sohasida telemeditsina katta muvaffaqiyatga erishishiga ishonish uchun barcha asoslar mavjud.

3.3-jadval

Dunyo telemeditsina bozori dinamikasi⁷⁷ (mlrd.dol.)

Ko‘rsatkich	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.
Telemeditsina xizmatlari hajmi	12,8	18,1	23,4	29,1	48,3	56,2

3.3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, dunyo miqyosida telemeditsina xizmatlari hajmi yillar davomida faqat o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan va o‘shish hajmi nisbatan yuqori.

Shunday qilib, hozirda telemeditsinaning ahamiyatini to‘liq anglay olmaydigan sug‘urta bozori ishtirokchilari ancha orqada qolish xavfi borligini

⁷⁷ <https://zdrav.expert/index.php/> sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

ta'kidlash mumkin. Accenture tahlilchilarining fikricha, raqamli inqilob yaqin 3-4 yil ichida sug'urta sohasini tubdan o'zgartiradi va tibbiyotdagi IT xizmatlari ko'pchilik odamlar hayotining ajralmas qismiga aylanadi, buning sababi sug'urta mahsulotlarining yuqori rentabellikka ega bo'lishidir. Masofaviy tibbiy xizmatlarning qonuniylashtirilishi ixtiyoriy tibbiy sug'urtaning rivojlanishiga olib keladi.

3.3. Milliy sug'urta bozori investitsiyaviy jozibadorligini oshirish yo'llari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev investitsiyalarning iqtisodiyot uchun qay darajada ahamiyatli ekanligini quyidagicha e'tirof etgan: «Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi⁷⁸. Haqiqatdan ham investitsiyalar iqtisodiyot rivojining asosiy omili hisoblanadi. O'z o'rnida, sug'urta faoliyati esa, bir vaqtning o'zida yirik investitsion manba hamda investitsion risklar bilan bog'liq zararlarni qoplashning kafolatidir.

Sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati bir tomondan iqtisodiyot uchun asosiy investitsiya manbai bo'lsa, ikkinchi tomondan, sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi va raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyotida sug'urta muhim va yetakchi o'rinni egallab, uning yetakchiligi quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- iqtisodiyotning barcha sohalarida yuzaga keladigan turli ko'rinishdagi tabiiy va stixiyali hodisalar natijasida ko'riladigan zararlarni qoplash va ularning oldini olish orqali iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash;
- iqtisodiyot sohalarini modernizatsiya qilish va kengaytirishga mo'ljallangan

⁷⁸ 2019 yil – "Faol investitsiyalar va izhtimoiy tiklanish yili. 2019-yilda vaziyatni rivojlantirishning eng muhim barqaror vazifalari tug'ilishi O'zbekiston Respublikasi Parlamenti Prezidentligi Murojaatnomasi. <http://cemc.uz>

katta hajmdagi hamda uzoq muddatli investitsiyalar bilan ta'minlash;

- iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirilayotgan tashqi va ichki investitsiyalarni turli risklardan himoya qilish orqali investitsiya bozorining kengayishiga shart-sharoit yaratib berish.

Mamlakatimizda ham sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati yildan-yilga kengayib borayotganligini quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin (3.4-jadval).

3.4-jadval

**O'zbekiston sug'urta kompaniyalari tomonidan iqtisodiyot sohasiga
yo'naltirilgan investitsiyalar dinamikasi⁷⁹**

Investitsiyalar yo'naltirilgan sohalar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2018 yilga nisbatan 2023 yilda o'sish
Jami investitsiyalar	2010,7	2711,9	3354,6	3746,7	4751,7	6149,9	3,1 barobar
Bank depozitlari	1042,5	1424,3	1784,6	2208,6	2896,6	4037,4	3,9 barobar
Qimmatli qog'ozlar	708,6	848,6	957,7	1096,0	1287,9	1357,5	1,9 barobar
Zaymlar	13,9	20,6	41,6	47,5	60,8	46,9	3,4 barobar
Ko'chmas mulk sotib olish	120,4	230,3	307,5	247,3	358,9	539,5	4,5 barobar
Ustav fondida ishtirok etish	125,1	183,3	257,5	142,2	118,2	134,7	1,1 barobar
Boshqalar	0,2	4,9	5,7	5,1	29,3	170,0	29,3 barobar

3.4-jadvalni tahlil qilganimizda ma'lum bo'ldiki, mamlakatimiz sug'urta kompaniyalarining investitsiya mablag'lari yuqori darajada o'sish tendensiyasiga ega – olti yil ichidagi o'sish 3,1 barobarni tashkil etib, tahlil qilinayotgan olti yil davomidagi o'rtacha yillik o'sish 64,1 foizni tashkil etgan. Investitsiyalar tarkibiga e'tibor qaratganimizda, bank depozitlariga yo'naltirilgan investitsiyalar katta hajmni tashkil etib, 2023 yilda jami investitsiyalarning 65,7 foizini tashkil etgan, olti yil davomida banklarga depozit sifatida qo'yilgan investitsiyalarning ulushi jami

⁷⁹ Sug'urtani rivojlantirish agentliga ma'lumotlar bozori asosida muallif tomonidan tayorlangan

investitsiyalarning o'rtacha 51,1 foizini tashkil etib kelgan. Buning asosiy sababi banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlik nisbatan yuqori darajada ekanligida bo'lib, tuzilayotgan sug'urta shartnomalarining katta qismi bank operatsiyalari risklari bilan bog'liq sug'urta shartnomalari hisoblanadi. Ushbu hamkorlik borasida shuni ta'kidlab o'tish kerak, banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikning imkoniyatlaridan hali to'liq foydalanilmayapti. Mavjud imkoniyatlar to'liq ishga solingan holatda uning natijasida tuziladigan sug'urta shartnomalari soni bir necha baravar ortish ehtimoli mavjud. Bunday hamkorlik sifatida banksug'urta konsepsiyasini amalga oshirish banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni yuqori darajaga ko'tarilishiga imkoniyat yaratib bergan bo'lar edi.

Sug'urta kompaniyalari tomonidan tijorat banklariga yo'naltirilgan mablag'lar ikki tomon uchun qay darajada manfaatli? Tijorat banklari ushbu mablag'lardan kredit mablag'i sifatida foydalanmoqda, ya'ni mazkur mablag'lar yuqori foiz bilan iqtisodiyot sohalariga investitsiya sifatida yo'naltirilmogda, chunki mablag'lar bir vaqtning o'zida ikki tomon uchun daromad keltirishi kerak. Bu esa tadbirkorlar uchun o'z biznes rejalarini samarali amalga oshirishlarini qiyinlashtirmogda. Sug'urta kompaniyalari ham banklarga yo'naltirilgan bu mablag'lardan nisbatan past daromad oladi. Agar bu mablag'lar sug'urta kompaniyalari tomonidan iqtisodiyot sub'ektlariga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilganda sug'urta kompaniyasi uchun ham, tadbirkorlik sub'ekti uchun ham qulay imkoniyatlarni yaratgan bo'lar edi.

Olingan olti yildagi eng yuqori o'sish hajm jihatidan katta bo'lmasada, ko'chmas mulklarga yo'naltirilgan investitsiyalarda yuz bergan (4,5 barobar). Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag'lar 2023 yilda jami investitsiyalarning 22,1 foizini tashkil etgan. Zaymlarga yo'naltirilgan mablag'lar 2023 yilda jami investitsiyalarning 0,8 foizini tashkil etgan bo'lib, ushbu zaymlarning asosiy qismi sug'urta kompaniyalarining o'z xodimlari va polis egalari uchun yo'naltirilgan mablag'lardan tashkil topgan. Tashkilotlar ustav fondida ishtirok etish uchun yo'naltirilgan mablag'lar 2023 yilda jami investitsiyalarning 2,2 foizini tashkil etgan

bo‘lib, ushbu mablag‘lar sug‘urta kompaniyalarining sho‘ba korxonalarini sifatida tashkil etilgan hayot sug‘urtasiga ixtisoslashgan sug‘urta kompaniyalarining ustav kapitallarini shakllantirishga yo‘naltirilgan mablag‘lardir.

Investitsiya sohasiga yo‘naltirilgan mablag‘lar jami bo‘yicha sezilarli o‘shirish davom etgan bo‘lsada, xilma-xillik nisbatan past darajada va shu bilan birga 2023 yilda bitta yo‘nalishda yo‘naltirilgan mablag‘lar hajmida kamayish yuz berganligini ko‘rish mumkin (zaymlar). Ko‘rinib turibdiki, investitsiya faoliyatining diversifikatsiyasi to‘liq ta‘minlanmagan va banklarga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar ulushining ortib borishi davom etmoqda.

Sug‘urta kompaniyalari o‘z investitsiya mablag‘larini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltiradigan yuqori daromadli va ishonchli investitsiya instrumentlari yetarli emasligi investitsiya mablag‘larining samaradorligini pasaytirmoqda. Ushbu holatni e‘tiborga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida quyidagilar ko‘zda tutilgan edi: Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin: sug‘urta bozori professional ishtirokchilarining kapitallashuv darajasini, to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning aktivlari sifatini yaxshilash, shuningdek, sug‘urtalovchilarning investitsiya faoliyatini rivojlantirish;⁸⁰. Mazkur qaror asosida tasdiqlangan yo‘l xaritasida: Sug‘urta (qayta sug‘urta) tashkilotlarining investitsiya instrumentlari ro‘yxatini kengaytirish va ularning, shu jumladan ipoteka, lizing va mikromoliyalash, qimmatli qog‘ozlar va boshqa bozorlardagi investitsiya faoliyatini rivojlantirish masalalari ko‘zda tutilgan va ushbu vazifani idoraviy normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqish asosida amalga oshirish belgilanib, uning muddati sifatida 2019 yilning oktyabr oyi belgilangan edi. Ammo bugungi kunga qadar

⁸⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz>

sugʻurta kompaniyalarining investitsiya faoliyati bilan bogʻliq hech qanday hujjat qabul qilinmadi.

Iqtisodiyotga zarur hajmdagi ichki va tashqi investitsiya mablagʻlarini jalb qilishning muhim sharti mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratishdir. Qulay investitsiya muhitini yaratishning muhim shartlaridan biri yoʻnaltiriladigan investitsiya mablagʻlarining samaradorligini taʼminlashdan iborat. Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi holati va davlat iqtisodiy siyosatining oʻzgarib borishi iqtisodiy fanning dolzarb muammolarini, jumladan investitsiya bilan bogʻliq masalalarni muntazam qayta koʻrib chiqish va ilmiy oʻrganishni talab etadi.

Investitsion faoliyat samaradorligini oshirishning maqsadi moliyaviy risk darajasini nazorat qilish barobarida optimal investitsion daromad olishdir. Ushbu maqsadga samarali investitsiya siyosatini amalga oshirmasdan erishib boʻlmaydi. Iqtisodiyot fanlari doktori, professor A.V.Vaxabovning fikriga koʻra, investitsiya siyosati investitsion faoliyatning oʻrta va uzoq muddatli maqsadlari hamda ularga erishish yoʻllarini belgilab beradi. Investitsiya siyosati investitsiya strategiyasini amalga oshirish boʻyicha chora-tadbirlar tizimi, investitsion taktikadir⁸¹.

Sugʻurtalovchi investitsion imkoniyatining hajmi va vaqt parametrlari uning investitsion faoliyati xarakterini belgilab beradi, investitsion faoliyatning oʻzi esa asosiy faoliyat yoʻnalishiga bogʻliq. Shuning uchun sugʻurta faoliyati investitsiya faoliyatining oʻziga xos tomonlarini taʼriflaydi. Sugʻurta kompaniyasining investitsion faoliyati kelajakda optimal investitsion daromad olish maqsadida ishlab chiqarish va moliyaviy sohalarning investitsion aktivlariga kompaniya investitsion imkoniyatining bir qismini (sugʻurta kompaniyasining vakolatida boʻlgan qismini) transformatsiya qilishdir. Bunday nuqtai-nazarga koʻra, optimal investitsion daromad deyilganda, moliyaviy risklar darajasi nazorat qilinayotgan sharoitda, shu jumladan, toʻlovga qobiliyatlilik yoʻqotilganda va moliyaviy nobarqarorlik holatlarida sugʻurta kompaniyasi tomonidan olinishi mumkin boʻlgan maksimal darajadagi ehtimoliy daromadni tushunmoq zarur.

⁸¹ Бахабов А.В. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. –T.: Baktria press. 2015 (Sh.X. Xajibakiev, D. Tojiboyeva bilan hammualliflikda).

Sug'urta sohasida investitsion imkoniyatning bir qismini transformatsiya qilish tushunchasi mavjud bo'lib, moliyaviy mablag'lar bilan bog'liq, ya'ni to'lovga qobillik va moliyaviy barqarorlikning yo'qotilishi ehtimolining mavjudligi va shu munosabat bilan ushbu faoliyatni davlat tomonidan nazorat qilish zarurati bilan bog'liq to'siqlarning mavjudligidadir.

Investitsion resurslar transformatsiyasida ularni joylashtirish jarayonidagi vaqt ko'rsatkichlari saqlanishi lozim, Xususan, qisqa muddatga ega bo'lgan sug'urtaning riskli turlari bo'yicha sug'urta zahiralari evaziga shakllangan investitsion zahiralarni joylashtirish qisqa muddatli bo'lishi kerak. Bundan tashqari, joriy to'lovga qobillikni yo'qotish riskini minimallashtirish maqsadida qisqa muddatga jalb qilingan investitsion zahiralarning me'yoriy transformatsiyasi muayyan likvidlilik darajasiga ega bo'lgan aktivlarga ko'chishi lozim. Bunda likvidlilik darajasi optimal bo'lishi lozim. U tegishli qisqa muddatli sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta risklarining ehtimoliy sodir bo'lishiga bevosita bog'liq bo'lishi lozim.

Investitsion aktivlarning likvidlilik darajasi juda yuqori bo'lmasligi kerakligiga e'tibor qaratish lozim. Chunki bularning barchasi investitsion faoliyatning daromadlilik pasayishiga olib kelishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, sug'urtalovchi investitsion resurslar transformatsiyasini operativ boshqarish jarayonida ortiqcha likvidlilik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymasligi lozim. Ortiqcha likvidlilikning paydo bo'lishi sug'urta zahiralarning vaqtincha ortiqcha mablag'larini samarasiz joylashtirilganligidan dalolat beradi.

Texnik jihatdan likvidlilik va daromadlilik o'rtasidagi kerak bo'lgan balans investitsion va sug'urta portfelli vaqt ko'rsatkichlarining mosligini doimiy ravishda monitoring qilish orqali (shu jumladan, mazkur maqsadlar uchun ishlab chiqilgan dasturlar, monitoringning avtomatlashtirilgan vositalari yordamida) ta'minlanishi mumkin. Bunda sug'urta risklarining sodir bo'lish ehtimolligini hisobga olish kerak bo'ladi.

Sug'urta sohasining investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi maxsus me'yoriy hujjatlar sifatida 2008-yil 22-aprelda amalga kiritilgan "Sug'urtalovchilar va qayta

sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida" nizom, 2009-yil 3- iyulda amalga kiritilgan "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati to'g'risida" nizom va 2008-yil 20-noyabrda amalga kiritilgan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralari to'g'risida" nizomlar amal qilmoqda.

"Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida" nizomda sug'urtalovchilar aktivlarini joylashtirishga oid talablar belgilangan bo'lib, bunday talablar sifatida sug'urtalovchining boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitallariga joylashtiradigan aktivlariga nisbatan chegaralar, sug'urtalovchining har qanday bitta yuridik shaxsning ustav kapitalidagi ulushiga nisbatan chegara, sug'urtalovchi aktivlarini ko'chmas mulk ob'ektlariga joylashtirish bo'yicha chegara, kredit tashkilotlariga joylashtiriladigan mablag'lar bo'yicha chegaralar belgilangan bo'lib, bundan tashqari, sug'urtalovchi aktivlarini yo'naltirish ta'qiqlangan sohalar ham belgilangan.

Ushbu nizomda qarz berish masalasi ham ko'zda tutilgan bo'lib, unga ko'ra sug'urtalovchi o'z ta'sisчилari, aksiyadorlari va xodimlariga, shuningdek, u bilan hayot sug'urta shartnomasini tuzgan sug'urtalanuvchilarga ushbu shartnomalar bilan kafolatlangan qarz berishga haqli ekanliklari belgilab qo'yilgan. Ushbu nizom asosida sug'urtalovchining mablag'larini joylashtirish faoliyatiga yetarli darajada ko'p chegaralar va cheklovlar belgilangan bo'lib, bundan maqsad, joylashtirilayotgan mablag'larning diversifikatsiyasini, qaytishligini, foydaliligini hamda likvidligini ta'minlashdan iborat.

Yuqorida keltirilgan me'yoriy hujjatlarga e'tibor qaratganimizda, ularda belgilangan qoidalar va talablar asosan, sug'urta kompaniyalari tomonidan investitsion faoliyatni amalga oshirishda ushbu faoliyatni faqat son jihatidan tartibga solishga e'tibor qaratilgan, mablag'larning diversifikatsiyasini ta'minlashga, risk darajasini mumkin qadar kamaytirishga e'tibor qaratilganligini ko'rish mumkin, ya'ni ushbu hujjatlarda investitsion faoliyatga bir tomonlama yondashuvni ko'rish mumkin. Bizning nazarimizda masalaning ikkinchi tomoni – investitsion faoliyatning sifati va samaradorligi masalasiga e'tibor qaratilmagan.

Shuni qayd etish lozimki, investitsiyalarning YaIMdagi ulushi orqali rivojlanish sur'atlariga baho beriladi. Xalqaro tajribaga ko'ra asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning jami hajmi YaIMning 25 foizi va undan kam bo'lmaganda iqtisodiy o'sish namoyon bo'ladi. Iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar o'sha yilning o'zida ijobiy o'zgarish qilmasa-da ma'lum bir yillar o'tgandan so'ng (laglarni inobatga olgan holda) YaIMning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi⁸².

Rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilayotgan, investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'larning samaradorligini belgilovchi ICOR ko'rsatkichini umuman iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan investitsiyalarga nisbatan va xususan, sug'urta kompaniyalari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirilgan investitsiyalarga nisbatan qo'llash va shu asosda sohani tahlil qilib borish zarur. Shu asosda investitsion faoliyatning sifat va samaradorlik ko'rsatkichlariga e'tiborni qaratish zarur, ya'ni investitsiya uchun yo'naltirilgan 2,5-3 so'mdan kamida 1 so'm daromad olishga erishish kerak. Buning uchun investitsion mablag'larning samaradorligi ko'rsatkichiga e'tiborni qaratish zarur. Albatta bunda risk darajasini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak, demak, risk va samaradorlik o'rtasidagi optimal nisbatni topishga shart-sharoit yaratilishi kerak deb hisoblaymiz.

Ma'lumki biror bir hududda yo'naltirilgan investitsiyalarning samaradorligini baholashda jahon amaliyotida ICOR (Incremental Capital-Output Ratio) indeksidan foydalaniladi (yalpi ichki yoki yalpi hududiy mahsulot o'sishining kapital sig'imi). U quyidagicha aniqlanadi:

$$ICOR = I : YHM \times 100\% : \Delta YHM\%$$

Bu yerda:

I – asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar;

YHM – YaHM hajmi;

$\Delta YHM\%$ – YaHM miqdorining o'sish sur'ati, foizda.

⁸² Rajabov N.R. Investitsion muhit jozibadorligini baholashning ilmiy-uslubiy jihatlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali, №4, iyul-avgust 2020 y.

ICOR indeksi qanchalik past bo'lsa, investitsiyalardan foydalanish samaradorligi yuqori bo'ladi. Bunda investitsiyalarning ahamiyati yuqoriligini, o'zlashtirilgan har bir birlik investitsiya o'zidan oldingi darajadan yuqori bo'lgan miqdorda mahsulot yaratish imkonini beradi. Bu esa mavjud holatda iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishni yanada kuchaytirish kerakligini taqozo etadi. ICOR indeksi qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalardan foydalanish samaradorligi past bo'ladi. Bu esa, investitsiyalarning ahamiyati pastligidan guvohlik beradi, o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan iqtisodiy o'sish o'zaro muvofiqlashmaganligidan darak beradi.

Jahon amaliyotida va xususan, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, iqtisodiy o'sishning ijobiy sur'atini ta'minlash uchun ICOR ko'rsatkichining nisbati 2,5:1 dan 3:1 oralig'ida baholanadi. Ya'ni, iqtisodiyotga kiritilgan 2,5 yoki 3 so'mlik investitsiya yalpi ichki mahsulotning 1 so'mlik o'sishini ta'minlashi ijobiy holat hisoblanadi. Shuning uchun mamlakatimizda investitsiya faoliyatida o'z o'rniga ega bo'lgan sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati samaradorligini oshirish mazkur ko'rsatkichning Jahon banki me'yorlariga tenglashishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bunday darajaga erishishda sug'urta kompaniyasi investitsion mablag'lari tarkibi ham muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, sug'urta kompaniyasining investitsiyaga yo'naltiriladigan mablag'lari o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lardan tashkil topadi. Sug'urta kompaniyasining o'z mablag'lari asosan uning ustav kapitali va taqsimlanmagan foydasidan tashkil topadi. Jalb qilingan mablag'lar esa sug'urta faoliyatini amalga oshirish davomida sug'urta shartnomalari asosida to'plangan sug'urta mukofotlaridan tashkil topadi. Jalb qilingan mablag'larning hajmi uning sug'urta faoliyatini qay darajada yo'lga qo'ya olganligiga bog'liq bo'lib, mablag'lar tarkibi esa kompaniyaning qaysi sug'urta tarmog'ida faoliyat olib borishi va sug'urta portfeli tarkibiga bog'liq.

Shuni ta'kidlash kerak, sug'urta kompaniyasi investitsion faoliyatni keng va samarali tarzda yo'lga qo'yish imkoniyati o'z mablag'lari hajmiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Chunki, kompaniyaning o'z mablag'lari turli majburiyatlardan xoli, nisbatan erkin mablag'lar bo'lib, bunday mablag'larni xoxlagan muddatga va ruxsat

etilgan xoxlagan sohalarga yo'naltirish mumkin va bu investitsion faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi. Jalb qilingan mablag'lar esa ko'p hollarda qisqa muddatli bo'ladi va shu bilan birga ularni likvidlilik darajasi yuqori bo'lgan sohalarga yo'naltirish talab etiladi. Likvidlilik darajasi yuqori bo'lgan sohalarga yo'naltirilgan investitsiyalarning daromadliligi nisbatan past bo'lishi tabiiy. Shuning uchun, investitsion faoliyat samaradorligini oshirmoqchi bo'lgan sug'urta kompaniyasi o'z mablag'lari hajmini kengaytirishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

III-BOB BO'YICHA QISQACHA XULOSA

Ushbu bobda sug'urta bozorini rivojlantirish va tartibga solishda davlat ishtirokini institutsional rivojlantirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Mamlakat Prezidenti boshchiligida olib borilayotgan tarkibiy o'zgarishlar va islohotlar natijasida barcha sohalarda keskin o'zgarishlar yuz berdi va ushbu o'zgarishlar sug'urta sohasiga ham taalluqli bo'ldi. Prezident tomonidan sug'urta sohasida qabul qilingan qarorlar va qonunchilikning takomillashtirilishi ushbu sohaning rivojlanishiga yo'l ochib berdi.

Hozirgi zamon milliy sug'urta tizimining rivoji uning huquqiy bazasining takomillashganligi, davlatning soliq va pul-kredit siyosatining samaradorligi, sug'urta kompaniyalari ustidan davlat nazoratining mukammalligi hamda sug'urta kompaniyalarining to'lovga qobillik darajasiga bog'liqligi ta'kidlanmoqda. Prezident qarori asosida Sug'urta bozorini rivojlantirish Agentligining tashkil etilganligi va ushbu tashkilot zimmasiga bozorni rivojlantirishga qaratilgan muhim vazifalarning yuklatilganligi bozorning sezilarli rivojlanishi va ushbu sohani davlat tomonidan tartibga solishni yangi pog'onaga ko'tardi.

Olib borilgan tahlillar asosida sug'urta faoliyatida davlat aralashuvi samaradorligining yuqori bo'lishini ta'minlash uchun amalga oshirish zarur bo'lgan takliflar ishlab chiqildi. Bozorda ko'zga tashlanadigan "soxta sug'urtalovchilar" faoliyatini cheklash zarurligi, buning uchun ularni aniqlashda qaysi jihatlariga e'tibor

qaratish masalalari bo'yicha takliflar berildi. Bunda to'laqonli, ikki tomon manfaatlarini birday ko'zda tutuvchi sug'urta shartnomalari asosida xizmat ko'rsatishni ta'minlash, sug'urta faoliyatiga xos bo'lmagan, ya'ni zararlilik darajasi 0 ko'rsatkichga ega sug'urta kompaniyalarini "soxta sug'urtalovchi" deya qabul qilish taklif etildi.

Mamlakatdagi iqtisodiy o'sish bilan milliy sug'urta bozorining o'zaro bog'liqligi mavjud ekanligi va keng tarzdagi iqtisodiy o'sish bilan birga, bir qancha omillarsiz milliy sug'urta bozorining o'sishini ta'minlashning imkoni yo'qligi asoslandi va ushbu omillar keltirib berildi. Milliy sug'urta bozorini rivojlantirishda davlatning roli muhim ekanligi va davlat ushbu bozorni talab darajasida rivojlantirishda nimalarga e'tibor qaratishi zarurligi ko'rsatib berildi.

Mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'ringa ega ekanligi va bu ushbu sohani sug'urta xizmatlari bilan mumkin qadar to'liq qamrab olish muhim ekanligi, bu esa ushbu masalani davlat darajasida hal etishni taqozo etishi, bunda chet mamlakatlar tajribasida keng qo'llanilayotgan, sug'urta mukofotlarining bir qismini davlat mablag'lari hisobidan qoplab berish yaxshi samara berishi asoslandi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligini ishonchli va arzon sug'urta xizmatlari bilan ta'minlashda o'zaro sug'urta xizmatlarini keng joriy qilish kutilgan natijani berishi asoslandi.

Mazkur bobda sug'urta xizmatlariga bo'lgan iste'mol talabini oshirishning innovatsion yo'llari bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan bo'lib, sug'urta sohasini hozirgi zamon talablari darajasida rivojlantirishda innovatsiyalarni qo'llash keng imkoniyatlarni ochib berishi, yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, ularni xizmat sifatida sug'urtalanuvchilarga taqdim etish hamda ko'rsatish usullari va texnologiyalari, sotish kanallari, yangi innovatsion infratuzilmani shakllantirish dolzarb ilmiy va amaliy muammo bo'lib qolayotganligi ta'kidlangan. Sug'urtani konservativ nuqtai nazardan rivojlantirib bo'lmaydi, uning rivojlanishi innovatsiyalarni doimiy ravishda joriy etish bilan birga, ko'plab yangi xizmat turlarining shakllanishi, ularni sotishning yangi texnologiyalari va sug'urta sohasidagi turli xil moliyaviy munosabatlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Sugʻurtada innovatsiya tushunchasi deganda, sugʻurta faoliyatining va sugʻurta texnologiyalarining har qanday yangi koʻrinishlarini bozordagi professional ishtirokchilar oʻrtasida oʻzaro hamkorlikda amalga oshirish faoliyati tushuniladi. Bunday hamkorlik natijasida esa ularni qoʻllash hududi kengayadi, kutilgan natijaga olib keladi. Sugʻurtada davriylikka asoslangan uch xil koʻrinishdagi innovatsiyalar mavjudligi va ularning turlari koʻrsatib berilgan.

Maʼlumki, jahon amaliyotida yirik tavakkalchiliklarni sugʻurtalashda mamlakatdagi bir necha sugʻurta tashkilotlarini guruhlariga, jamiyatlarga yoki uyushmalarga birlashtirish orqali qayta sugʻurtalash tashkilotlarini tuzish tajribasi XIX asrdayoq shakllanganligi va ushbu usulni mamlakatimizda qoʻllash orqali qayta sugʻurta faoliyatini kengaytirish zarurligi va buni davlatning tashabbuskorligi orqali amalga oshirish zarurligi keltirib oʻtilgan.

Milliy sugʻurta bozoridagi ogʻriqli nuqtalardan biri kadrlar salohiyati bilan bogʻliq ekanligi va sugʻurta kompaniyalari tomonidan yangi xodimlarni ishga qabul qilishda nomzodning tamomlagan mutaxassisligini eʼtiborga olishga zarur eʼtibor qaratilmayotganligi sugʻurta sohasida taʼlim olishga boʻlgan qiziqishni susaytirayotganligi keltirilgan. Bundan tashqari, sugʻurta sohasida faoliyat koʻrsatayotgan koʻp sondagi sugʻurta agentlari faoliyati talab darajasida emasligi, ular sugʻurta agentining funksiyasini toʻliq bilmasligi va funksiyasi faqat sugʻurta shartnomasini tuzishdan iborat boʻlib qolayotganligi, shuning uchun sugʻurta agentlarini maxsus tayyorlovdan oʻtkazish zarurligi asoslab berilgan.

Sugʻurtada innovatsiyalarni joriy etish mamlakatning barcha iqtisodiy omillari (iqtisodiy oʻsish, qayta moliyalash stavkasi, sugʻurtaning rivojlanganlik darajasi va huquqiy asoslari) bilan birga, ijtimoiy va siyosiy omillarni (sugʻurta madaniyati, halqning urf odatlari, diniy kelib chiqishi, siyosiy omillarning holati) hisobga olishni taqozo etishi chet ellik olimlarning talqinlari asosida keltirib berilgan.

Oʻzbekiston sugʻurta bozorida yaqin istiqbolda mamlakatda jadal surʼatlarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanayotganligi, ekotizimlar va barcha sohalarda onlayn-sotuvlarning kengayib borishi hamda yuridik va jismoniy shaxslar toʻlov

qobiliyatining oshib borayotganligi ular o'rtasida sug'urta xizmatlariga bo'lgan iste'mol talabining oshishiga olib kelishi prognoz qilingan. Sug'urta kompaniyalari innovatsion sug'urta mahsulotlari sifatida aniq faktga asoslangan telematika va sug'urta, telemeditsina, narsalar interneti (IoT), masofaviy tibbiyot va ma'lumotlarni raqamlashtirish, parametrik sug'urta turlarini rivojlantirishga e'tiborni qaratishlari o'z samarasini berishi asoslab berilgan.

O'zbekistonda telemeditsina sohasini rivojlantirish va buni sug'urta vositasida yo'lga qo'yish taklif etilgan. Mamlakatda telemeditsina shakllanishning dastlabki bosqichida ekanligi va buning sababi B2C kanalining rivojlanmaganligi ekanligi keltirib o'tilgan. Mamlakatimizda mobil aloqaning keng ommalashganligini hisobga olgan holda telemeditsina xizmatlarini mobil aloqa vositalari orqali sug'urta kompaniyalarining sug'urta polisleri vositasida yo'lga qo'yish imkoniyati mamlakatimizda mavjudligi asoslab berilgan.

Ushbu bobda milliy sug'urta bozori investitsiyaviy jozibadorligini oshirish yo'llari ham tadqiq etilgan bo'lib, sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatining so'nggi olti yillik dinamikasiga ko'ra ushbu sohadagi o'sish 4,3 baravarni tashkil etgan. Investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'lar hajmida katta farq bilan bank sohasi ustunlikka ega bo'lib kelayotganligini ko'rish mumkin. 2021 yilda sug'urta kompaniyalari tomonidan banklarga depozit sifatida yo'naltirilgan mablag'lar jami investitsiya mablag'larining 59 foizini tashkil etgan. Ushbu holat bo'yicha xulosa shundan iboratki, banklarga yo'naltirilgan mablag'lardan sug'urta kompaniyalari nisbatan past daromad oladi, ushbu mablag'larni banklar tadbirkorlarga kredit sifatida yuqori foizlarda taqdim etadi. Agar ushbu mablag'lar sug'urta kompaniyalari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri tadbirkorlarga kredit sifatida yo'naltirilganda ikki tomon uchun ham samarali bo'lgan bo'lar edi.

Sug'urta kompaniyalari o'z mablag'larini yo'naltirishga qiziqishlarining asosiy sababi yuqori likvidlik va ishonchliligining nisbatan yuqoriligidir. Ammo investitsion aktivlarning likvidlilik darajasi juda yuqori bo'lmasligi kerakligiga e'tibor qaratish lozim. Chunki bularning barchasi investitsion faoliyatning daromadlilik pasayishiga olib kelishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda,

sug'urtalovchi investitsion resurslar transformatsiyasini operativ boshqarish jarayonida ortiqcha likvidlilik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymasligi lozim. Ortiqcha likvidlilikning paydo bo'lishi sug'urta zahiralarning vaqtincha ortiqcha mablag'larini samarasiz joylashtirilganligidan dalolat beradi.

Muallif tomonidan ushbu masalada investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'larning samaradorligini belgilovchi ICOR ko'rsatkichi tahlil qilingan va uning xalqaro darajadan pastligi, uni oshirishga erishish uchun investitsion mablag'lar samaradorligini oshirishga e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlanadi. Albatta bunda risk darajasini ham e'tibordan chetda qoldirmagan holda, ICOR ko'rsatkichi va riskning optimal darajasini topish muhimligini ta'kidlanadi.

Umuman olganda, ushbu bobda erishish ko'zda tutilgan maqsadlarga erishildi va dissertatsiya yakunlangan holatga keldi.

XULOSA

O'zbekiston milliy sug'urta bozorining samarali faoliyatini ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

1. Sug'urtaga bo'lgan ehtiyoj har qanday faoliyatda va ijtimoiy hayotda turli ko'rinishdagi riskning mavjudligi bilan paydo bo'ladi. Sug'urta xizmatining tashkil etilishiga esa ikki tomon (sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi) manfaatlarining mavjudligi sabab bo'ladi. Bunday manfaat sug'urtalanuvchida o'z mulki, hayoti, sog'lig'i yoki boshqa shaxslar oldida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan javobgarligi bilan bog'liq kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni qoplashdan manfaatdorlik mavjud bo'lsa, sug'urtalovchida xizmat ko'rsatish evaziga ma'lum miqdorda daromad olish manfaatdorligi mavjud.

2. Sug'urta xizmatlari tadbirkorlarning o'z biznes rejasini amalga oshirish jarayonida ko'radigan moddiy zararlarni qoplab berish bilan cheklanib qolmaydi, balki sug'urta shartnomasini tuzgan tadbirkorga, turli xavflardan qo'rqmagan holda o'z maqsadi yo'lida dadil harakat qilishiga imkoniyat yaratib beradi.

3. Sug'urta bozori pulli munosabatlarning alohida jarayoni bo'lib, unda oldi-sotdi ob'ekti sifatida sug'urta xizmatlari ishtirok etadi va ushbu xizmatlarga nisbatan talab va taklif hosil bo'ladi. Sug'urta bozori ko'p faktorli dinamik tizim bo'lib, bu tizim doimiy o'zaro munosabatda bo'luvchi va birining faoliyati boshqasining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy elementlar, ishtirokchilarning alohida guruhlari va sub'ektlardan tashkil topadi.

4. Mamlakatda sug'urta bozorining qay darajada rivojlanganligini odatdagidek, ushbu mamlakat sug'urta bozorida to'planayotgan sug'urta mukofotlarining hajmi, uning mamlakat YaIMdagi hissasi hamda kishi boshiga to'g'ri kelayotgan sug'urta mukofotining qiymati bilan aniqlash bilan birga, ushbu bozorda faoliyat ko'rsatayotgan boshqa professional ishtirokchilar soni, ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va tarkibi bilan aniqlash me'zonning yanada mukammalligini ta'minlaydi.

5. Sug'urta sohasi o'z mohiyatiga ko'ra, iqtisodiyotda va insonlar hayotida yuzaga kelgan zararlarning o'rnini qoplash va jamg'armalar shakllantirishni rag'batlantirishi tufayli har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi. Buning tasdig'ini rivojlangan mamlakatlar sug'urta bozorlarining holati tasdiqlab turibdi. Mamlakatimiz sug'urta bozorining iqtisodiyotdagi o'rnini bunday darajadan sezilarli orqada ekanligini sug'urta mukofotlarining YaIMdagi hissasi, kishi boshiga to'g'ri kelayotgan sug'urta mukofotining qiymati hamda bozorda faoliyat ko'rsatayotgan professional ishtirokchilar soni ko'rsatib turibdi.

6. Kishi boshiga to'g'ri kelayotgan YaIM bilan umumiy sug'urta tarmog'ida to'plangan sug'urta mukofotlarining YaIMga nisbati o'rtasida yuqori darajada korrelyatsiya mavjud. Mamlakatda kishi boshiga to'g'ri keladigan YaIM miqdori yuqori bo'lsa, o'sha mamlakatda mos ravishda YaIMda sug'urta mukofotlarining hissasi yuqori bo'ladi.

7. Bugungi kunda sug'urta bozorida raqamli texnologiyalarni joriy etish bozorning va har bir ishtirokchi rivojlanishining asosiy elementidir. Raqamli texnologiyalar, mijozning bir sug'urta mahsulotini olishi uchun borishi kerak bo'lgan yo'lni qisqartirish va yengillashtirishga hamda narxini pasaytirishga

imkoniyat yaratish uchun mo'ljallangan.

8. O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urtalovchilarga bo'lgan ishonch past darajada. Buning asosiy sababi, tuzilayotgan sug'urta shartnomalari shartlarida ikki tomon manfaatlarini birday e'tiborga olinmasligi va natijada to'plangan sug'urta mukofotlariga nisbatan to'langan sug'urta qoplamalari kichik hajmni tashkil etayotganligidadir.

9. O'zbekiston sug'urta bozorida malakali kadrlar yetishmovchiligi yuqori darajada. Buning sababi xodimlarning katta qismi sug'urta ixtisosligida ta'lim olmagan va hattoki umuman iqtisodiyot sohasidan boshqa soha vakillari ham kam emas. Ishga qabul qilishda ushbu me'zonga e'tibor qaratilmasligi sababli oliy ta'lim muassasalarida sug'urta ixtisosligida o'qishga bo'lgan qiziqish past darajada.

10. Sug'urta xizmatlari konsentratsiyasi yuqori darajada. Sug'urta xizmatlarining asosiy qismi bitta Toshkent shahri hissasiga (60,9 %) to'g'ri kelmoqda. Chekka hududlarda sug'urta xizmatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilmaydi. Chekka hududlar va kam ta'minlangan aholi qatlamlari uchun davlat bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan sug'urta dasturlarini ishlab chiqish va amalga kiritish konsentratsiya darajasini pasaytirish va shu bilan birga sug'urtaning ijtimoiy himoya vositasi sifatidagi rolini oshiradi, uning ommaviylashuvini ta'minlaydi.

11. Mamlakatda qishloq xo'jaligi sug'urtasi orqaga ketmoqda. Fermer xo'jaliklarining asosiy qismi, dehqon xo'jaliklari va xususiy tomorqa xo'jaliklari deyarli sug'urta xizmatlari bilan ta'minlanmagan. Qishloq xo'jaligi sug'urtasini rivojlantirish uchun ushbu sohada o'zaro sug'urtalash jamiyatlarini tashkil etish va sug'urta mukofotlarining bir qismini respublika va mahalliy byudjetlardan to'lab berishni yo'lga qo'yish zarur.

12. O'zbekiston sug'urta bozori infratuzilmasi rivojlanmayapti. Sug'urta brokeri, assistans, adjaster va syurveerlar soni kam va o'z-o'zidan ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi kichik. Sug'urta agentlari soni va xizmatlar hajmi katta bo'lsada, ular klassik tarzdagi sug'urta agenti funksiyalarini to'liq bajarmayapti. Bozorda assistans xizmatlari hajmini ularning to'laqonli faolyatini

yo'lga qo'yish orqali kengaytirish sug'urtalanuvchilar uchun katta qulayliklarni yaratish imkonini beradi.

13. Sug'urta kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilib, amalda qo'llanilayotgan sug'urta shartnomalari shartlarida sug'urtalovchi manfaatlari ustunligiga yo'l qo'yilishi sug'urta bozorida "soxta sug'urtalovchi"larning faoliyat ko'rsatishiga sharoit yaratib bermoqda. Bunday holatning yuzaga kelishiga sug'urtalovchilar faoliyatini davlat tomonidan zarur darajada nazoratga olinmaganligi sabab bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga ega bo‘lgan nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi. Ikkinchi qism, 52-bob. Sug‘urta. <https://www.Lex.uz/docs/180552>.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta to‘g‘risida”gi Qonuni. 1993 yil 6 mayda qabul qilingan. <https://www.lex.uz/docs/106047>.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2002 yil 5 aprelda qabul qilingan. <https://www.Lex/uz/docs/40253>.
4. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2021 yil 23 noyabrda qabul qilingan. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.11.2021 y., 03/21/730/1089-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 18 fevraldagi “O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risidagi PF-1710- son Farmoni. <https://www.Lex/uz/docs/168879>.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 25 fevraldagi “O‘zagrosug‘urta” davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risidagi PF-1713- son Farmoni. <https://www.Lex/uz/docs/358335>.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonining 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. <https://www.Lex/uz/docs/3107036>.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4412- son Qarori. <https://www.Lex/uz/docs/4459802>.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 oktyabrdagi “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish

bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5265-son qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2021 y., 07/21/5265/0992-son.

10. 2019 yil – «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili. 2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi. <http://cemc.uz>.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //“Xalq so'zi”, 2020 yil 25 yanvar.

12. Vazirlar mahkamasining 1993 yil 23 dekabrda №608 sonli “Qishloq xo'jaligi korxonalarini mulkini majburiy davlat sug'urtasi to'g'risida” gi qarori va ushbu qarorga 1995 yil 4 aprelda kiritilgan №116 sonli o'zgartirish.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda “O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 1060-son qarori. <https://www//Lex/uz/docs/4677911>.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020 yil 14 dekabrda “Elektron turdagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi №780 son qarori.

15. Sug'urta bozorini rivojlantirish masalalari muhokamasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev raisligida sug'urta masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilish. 10.07.2019 y. <https://Prezident.uz/uz/lists/view/2703>.

16. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008 yil 20 noyabrda “Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralarini to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan “Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralarini to'g'risidagi Nozom”. <https://www//Lex/uz/docs/1416862#1416879>.

17. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008 yil 20 noyabrda 2009 yil 3 iyulda 68-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Sug'urtalovchi va qayta

sug'urtalovchining investitsion faoliyati to'g'risida nizom". O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 29-son, 340-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.09.2020 y., 10/20/1982-1/1321-son.

18. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2014 yil 31 dekabrda № 91, № 2014-38 va 01/19-26/29 sonli "Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun jarima sanksiyalarini qo'llash to'g'risidagi nizom".

19. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.08.2019 y., 07/19/4412/3512-son.

20. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2021 y., 569524-son.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

21. The Economist Intelligence Unit. Digital Adoption in the Insurance Sector from Ambition to Reality? [Text] // EIU. – 2015. – P.3. Insurance Market Outlook for 2017/2018.

22. Kolomin Ye.V. Проблемы развития страховых исследований. «Net nichego praktichnee xoroshey teorii» //M.: «Finansы», №6 2003, s.40

23. Qo'ldoshev Q.M. O'zbekistonda o'zaro sug'urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. Monografiya. T.: Iqtisod-moliya, 2020. 25 b.

24. Felipe Berdou. Target Insurance, G06Q40/02; G06Q40/08; (IPC1-7); G06F17/60. 2004. <https://www.freepatetsonline.com/20040010426.pdf>.

25. Kolomin Ye. Новый шаг к консолидации научных сил. //M.: «Finansы», №2 2003. s.47.

26. Molchanov V.S. Rol straxovaniya v ekonomike i finansovoy sisteme strany. //Economics and management. Juvenis Scientia 2016, №4.

27. Sunita Mall. Contribution of Insurance on economic growth in India: An Econometric Approach (2016). <https://www.gtap.agecon.purdue.edu/resources/download/8576.pdf>.

28. Athenia Bongani Sibindi, Ntwanano Jethro Godi. Insurance Sector Development and Economic Growth: Evidence from South Africa. June 2014

Corporate Ownership and Control 11 (4): 530-538, DOI: 10.22495/cocv11i4c6p3.
<https://core.as.uk/download/pdf/43178084.pdf>.

29. Manchurak M.B. Klyuchevye printsipy vzaimodeystviya bankov i straxovyx kompaniy i ix razvitie// Straxovoe delo. №8(257) 2014g. S 20-27.

30. Shennaev X.M. Big Data texnologiyalaridan sug'urta faoliyatida foydalanish: AQSh tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari. O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlantirish va raqamlashtirish masalalari mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari, TMI 12 fevral 2020 y.

31. Xalikulova G.T. Raqamli texnologiyalar va ulardan sug'urta bozorida foydalanish imkoniyatlari. O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlantirish va raqamlashtirish masalalari mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari, TMI 12 fevral 2020 y.

32. Belozеров S.A., Chernova G.V., Kalayda S.A. Sovremennyye faktory razvitiya rossiyskogo straxovogo rynka. // Straxovoe delo – № 6 (303). – 2018. S. 31-35. (<https://elibrary.ru/item.asp?id=35104759>).

33. Bilyk I.V. Osoblyvosti struktury ta infrastruktury strahovyh rynkiv Ukrai'ny ta Pol'shi. Teoriya i praktyka finansiv: zarubizhnyj dosvid [Features of the structure and infrastructure of the insurance market in Ukraine and Poland. Theory and Practice of Finance: Foreign Experience] Svit finansiv [The world of finance], no. 1 (March 2008): 168.

34. Logvinova I.L. Vzaimnoe straxovanie v Rossii: osobennosti evolyusii. //Finansy i statistika, 2017. №2.

35. Ovchinnikova Ye. A. Osobennosti posrednicheskoy deyatel'nosti v straxovanii // Ekonomicheskij jurnal. - M.: Izdatel'stvo Ippolitova, (2008) - № 15.

36. Sultanov D.M. O'zbekistonda risklarni qayta sug'urtalashda o'zaro sug'urtalash tamoyillarini qo'llash imkoniyatlari. // Moliya va bak ishi elektron ilmiy jurnali. -Toshkent 4-son, iyul-avgust, 2020.

37. Sokolova I. A. Straxovanie selskoxozyaystvennoy deyatel'nosti - element agrarnoy politiki//Ekonomika selskogo xozyaystva Rossii. – 2010. - № 10. – s. 56-64.

38. Vorotilova O.A. Проблемы развития личного страхования в России. *Международный журнал социальных и гуманитарных наук.* – 2016. – Т. 7. №1. – С. 171-174.

39. Chrysovalantis Gaganisa, Iftekhar Hasanb, Panagiota Papadimitrie, Menelaos Tasioue. National culture and risk-taking: Evidence from the insurance industry. *Journal of Business Research* 97 (2019) 104–116 r.

40. Darius Lakdawalla, Anup Malani, Julian Reif. The insurance value of medical innovation. *Journal of Public Economics* 145 (2017) 94–102 r.

41. Maslennikova, N.V. Сущность и содержание системы микрострахования / N.V. Maslennikova // *Новая наука: стратегии и векторы развития: Международное научное периодическое издание по итогам Международной научно-практической конференции (19 мая 2016 г., Ijevsk) в 3 ч. Ч.1 – Sterlitamak: AMI, 2016. – С. 150-152.*

42. Rajabov N.R. Investitsion muhit jozibadorligini baholashning ilmiy-uslubiy jihatlari. “*Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*” ilmiy-elektron jurnali, №4, iyul-avgust 2020 y.

III. Boshqa adabiyotlar

43. Ищенко N.G. Правовое регулирование страховых услуг в Европейском союзе. *Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук.* М.: – 2018.

44. Manes A. Основы страхового дела. *Сокр. пер. с нем.* -М.: Издат. Сентр " Анкил" 1992;

45. Bland D. Insurance: Principles and Practice, The Chartered Insurance Institute 1993;

46. Воблы K.G. Основы экономики страхования, Москва, Анкил, 1993;

47. Orlanyuk-Maliskaya L.A., Yanova S.Yu. Страхование Москва, Yurayt, 2012;

48. Shkurenko A.I. Разработка инструментов комплексного исследования страхового рынка региона. *Автореферат диссертации на соискание уч. степени к.е.н.,* Краснодар, 2013;

49. Joseph E. Stiglitz, Jugyoll Yun, Andrew Kosenco. Characterization, Existence and Pareto Optimality in Insurance Markets with Asymmetric Information with Endogenous and Asymmetric Disclosures: Revisiting Rothschild-Stiglitz. NBER Working Paper series, Working Paper 24711/ June 2018. https://www.nber.org/system/files/working_papers/w24711.pdf.

50. Djabarov G.N. Sovremennye tendensii razvitiya straxovogo rьnka v Respublike Tadjikistan. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uch.stepeni k.e.n., Dushanbe, 2019.

51. Nazarova S.A., Mirzarahimov B.H., Narmanov U.A., Ortikov O.H., & Uktamov K.F. The Role Of Uzbek Tourism Culture And Its Historical And Cultural Transformation Processes In Economic Development. Int. J. Of Aquatic Science, 2021, 12 (3), 2776- 2785

52. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J.II.E-M. – T.: «O‘zME» davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 611-b.

53. Yadgarov A.A., Khotamov I., Uktamov K.F., Mahmudov M.F., Yuldashev G.T. & Dushamboevich N.R. Prospects for the Development of Agricultural Insurance System. Alinteri Journal of Agriculture Sciences, 2021, 36 (1).

54. Zanin A.S. Finansovo-pravovoe regulirovanie deyatel'nosti sub'ektov straxovogo rьnka Rossiyskoy Federatsii. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uch.stepeni k.e.n., Moskva 2021.

55. Qo‘ldoshev Q.M. Sug‘urta bozorini rivojlantirish va boshqarish muammolari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent 2009.

56. Qo‘ldoshev Q.M. Sug‘urta bozori. O‘quv qo‘llanma. – T.: iqtisod-moliya, 2011.

57. Abduraxmonov I. “Sug‘urta nazariyasi va amaliyoti”. T.: Iqtisod-moliya, 2018.

58. Kenjaev I.G‘. Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa

doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: 2019.

59. Xalikulova G.T. Sug'urta tizimi va uni amal qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: 2019.

60. Mavrulova N.A. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning rolini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: 2019.

61. Quzieva N.R. Sug'urta faoliyatida injiniring jarayonlarini qo'llash. "Sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatini rivojlantirishning dolzarb muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari to'plami. 2020 yil 7 may.

62. Qo'ldoshev Q.M. O'zbekistonda o'zaro sug'urtaning metodologik asoslarini takomillashtirish. Monografiya. T.: "Iqtisodiyot" DUK, 2021.

63. Shennaev X.M. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2021.

64. Yuldashev R.T. Ocherki teorii straxovaniya: retrospektivnyy analiz razvitiya. M.: Ankil 2009, s.90.

65. Gomellya V.B., Rubin Yu.B., Soldatkin V.I. Straxovoy portfel. M.: SOMINTEK 1994, s.7.

66. Qo'ldoshev Q.M. O'zbekistonda o'zaro sug'urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2019. 5 b.

67. Abduraxmonov I. Sug'urta nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma., T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2018. 23 b.

68. Sobirov H.R. Sug'urta: 100 savol va javob. – T.: "Mehnat" nashriyoti, 1999, 17 b.

69. Qo'ldashev Q.M. Sug'urta bozori. O'quv qo'llanma. Toshkent –

Iqtisoiyot, 2011, 12 bet.

70. Karimov I.A. “O‘zbekiston XX-asrga intilmoqda”. -T.: O‘zbekiston, 1999.
 71. Adamchuk N.G. Teoriya i praktika straxovaniya. O‘quv qo‘llanma – M.: Ankil, - 2003.
 72. Zelenchuk V.A. Sovershenstvovanie vzaimnogo straxovaniya ot neschastnogo sluchaya v predprinimatelskoy deyatelnosti. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie nauchnogo zvaniya k.e.n., Moskva 2013.
 73. Otsenka otraslevykh i stranovykh riskov straxovogo sektora: Sektor obshchego straxovaniya Respubliki Uzbekistan. <https://www.uzdaiy.uz/ru/post/57022>.
 74. Shaxov V.V. Straxovanie. – M.: YuNITI, 2003. -311s.
 75. Eshbi U.R. Vvedenie v kibernetiku. – M.: Nauka, 1959. – 432 s.
 76. Ryabikin V. I., Tixomirov S.N, Baskakov V.N. Straxovanie i aktuarnyye raschetny: uchebnik. – M.: Ekonomist, 2006, 464 s.
 77. Osades S. S. Straxuvannya: Pidruchnik / Kerivnik avt. kolektivu i nauk, red. Vid. 2-ge, pererob. i dop. (2002) K.: KNEU.
 78. Vaxabov A.V. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. –T.: Baktria press. 2015 (Sh.X. Xajibakiyev, D. Tojiboyeva bilan hammualliflikda).
 79. Xaydelbax O. Aktualnyye aspekty straxovaniya v selskom khozyaystve. Discussion Paper. No 57. 2004.
 80. Abdullaev A., Aybeshov X., Rustamov Q., Mustafoev U. Fermer xo‘jaligi iqtisodi. – T.: Fan va texnologiya, 2006 y., 176 bet.
 81. Abdug‘aniev A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. – T.: Adabiyot jamg‘armasi. 2007. – 340 b.
 82. Shershenevich G.F. Kurs torgovogo prava SPB., 1908. T.2. s.358.
 83. Meyer D.I. Russkoe grajdanskoe pravo. SPB., 1897. s.553.
- R.T.Yuldashev Ocherki teorii straxovaniya: retrospektivnyy analiz razvitiya. M.: Ankil 2009, s.89.

IV. Rasmiy saytlar

84. <https://kursiv.kz>.
85. <https://www.acra-ratings.ru/research/1671>.
86. www.agroinsurance.com.
87. <https://forinsurer.com/public/17/11/10/4799>.
88. Tadviser.ru. Insur Tech Trendy razvitiya IT v straxovanii Kiberstraxovanie Straxovanie kiber-riskov.
89. "Umnoe" straxovanie, 2021/11/24 15:16:40 https://www.mf.uz/uz/?option-com_content&view=article&id=354.
90. <http://www.mf.uz>.
91. <http://www.stat.uz>.
92. IMDA.UZ.
93. Oxford Economics [elektronnyy resurs]. URL: <http://www.oxfordeconomics.com/forecasts-and-models>.
94. <https://forinsurer.com/news/19/01/21/36529>.
95. <https://zdrav.expert/index.php/>.
96. Summariy of Business Reports and Data / Risk Management Agency (<https://www.rma.usda.gov/data/sob.html>).
97. www.agros.uz.
98. O'zbekiston Respublikasi statistika davlat qo'mitasi (sayt). URL: <http://www.stat.uz/reports/74/>.
99. Oxford Mutual Insurance Company: <http://www.oxfordmutual.com/>.
100. http://www.omia.com/insProd_farm_general.asp.

ILOVA

1-ilova

Sug'urta klasslari bo'yicha amalda bo'lgan va yangi tuzilgan sug'urta shartnomalari⁸³ (dona)

Ko'rsatkichlar	31.12.2020		31.12.2021	
	Amalda bo'lgan shartnomalar	Yangi tuzilgan shartnomalar	Amalda bo'lgan shartnomalar	Yangi tuzilgan shartnomalar
Jami, shu jumladan:	7 004 976	6 195 847	8 405 759	7 599 136
Majburiy sug'urta, shu jumladan:	3 758 305	3 436 701	4 413 009	3 883 810
IBFJMS	42 431	39 022	41 066	41 353
TVEFJMS	3 682 831	3 339 686	4 347 061	3 790 884
TFJMS	25 062	49 405	16 762	41 960
Xavfli i.ch. ob'ektlari sug'urtasi	2 697	2 706	2 494	2 576
Qurilish-montaj qaltisliklari sug'urtasi	3 250	3 800	4 935	6 310
Boshqalar	2 034	2 082	691	727
Klasslar bo'yicha ixtiyoriy sug'urta (umumiy sug'urta tarmog'i), shu jumladan:	3 213 385	2 740 680	3 905 876	3 629 848
1-klass – Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta	1 409 989	1 477 316	1 486 739	1 821 905
2-klass – Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish	22 895	23 823	20 393	22 324
3-klass – Yer usti transport vositalarini sug'urta qilish	243 384	139 290	326 604	219 025
4-klass – Harakatlanadigan temir yo'l sug'urtasi	229	1 972	135	1 297
5-klass – Aviatsiya sug'urtasi	13	28	15	20
6-klass – Dengiz sug'urtasi	7	7	27	20
7-klass – Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish	1 523	43 069	4 510	44 946
8-klass – Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urtasi	1 594	692	41 186	40 264

⁸³ IMDA.UZ sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayёрlangan

9-klass – Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish	11 475	11 360	8 759	8 741
10-klass – Avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	406	407	4 650	6 193
11-klass – Aviatsiya doirasidagi javobgarlik sug'urtasi	5	6	7	9
12-klass – Dengiz sug'urtasi doirasidagi javobgarlik sug'urtasi	-	-	-	-
13-klass – Umumiy fuqarolik javobgarligi sug'urtasi	41 243	41 191	28 280	40 240
14-klass – Kreditlarni sug'urta qilish	571 565	331 897	1 024 416	710 236
15-klass – Kafillikni sug'urta qilish	888	1 896	2 536	11 597
16-klass – Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklarni sug'urta qilish	37 519	32 086	12 447	7 385
17-klass – Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish	-	-	-	-
Ikki va undan ortiq klasslar bo'yicha sug'urta	870 650	635 640	945 172	695 646
Klasslar bo'yicha ixtiyoriy sug'urta (hayot sug'urtasi sohasi), shu jumladan:	33 286	18 466	86 874	85 478
1-klass – Hayot va annuitetlar	16 517	16 055	26 147	25 299
2-klass – Nikoh va tug'ilish	9	9	7	-
3-klass – Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish	16 619	2 392	30 090	13 671
4-klass – Sog'liqni sug'urta qilish	2	2	90	90
Ikki va undan ortiq klasslar bo'yicha sug'urta	139	8	30 540	46 418